

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI  
DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITA  
O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI

## EKSTREMIZM VA TERRORIZM – TARAQQIYOT DUSHMANI

*Ichki ishlar tizimi xodimlari  
(profilaktika inspektorlari) uchun  
o‘quv-amaliy qo‘llanma*

Mas’ul muharrirlar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Toshkent islom universiteti prorektori **Z. Islomov**;  
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Akademiyasi boshlig‘i **SH. Ikramov**

Toshkent

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning  
2015-yil 2-dekabrda 5228-sonli xulosasi asosida tayyorlandi*

**T a q r i z c h i l a r :**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining o'rinbosari **O'. Hasanboyev**;  
O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish  
bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik **U. Narzullayev**;  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot  
markazi bo'lim mudiri tarix fanlari nomzodi, dotsent **A. Abdullayev**;  
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy akademik  
kurslari boshlig'i yuridik fanlar nomzodi, dotsent **M. Ziyodullayev**

**E – 41 Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot dushmani:** Ichki ishlar tizimi xodimlari (profilaktika inspektorlari) uchun o'quv-amaliy qo'llanma / Mas'ul muharrirlar: Z. Islomov, SH. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 151 b.

Kitobda O'zbekistonda diniy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, diniy bag'rikenglikning tarixiy va huquqiy asoslari, diniy adabiyotlarni nashr etish va ekspertiza qilish sohasida O'zbekiston tajribasi, missionerlik va prozelitizmning jamiyatga tahdidi, ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, islomdagi aqidaviy yo'nalishlar va fiqhiy mazhablar, islom asoslarini g'arazli maqsadlarda buzib talqin qilishning mohiyati va shakllari, insonlarni mutaassib shaxslar tomonidan psixologik ta'sirga solayotgan omillar, diniy ekstremizm va terrorizmning kelib chiqishi, shakllanishi, fuqarolarni ekstremistik oqimlar ta'siridan asrashning dolzarb masalalari, ekstremizm, terrorizm va axborot xurujlarining namoyon bo'lish shakllari, Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib borishga intilayotgan diniy-ekstremistik harakatlarning xususiyatlari, profilaktika (katta) inspektorlarining xorijga ishlashga borayotgan va qaytib kelgan shaxslar bilan ishlash faoliyati, mutaassiblikka qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining o'rni, ayollarni mutaassib shaxslar ta'siriga tushirayotgan omillar yoritilgan, shuningdek, mahallalarda diniy-ekstremistik oqimga moyilligi bo'lgan oilalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Qo'llanma keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**BBK 86.38+67.99(5U)8ya73**

*Biz hammamiz tinchlikni istaymiz, tinchlikni orzu qilamiz, lekin tinchlik uchun kurashish kerak, bu yorug‘ hayotni, farzandlarimizning kelajagini, ularning beg‘ubor kulgusini har qanday xavf-xatardan asrashimiz lozim.*

*Islom Karimov*

## **KIRISH**

Tinchlik buyuk ne‘mat, inson hayotining birlamchi sharti hisoblanadi. Chunki, osuda hayot, yaratuvchanlik va farovonlik, umuman, barcha ezgu maqsadlarning ro‘yobi eng avvalo shu ne‘matga bog‘liq. Shuning uchun ham qadimdan barcha xalqlar tinchlikni asrash uchun moli-yu joni bilan kurashib kelganlar.

Ammo bugungi voqyelik tinchlikni ko‘plab mamlakatlar uchun hali hanuz orzu bo‘lib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Mutaxassislar tinchlikka raxna soluvchi omillarni turlicha keltiradilar – davlatlar o‘rtasidagi nizoli vaziyatlar, fuqarolik urushlari, milliy va etnik nizolar, tabiiy ofatlar... Lekin bu omillarning ichida bugungi kunda eng xatarli va har qanday davlat tinchligi, osoyishtaligi uchun jiddiy xavf solishga qodir bo‘lgani diniy ekstremizm va terrorizm ekanini har bir sog‘lom fikrli inson tan olmoqda.

Diniy ekstremizm yoki terrorizm illatining so‘nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Prezidentimiz Islom Karimov ham bu haqida so‘z yuritib: «Bugungi tahlikali va murakkab zamonda dunyoda yuz berayotgan keskin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar va qarama-qarshiliklar, millatlar va dinlar o‘rtasidagi turli mojarolarni hammamiz ko‘rib, bilib turibmiz. Ayniqsa, yovuz maqsadlari yo‘lida muqaddas islom dinimizni niqob qilib olgan g‘arazli harakat va kuchlar sog‘lom fikrlaydigan hych bir insonni tashvishga solmasligi mumkin emas. Dunyoning turli burchaklarida, musulmon mamlakatlarida ro‘y berayotgan qo‘poruvchilik va buzg‘unchilik harakatlaridan barchamiz tegishli xulosa chiqarib, doimo hushyor, sezgir va ogoh bo‘lib yashashimiz kerakligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda», degan edilar.

Bunday vaziyatda yurtimizning har bir fuqarosidan doimo ogoh va hushyor bo'lish, yon atrofda yuz berayotgan hodisalarga befarq qaramaslik talab etiladi. Ayniqsa, bu masalada xalq tinchligi va xavfsizligiga bevosita mas'ul bo'lgan soha xodimlari ko'proq hushyor va sergak bo'lmog'i, yurt tinchligi va xalq farovonligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish bo'yicha o'ziga xos bilim va tajribaga ega bo'lishlari muhimdir.

Shuni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, IIV Akademiyasi, O'zbekiston musulmonlari idorasi, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ushbu qo'llanma joylardagi profilaktika inspektorlarining diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish hamda ularga qarshi kurash borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanmada O'zbekistonda diniy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni batafsil yoritilgan. Jumladan, O'zbekistonda diniy bag'rikenglikning tarixiy va huquqiy asoslari, diniy adabiyotlarni nashr etish va ekspertiza qilish sohasidagi O'zbekiston tajribasining afzalliklari tarixiy va huquqiy jihatdan atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, turli diniy sektalarning yurt tinchligi va millatlararo totuvlikka jiddiy xavf ekani va uning oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar tizimli ravishda tushuntirib berilgan.

Bu kabi mavzularni teran anglab yetish profilaktika inspektorlarining diniy bag'rikenglik borasidagi bilimlarini oshirish bilan birga, o'z hududida istiqomat qiluvchi turli din vakillari bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, diniy mazmundagi adabiyotlar bilan ishlashni qonuniy tartibga solish va turli diniy sektalar bilan bog'liq amaliyotlarni olib borish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishlariga ko'maklashadi.

Ma'lumki, yurtimiz aholisining 90 foizidan ko'prog'ini islom dini vakillari tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda har bir profilaktika inspektori islom dini bilan bog'liq bo'lgan ibodat marosimlari va diniy tushunchalarni to'g'ri anglab yetishi juda muhimdir. Chunki, o'z hududida islom dini vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan diniy ibodat va marosimlarning mazmun-mohiyati va o'tkazilish tartibi haqida asosli

bilimga ega bo'lmalik an'anaviy sof islom bilan soxta diniy oqimlar o'rtasidagi farqni ajrata olmaslikka, natijada din borasida turli nizoli vaziyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shu maqsadda mazkur qo'llanmada islom dini hamda undagi yo'nalish va mazhablar, diniy tushunchalarni buzib talqin qilinishining salbiy oqibatlari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Jumladan, islom dinining tinchlik dini ekani, ya'ni din nomidan buzg'unchi ishlar qilayotgan shaxslar aslida din mohiyatini to'g'ri tushunmagan va qaysidir siyosiy guruhlarning nog'orasiga o'ynayotgan kimsalar ekani dalillar asosida ifodalab beriladi.

Shu bilan birga, islomdagi aqidaviy yo'nalishlar va fiqhiy mazhablar haqida ham alohida to'xtalib o'tildi. Bundan ko'zlangan maqsad, hozirda diniy ekstremistik oqimlarga yoshlarning aralashib qolishi bevosita islomdagi aqidaviy yo'nalishlar va fiqhiy mazhablarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglab yetmaslik oqibatida kelib chiqmoqda. Profilaktika inspektorlari diniy mutaassiblikka moyil oilalar, shaxslar bilan muntazam ish olib borishi va to'g'ri yo'lga qaytarishlari uchun ular tomonidan ilgari surilayotgan har qanday g'oyalardan yetarlicha voqif bo'lmoqlari zarur.

Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning ish faoliyati mas'uliyatli va sharafli kasblardan hisoblanadi. Shu bilan birga, ular bu faoliyat bilan shug'ullanish orqali Vatan oldidagi fuqarolik burchlarini ham bajarmoqdalar. Bu esa, soha xodimlarining o'z kasb-faoliyatiga o'ta mas'uliyat bilan qarashini talab etadi. Qolaversa, ularning bu xizmatlari muqaddas islom dinida ham yuksak qadrlanadi. Mazkur qo'llanmada soha xodimlarining Vatan tinchligi, sarhadlarining daxlsizligini asrashga qaratilgan xizmatlari uchun yuksak ajr-savoblarga ega bo'lishi Qur'on oyatlari va hadislar asosida yoritib berilgan.

Ayni paytda, ekstremistik oqimlar tomonidan kishilarni o'z domiga tortishda har bir shaxsning o'ziga xos xususiyati, jinsi, yoshi, fe'l-atvori va ruhiy kechinmalari bilan bog'liq jihatlariga ham alohida e'tibor berilmoqda. Masalaning shu jihatini hisobga olgan holda qo'llanmada fuqarolarni mutaassib shaxslarning psixologik ta'sirga tushib qolish omillari mutaxassislar tomonidan atroflicha bayon etilgan.

Aslida, islom dini – inson qadri va taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan eng ezgu g'oyalar bilan yo'g'rilgan tinchlikparvar din. Biroq, turli diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan

kelib chiqib, islom ta'limotining ayrim g'oya va tamoyillari mazmun-mohiyatini bir yoqlama, noto'g'ri talqin qilib, odamlarni to'g'ri yo'lidan adashtirishga urinmoqda. Shuni hisobga olgan holda mazkur kitobda bugungi kunda islom niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan ekstremistik harakatlar o'zlariga bayroq qilib olgan g'oya va tamoyillarning muqaddas dinimizning asl mohiyatiga zid ekani Qur'oni karim oyatlari, hadislar, mashhur ulamolarning fikrlari hamda boshqa manbalarga tayangan holda ochib berildi. Bu esa, ichki ishlar xodimlariga diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda ko'maklashadi.

Diniy ekstremizm va terrorizm jinoyatlarining oldini olish esa, eng avvalo, mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, fuqarolarning osoyishta hayot kechirishiga xizmat qiladi. Ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishda, birinchi navbatda, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan profilaktik ishlarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish taqozo etiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, diniy mutaassiblik, ekstremizm va terrorizmning oldini olish ishlarini tashkil etishda ichki ishlar organlari xodimlari mahalla aholisi o'rtasida ibodat marosimlarini amalga oshirayotgan, diniy o'quv yurtlarida o'qiydigan, diniy rutbaga ega kishilar haqida biryoqlama va noxolis, ayrim hollarda salbiy munosabat shakllanib qolishiga yo'l qo'ymasliklari juda muhimdir. Aks holda, bunday xato fuqarolarda davlatga, hukumatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati shakllanishiga turtki bo'lishi, shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlar asosida kafolatlangan vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlarining kamsitilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Zero, mustaqillikdan keyin xalqimiz o'z diniy marosimlari va ibodatlarini emin-erkin ado etib kelayotgani, bu borada hech qanday cheklovlar va to'siqlar yo'qligi, bu huquqlar dunyoviy davlatchiligimiz asosi bo'lgan Konstitutsiyamizda ham belgilab berilgani katta saodatdir. Shuningdek, mahallalarda o'z vaqtida turli guruh va oqimlarga aralashib qolgan fuqarolarni o'z holiga tashlab qo'ymaslik, ular bilan muntazam tushuntirish ishlarini olib borish va odamlardan ajralib qolishlarining oldini olish zarur.

Hozirda mamlakatimiz fuqarolarining uzoq muddatga chet el davlatlariga chiqishlari va qaytib kelish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish ichki ishlar organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimi-

dagi tegishli sohaviy xizmatlar xodimlarining barchasi ham respublikamiz fuqarolarining uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarini tartibga solish, ular bilan viktimologik profilaktika, shuningdek, qaytib kelgan shunday fuqarolar bilan tegishli tezkor-profilaktik ishlarni amalga oshirish borasida zarur kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Qolaversa, bu borada ularga yordam ko'rsatuvchi o'quv, uslubiy va amaliy qo'llanmalarining yetarli darajada emasligi bugungi kunda ichki ishlar organlarining ushbu yo'nalishida mavjud muammolardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda mazkur qo'llanmada profilaktika inspektorlarining xorijga ishlashga borayotgan va qaytib kelgan shaxslar bilan ishlash faoliyatiga doir yo'l-yo'riqlar ham bayon etildi. Qolaversa, o'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida glossariy qismida mavzuga oid atamalar izohlab berildi. Bundan tashqari, qo'llanma so'ngida mavzuga doir savollar berilgan bo'lib, ular soha xodimlariga mutaassib shaxsning xususiyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Umid qilamizki, kitobda keltirilgan ma'lumotlar ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan, profilaktika inspektorlarining yurtimizda amalga oshirilayotgan diniy siyosatni to'g'ri tushunishlarida, diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish hamda fuqarolarni mazkur illatlar domidan asrashda o'ziga xos qo'llanma vazifasini o'taydi.

# **I bob. O‘ZBEKISTONDA DINIY SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR HAMDA ULARNING TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDAGI O‘RNI**

## **1.1. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning tarixiy va huquqiy asoslari**

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, zaminimizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixi bor. Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e‘tiqod qilgan xalqlar yashab kelgan. O‘zbekistonning jug‘rofiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy sohalarda aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotga katta ta‘sir ko‘rsatgan va o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Asrlar mobaynida o‘lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o‘z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat‘i nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi tuyg‘ular o‘lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ma‘naviy asosini tashkil qiladi.

Ma‘lumki, har bir dinning o‘ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba‘zan bir-biriga mutanosib bo‘lsa, ba‘zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag‘rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi, turli e‘tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo‘la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonlardanoq o‘lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo‘lgan. Eng qadimiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo‘lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Zero, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o‘rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham «vaxara» – buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor.

Markaziy Osiyoga islom dini yoyilishi arafasida bu yerga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo‘nalishidagi nasroniylik dini muhim



mavqiyeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian yepiskopi, VIII asrda esa mitropoliti xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan.

VIII asrda Markaziy Osiyo arablar tomonidan zabt etilganidan soʻng mintaqaga islom dini kirib keldi. Aholining bu dinni qabul qilishi asta-sekinlik bilan, bir tekis boʻlmagan holda yuz berdi. Aholining bir qismi oʻzlarining qadimgi dinlariga eʼtiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Movarounnahr xalqlarining islom diniga zid kelmaydigan maʼrifiy-axloqiy gʻoyalari, huquqiy meʼyor va urf-odatlarini toʻla saqlanib qoldi hamda islom taʼlimoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Movarounnahrda islomning oʻziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab boʻldi. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bagʻrikenglik samarasi edi.

Oʻlkada tinchlik va diniy bagʻrikenglik muhitini taʼminlashda islom taʼlimotidagi oʻzga din vakillari bilan oʻzaro murosa yoʻlini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham oʻziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom taʼlimotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bogʻliq, insonning toʻliq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bagʻrikenglik muhiti barqaror boʻlishi uchun asosiy omillardan boʻldi.

Bu taʼlimot Qurʼoni karim oyatlari va hadisi shariflarga tayanar edi. Jumladan, Qurʼoni karimning «Baqara» surasi 256-oyatida **«La ikroha fid-din»**, yaʼni **«Dinda zoʻrlash yoʻq»** degan qoida asosida dinni qabul qilish ixtiyoriy amal ekani va insonni zoʻrlab biror dinga kiritish mumkin emasligi, har bir inson dinga munosabatini belgilashda erkin ekani qayd etiladi.

Bundan tashqari, yana bir oyatda: **«Agar Rabbingiz xohlasa edi, Yer (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan boʻlur edilar. Bas, Siz odamlarni moʻmin boʻlishlariga majbur qilasizmi?!»** (*Yunus, 99*) deyiladi.

Shuningdek, ijtimoiy masalalarda ham musulmonlarning oʻzga eʼtiqod vakillari bilan hamkorlik qilish, ular bilan hamjihatlik asosida munosabatga kirishishga chaqiriladi. Jumladan, boshqa din vakillari (ahli kitoblar)ning taomlaridan yeyish, ular bilan quda-andachilik qilish, ulardan uylanishga ruxsat berilgan.

Bu haqida «Moida» surasida shunday deyilgan: **«Bugun sizlar uchun pokiza narsalar halol qilindi. Shuningdek, ahli kitoblarning taomi**

**sizlar uchun halol va taomingiz ular uchun haloldir. Zinokorlik va maxfiy o‘ynash qilib olish uchun emas, balki mahrlarini bersangiz, mo‘mina ayollarning iffatli va sizlardan oldin Kitob berilganlarning iffatli ayollari (ham haloldir) (5-oyat).**

Quda-andachilik insonlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi asosiy rishtalardan biridir. Musulmon insonning ahli kitob (xristian va yahudiylar)ga uylanishi natijasida o‘zga din vakillari bilan qarindoshlik rishtalari bog‘lanadi va ular o‘rtasida o‘zaro mehr-muruvvat tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Islom ta’limoti esa ana shunday hamkorlik va hamjihatlikka chorlaydi.

Shuningdek, zarur bo‘lsa, o‘zga din vakillarining ibodatlarini-da, hurmat qilish, ularni bajarib olish uchun imkoniyat yaratib berishga islom dini da’vat qiladi. Jumladan, Muhammad (a.s.) huzurlariga Najrondan kelgan nasroniy dini vakillari masjidida o‘z diniy ibodatlarini bajarishga chog‘lanib turganlarida sahobiylar ularni qaytarishmoqchi bo‘ladilar. Shunda Rasululloh (a.s.): *«Qo‘yinglar, ibodat qilaverishsin»*, deganlari yuqoridagi fikrning yaqqol isboti hisoblanadi.

Shu bilan birga, islom dinida kishi qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar uni inson sifatida qadrlash, unga hurmat ko‘rsatishga da’vat etiladi. Imom Buxoriydan rivoyat qilingan quyidagi hadisda bunga ishorat bor: *«Nabiy (s.a.v.) oldidan bir janoza olib o‘tildi. Shunda u zot o‘rinlaridan turdilar. Odamlar: «YO Rasululloh, bu yahudiyning janozasi», deyishdi. U kishi: «U inson emasmi?!» dedilar»*. Demak, islom dinida millati va dinidan qat’i nazar har bir inson hurmat va qadr-qimmatga ega.

Ming yillar davomida islom dini tamoyillarga sodiq holda yashab kelayotgan xalqimiz ham bu kabi go‘zal fazilatlarni to‘laligicha hayoti, urf-odat va an‘analariga singdirib olganini ko‘rish mumkin.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag‘rikenglik bilan bog‘liq qadriyatlar targ‘ib qilingan g‘oyalarni uchratamiz. Buyuk alloma, moturidiya aqidaviy yo‘nalishi asoschisi Abu Mansur Moturidiyning asarlarida bayon etilgan bag‘rikenglik g‘oyalari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Samarqandlik fiqh, mufassir Abu Lays Samarqandiy esa o‘zining «Bahr al-ulum» nomli tafsir kitobida Qur’ondagi «Mumtahana» surasining 8, 9-oyatlari sharhida «Sizlar bilan dinda urush qilmagan o‘zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling», deb yozadi.

Shayx Ahmad Yassaviy ham o‘z hikmatlarida o‘zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lishni uqtirgan:

*Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,  
Ko'ngli qottig' diloJordan xudo bezor.*

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning bu kabi o'g'itlari uzoq yillar davomida xalqimizning bag'rikeng bo'lishga, turli din va elatlar bilan tinch-totuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan.

Boy tarixiy tajribaning davomi sifatida bugungi kunda ham yurtimizda bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari va o'ndan ortiq diniy konfessiyaga e'tiqod qiluvchi shaxslar bir oila farzandlaridek ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqdalar. Ularning urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarining rivojlanishi, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatishida mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik, ayniqsa, tinchliksevar xalqimizning bag'rikengligi muhim omil bo'lmoqda.

Bu borada yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag'rikenglikka doir qoidalarining qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovor. Bu borada, eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z dini va e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart», degan norma asosida turli diniy e'tiqoddagi insonlarning dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi e'tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, respublikamizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarining davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, «diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi». Bu qoidaning

mohiyati shundaki, O‘zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi hamda ular o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, xalqaro huquqiy hujjatlarda ham e‘tiqod erkinligi va diniy bag‘rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta’kidlanadi. Jumladan, 1948-yili qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida «Har bir inson fikr, vijdon, din va e‘tiqod erkinligi huquqiga egadir», deb ta’kidlangan. 1966-yili qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida ham «Biror odam ham o‘z ixtiyori bilan o‘z dini va e‘tiqodiga ega bo‘lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo‘lmasligi kerak», deb ko‘rsatilgan. Bu esa, diniy bag‘rikenglikning nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanidan ham dalolat beradi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi huquqiy me‘yorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorumizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, mustaqillikkacha respublikada bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo‘lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi Yevangel-Lyuteran jamoasi, Rim-katolik cherkovi, «Yettinchi kun adventistlari» diniy tashkiloti, Bahoiylar jamoasi, yahudiylar diniy jamoasi kabi diniy konfessiyalar yurtimizda rasmiy faoliyat yurita boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 2015-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, 16 konfessiyaga mansub jami 2238 ta diniy tashkilot, jumladan 2039 ta masjid, 20 ta markaz, 12 ta diniy ta’lim muassasasi, 3 ta monastir, shuningdek, jami 164 ta noislomiy diniy tashkilotlar rasmiy faoliyat olib bormoqda<sup>1</sup>.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o‘z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniye orqali O‘zbekiston musulmonlari idorasi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarni berib borishi, Buxoriy, Termiziy, Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavaludiga bag‘ishlangan anjumanlarning keng ko‘lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa, haj ibodatini to‘la-to‘kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

---

<sup>1</sup> Диний ташкилотлар бўйича батафсил маълумот олиш учун глоссарийга қаранг.

O‘z navbatida, pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, 1903-yilda qurilgan «Svyataya Bogoroditsa» ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o‘z vaqtida faoliyati to‘xtatib qo‘yilgan Yevangel-Lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida «Vidergeburt» nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996-yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligi keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo‘la oladi.

Shuningdek, xristianlarning «Rojdestvo», «Pasxa», yahudiylarning Rosh-Ashona (Yangi yil), Yom-Kipur (Gunohlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylarning Sagaalgan (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug‘ilgan kuni) kabi bayramlarni nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Bu yurtimizda yashayotgan barcha din vakillarining o‘z diniy e’tiqodlarini emin-erkin amalga oshirishlari va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilayotgan tadbirlar jumlasiga kiradi. Quvonarli jihati shundaki, bu tadbirlar diniy barqarorlik, konfessiyalararo samimiy va do‘stona muhitning vujudga kelishi va eng asosiysi yurtimizdagi tinchlikning barqaror bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

## **1.2. Diniy adabiyotlarni nashr etish va ekspertiza qilish sohasidagi O‘zbekiston tajribasining afzalliklari**

Din haqida ma’lumot beruvchi asosiy vositalaridan biri – bu diniy adabiyotlardir. Odatda, diniy adabiyotlarda ushbu dinning asosiy tushunchalari, qoidalari, shuningdek, alohida masalalarga doir diniy hukmlar o‘z ifodasini topadi. Dunyo dinlarining ko‘p yillik tarixi davomida aynan diniy adabiyotlar din haqidagi bilimlarni beruvchi asosiy manba bo‘lib kelgan. Bunday manbalarni har bir dinning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari, olimlari yozib, insonlarga diniy sohada ta’lim berib kelishgan.

Bugungi kunda ham din ulamolari va diniy sohada muayyan bilimga ega bo‘lgan yozuvchilar tomonidan diniy mazmundagi adabiyotlar yozilib, aholining turli qatlamlariga yetkazib berilmoqda. Albatta, bu holatni tabiiy jarayon sifatida qabul qilish mumkin. Chunki, muayyan bilimga ega

bo'lgan shaxs boshqalarga ham o'zidagi ma'lumotlarni yetkazishi, ular bilan o'rtoqlashishga intilishi inson tabiatiga xosdir. Lekin nafaqat diniy, balki har qanday ma'lumotni yetkazishni ham muayyan qonun-qoidasi, foydali va zararli jihatlari mavjud. Masalan, bedavo dardga chalingan insonga aql-farosatli tabib hych qachon «sen endi, tamomsan, tuzalmas dardga yo'liqibsan» deb aytmaydi. Yoki asrab olingan bolaga asrab olingani haqida vaqti-soati yetganda yotig'i bilan tushuntiriladi. Xuddi shuningdek, diniy adabiyotlarni yozish va keng ommaga diniy ma'lumotlarni yetkazishning ham o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. O'rnatilgan mavjud qoidalar aholiga diniy ma'lumotlarni sof holda yetkazish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, dunyo dinlari asosan turli mamlakatlarda paydo bo'lib, keyinchalik yer yuzining boshqa mintaqalariga tarqalgan. Bunda, albatta, diniy adabiyotlar asosiy o'rin egallagan. G'oyalar kurashi avj olgan bugungi kunda turli mamlakatlarda nashr etilayotgan diniy adabiyotlarni hych qanday nazoratsiz va mazmun-mohiyatini o'rganib chiqmasdan kitobxonlar qo'lga yetib borishi maqsadga muvofiq emas. Chunki, diniy adabiyotlarning aksariyatida o'ziga xos g'oya va mafkuralar mavjud. Bu mafkuralar ba'zi hollarda kitobxonlar o'rtasida tushunmovchilikni keltirib chiqarishi yoki diniy konfessiyalar orasida nizo va adovat urug'i yoyilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarda nashr etilayotgan va o'zbek tiliga tarjima qilinib, yurtimizga keltirilayotgan adabiyotlar, avvalo, nashr etilgan mintaqqa sharoiti, o'sha joyda yashovchi xalqning mentaliteti va yashash tarzidan kelib chiqqan holda yozilgan bo'ladi. Bunday adabiyotlarni yurtimiz aholisining urf-odati, turmush tarzi, xalqimiz ming yillar davomida e'tiqod qilib kelayotgan hanafiylik mazhabi tamoyillarini hisobga olmasdan tarqatilishi turli nizo va ixtiloflarni keltirib chiqarishi muqarrar.

Shu bois, Respublikamiz qonunchiligida chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni yurtimizga olib kelish va tarqatish qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilganidan keyin amalga oshirilishi belgilangan.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng diniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirildi. Aholining ehtiyojidan kelib chiqqan holda diniy ma'lumotlarni tizimli tarzda yetkazib berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, tadrijiy ravishda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Diniy adabiyotlarni ishlab chiqarish va aholiga yetkazib berishga doir normativ-huquqiy hujjatlarga «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik

to'g'risidagi kodeks, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-aprelda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 196-sonli hamda 2014-yil 20-yanvarda «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» 10-sonli qarorlari kabilarni aytib o'tish o'rinlidir.

Diniy adabiyotlarni ishlab chiqarishga talabgor jismoniy va yuridik shaxslar diniy mazmundagi kitob va boshqa axborot materiallari, jumladan audio va video materiallarni yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda ishlab chiqarishi va tarqatishlari mumkin. Ammo, diniy mazmundagi axborot materiallari diniy ixtiloflar, fuqarolar o'rtasida dushmanlik tuyg'ularini vujudga keltirmasligi lozim.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarni ularning irodasiga, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (vasiylar)ning xohishiga xilof ravishda o'qitishga, ta'lim jarayonida urush, zo'ravonlik, prozelitizm va har qanday missionerlik faoliyati targ'ib qilinishiga, mamlakat xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, jamiyatning huquqiy va ma'naviy asoslari, fuqarolar tinchligi, millatlararo va dinlararo totuvlikning buzilishiga, O'zbekiston to'g'risida noto'g'ri axborotlar tarqatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklari buzib ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy mazmundagi materiallarning O'zbekistondagi har qanday harakati, ya'ni ularni tayyorlash, xorijdan olib kirish va tarqatish davlat dinshunoslik ekspertizasi ko'rigidan o'tkazilganidan keyingina ruxsat etiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, davlat dinshunoslik ekspertizasini Din ishlari bo'yicha qo'mita amalga oshiradi.

Din ishlari bo'yicha qo'mita diniy adabiyotlarning mazmun-mohiyati, unda ilgari surilayotgan g'oyalarni o'rganib chiqqach, nashr etilishi yoki tarqatilishiga ruxsat beradi. Diniy mazmundagi adabiyotlarni ekstremistik kayfiyatda yoki noan'anaviy diniy g'oyalarni targ'ib qilishini aniqlashda bir qator tushunchalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Avvalo, diniy mazmundagi adabiyotlarda Din ishlar bo'yicha qo'mitaning muayyan sonli tavsiyasi bilan chop etilganligi haqida ma'lumot bo'lishi zarur.

Shuningdek, nashr etilgan diniy adabiyot gologramma bilan himoyalangan bo'lmog'i lozim. Gologramma aylana shaklda bo'lib, aylana bo'ylab: «**\*O'zbekiston\* Din ishlari bo'yicha qo'mita \* Committee of the Religion Affairs**», aylana ichida: **Din ishlari bo'yicha qo'mita \* Committee of the Religion Affairs**» yozuvi tushirilgan kitob emblemasi

joylashtirilgan. Shu kabi qoidalarga amal qilinmasdan nashr etilgan diniy adabiyotning mazmun-mohiyati, unda yoritilayotgan g'oyalarning sof diniy aqidalarga mosligi va to'g'riligi kabi shartlarga putur yetgan bo'lishi ehtimoli bor. Bundan tashqari, yuqoridagi qoidalar chetlab o'tilgan holda nashr etilgan adabiyotlarda ekstremistik va radikal g'oyalar ilgari surilishi mumkin.

### **Xo'sh, diniy mazmundagi adabiyotda ekstremistik va radikal g'oyalar ilgari surilganini qanday aniqlash mumkin?**

Ekstremistik va radikal ruhdagi diniy adabiyotlarda boshqa din vakillariga nisbatan jihod e'lon qilish birlamchi o'rinni egallaydi. Ayniqsa, Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflardan oyat va hadislar ko'r-ko'rona ko'chirilib, ularning botiniy mazmunidan ko'ra zohiriy jihatlarini bo'rttirib ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, bunday nashrlarda respublikamizda o'rnatilgan konstitutsion tuzumni qoralash, tuzumga xizmat qilayotgan shaxslarni kufirda ayblash yoki xalifalik davlatisiz yashashni imonsizlikka tenglash-tirish kabilar uchrab turadi. Shu bilan birga, ekstremistik va radikal mazmundagi adabiyotlarda islomning asosiy ruknlari, namoz, zakot, ro'za kabilarni bajarmaganlarga ham asossiz ravishda kufr hukmi beriladi.

Shuningdek, ayrim ekstremistik diniy adabiyotlarda konstitutsion tuzumlar o'rnatilgan mamlakatlarni kufr diyori deb e'lon qilib, bunday yurtlardan shariat hukmi o'rnatilgan mintaqalarga ko'chib ketish, ya'ni hijrat qilishga targ'ib qilinadi. Bu esa, aholida davlatga nisbatan ishonchsizlik, amaldagi qonunlarga hurmatsizlik kayfiyati vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda, yurtimiz musulmonlari e'tiqod qilib kelayotgan moturi-diylik ta'limoti va hanafiylik mazhabi vakillarini adashganlikda ayblash, mazhablarni inkor etish yoki boshqa mintaqa aholisi e'tiqod qilayotgan mazhablarga targ'ib qiluvchi adabiyotlar ham uchrab turadi. Bunday adabiyotlarda ochiqdan-ochiq urush va zo'ravonlikka targ'ib qilmasa-da, aholi o'rtasida zimdan ixtilof va nizolarni keltirib chiqarish maqsadi yashiringan.

Ma'lumki, yurtimiz aholisining 90 foizidan ko'prog'i islom dinining hanafiylik mazhabiga e'tiqod qilib keladi. Bu omilni xalqimizning birligi va jipsligi uchun Yaratgan tomonidan bizga berilgan eng katta ne'matlar-dan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Chunki, bu shaklda aholining bitta din bitta mazhabga birlashuvi har qanday vaziyatda tinchlik va barqarorlik uchun xizmat qiladi. Afsuski, ayrim mintaqalardan respublikamizga kirib kelishga intilayotgan noan'anaviy diniy sektalar aholini injillashtirish



orqali yurtimizdagi diniy birlikka raxna solishga urinmoqda. Ular o'zbek tiliga tarjima qilingan adabiyotlar, audio va video materiallarni aholi o'rtasida «beg'araz» tarqatib, kerak bo'lsa imoni, el-yurtini-da sotib yuborishga tayyor manqurtlarni tayyorlashni maqsad qilishgan.

Bugungi kunda hayotimizga axborot almashinuv tizimi tez sur'atda kirib kelmoqda. O'z-o'zidan Internet saytlarida ham katta hajmdagi diniy mazmunda ma'lumotlar o'rin olgan. Shunday ekan, saytlardagi diniy mazmundagi materiallar bilan ishlash, ularni joylashtirish va tarqatish muayyan tartib-qoida asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvarda qabul qilgan «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» qarorida Internet tarmog'ida joylashtirilgan materiallar mazmuni ham ekspertizadan o'tkazilishi nazarda tutilgan. Bino-barin, internet saytlariga mahalliy tillarda joylanayotgan diniy mazmundagi materiallarning muayyan qismini hanafiy mazhabi ta'limotlariga zid bo'lgan yoki ekstremistik kayfiyatdagi noxolis ma'lumotlar tashkil etadi.

Shu va shu kabi holatlarni inobatga olgan holda diniy mazmundagi adabiyotlardan foydalanishda uning muallifi, qayerda chop etilgani, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tavsiyasi asosida nashr qilingani va maxsus gologramma bilan muhofazalanganiga e'tibor qaratish lozim. Internetdagi diniy ma'lumotlardan foydalanyotganda esa, ogoh va sergak bo'lish, imkon qadar uz domenidagi saytlar (misol uchun, tiu.uz, religions.uz, muslim.uz, buxoriy.uz)ga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Zero, saytlardan yuklab olingan ekstremistik mazmunga ega audio, video va elektron shakldagi turli adabiyotlarni saqlash, olib yurish ham javobgarlikka sabab bo'ladi.

### **1.3. Missionerlik va prozelitizm tahdidi hamda uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar**

Ma'lumki, bugungi kunda missionerlik va prozelitizm muammosi, ekstremizm va terrorizm bilan bir qatorda, jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Zero, missionerlarning zimdan olib boradigan «da'vat»lari jamiyatni diniy asosda bo'lib tashlash, kishilar orasida adovat va ishonchsizlikning avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur illatga qarshi kurashda esa profilaktika inspektorlarining o'rni beqiyosdir.

Missionerlik va prozelitizmga qarshi kurashda, birinchi navbatda, mazkur harakatlar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Zero, taniqli xitoy sarkardasi Sun Szining iborasi bilan aytganda «...agar

*sen dushmaningni ham o'zingni ham bilsang, yuzlab janglarda g'alaba qozonishing mumkin. Agar o'zingni bilsang-u, raqibingni bilmasang, yutishing ham mag'lub bo'lishing ham mumkin. Agar na o'zingni va na raqibingni bilmasang o'zingni doim xavf-xatarga solasan».* Shunday ekan, profilaktika inspektorlari, avvalo, missionerlikning mazmun mohiyati, tarixi, faoliyat usullari va maqsadlari hamda yurtimizga xos bo'lgan xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

**Missionerlik** – bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Tarix kitoblarida bunday harakat dastlab miloddan avvalgi III asrda buddaviylik, milodiy IV asrdan esa xristianlik doirasida paydo bo'lgani qayd etiladi. **Prozelitizm** esa missionerlik faoliyati natijasida to'g'ridan-to'g'ri biror-bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechish va o'zga dinni qabul qilishga olib kelishdir. Demak, prozelitizm missionerlikning yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

Missionerlik tarixi haqida so'z borar ekan, u dinlarning paydo bo'lishiga borib taqalishini qayd etish lozim. Chunki, har qanday dinda izdoshlari sonini oshirish uchun da'vat ishlariga katta urg'u beriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda missionerlik bilan eng ko'p shug'ullanadigan din xristianlikdir. «World Book» ensiklopediyasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Xususan, protestantlik zamonaviy missionerlikning asosiy homiysi bo'lib turganini alohida qayd etish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda bunday sekta<sup>1</sup>lar soni mingdan ortiqni tashkil qiladi.

Missionerlik bugun serdaromad soha hamda muayyan kuchlar tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga qarshi ishlatiladigan qurolga aylanib qolgan. Shunday ekan, bugun uning tashkiliy-moliyaviy, g'oyaviy asoslari ishlab chiqilgan. Dunyoda yuzlab missiyalar, missionerlik tashkilotlari, maktablari va ularning qo'l ostilarida millionlab ko'ngilli missionerlar butun dunyo bo'ylab faoliyat yuritmoqdalar. Afsus bilan qayd etish lozimki, ularning bir qarashda tinchlikparvar va ma'rifiy bo'lib ko'ringan faoliyati, oxir-oqibat kishilarning xonavayron bo'lishi, ruhiy kasalliklarga chalinishi, suitsid, ba'zi davlatlarda esa hatto siyosiy g'alayonlar va separatistik harakatlarga olib kelmoqda. Umuman olganda, mutaxassislar zamonaviy missionerlikdan asosan ikki xil maqsadlar ko'zlanishini aniqlaganlar.

Birinchisi, dindorlarning tuyg'ularidan foydalangan holda ularni xayr-ehson qilishga da'vat etish orqali katta boylikka erishish. Tajriba, turli

---

<sup>1</sup> Секта фақат ўзини «ҳақ дин», инсонларни «нажотга етказувчи» деб даъво қиладиган, аслида эса муайян сиёсий ва иқтисодий мақсадларни кўзлайдиган гуруҳдир.

buzgʻunchi sektalar oʻz izdoshlaridan koʻproq mablagʻ undirish maqsadida qiyomat qoyimning aniq sanasini eʼlon qilish amaliyotidan keng foydalanishini koʻrsatadi. Chunki, inson umri tugashini his qilgach, iloji boricha qolgan hayotida ezgulik, xayr-ehson qilishga intiladi, bor boyligini sarflab jannatga kirib olish ishtiyoqida yashaydi. Mazkur holatdan esa sekta rahbarlari unumli foydalanishadi.

Missionerlikdan koʻzlangan ikkinchi maqsad esa yuqoridagidan ham dahshatliroq boʻlib, u siyosiy maqsadlarga yoʻnaltiriladi. Bunda oʻz diniy taʼlimotlarini targʻib qilish yoʻli bilan jamiyatda xayrixoh boʻlgan guruhlarni shakllantirish va tarafdorlar sonini koʻpaytirish orqali muayyan mamlakat va hudud ustidan nazorat oʻrnatish koʻzlanadi. Diniy xususiyatlardan gʻarazli maqsadlarda foydalanish oqibatida uning bunyodkorlik mohiyatining vayronkorlikka, birlashtiruvchilik vazifasining parchalovchilikka aylanganiga tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin. Jumladan, 2011-yilda Sudan davlatining ikkiga boʻlinib ketishida (Shimoliy va Janubiy) bundan deyarli 100 yil oldin boshlangan missionerlik kampaniyasining roli katta boʻldi. Aynan Janubiy Sudan oʻz davrida xristian missionerlarining asosiy ish maydoni boʻldi. Natijada, 2011-yilga qadar Afrikaning eng yirik davlati boʻlgan Sudan nafaqat oʻz hududining 1/3 qismidan, balki neft va gaz zaxiralarining  $\frac{3}{4}$  qismidan ham ayrildi. Shuningdek, Tayvanning har qanday yoʻl bilan Xitoyga qoʻshilib ketishining oldini olishga qaratilgan siyosiy strategiya doirasida faoliyat olib borgan missionerlar barcha vosita va usullarni ishga solgan holda orol aholisining deyarli 100 foizga xristianlashishiga erishdilar.

Oʻz maqsadlariga erishish uchun missionerlar tomonidan xilma-xil va turli davrlarga moʻljallangan dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, xristian missionerlari alohida eʼtibor qaratishi lozim boʻlgan hudud sifatida shimoliy kenglikning 10 va 40-paraellari orasini tanlab olib, uni «10/40 OYNA», deb ataganlar. Ushbu paralellar orasida buddaviylik, konfutsiylik, hinduiylik, islom, sintoiylik va daosizm dinlari keng tarqalgan hududlar hisoblanishi barobarida, bu hududda dunyodagi neft va gaz zaxiralarining 70 foizga yaqini mavjudligi esa missionerlikdan koʻzlanayotgan gʻarazli geosiyosiy maqsadlarning asl mohiyatini teranroq anglashga xizmat qiladi.

Psixologlar tomonidan sektalarni ajratib olish uchun ularning belgilari ishlab chiqilgan. Quyida ularning baʼzilarini sanab oʻtamiz:

- oʻz rahnamosi va guruhining boshqalardan mutlaqo ustunligini daʼvo qilish;
- aʼzolarining hayot tarzi va boʻsh vaqtlarini qatʼiy nazorat qilish;

- axborot olish manbalarining chegaralab berilishi (televizor va gazetalarning taqiqlanishi va hokazo);
- faol va uzluksiz ravishda yangi a'zolari jalb etish;
- o'z g'oyalarini singdirish uchun maxsus ongni boshqarish va manqurtlashtirish usullaridan foydalanish;
- «xoslar» va «oddiy» odamlar uchun alohida-alohida qoidalarning mavjud bo'lishi;
- an'anaviy dinlar, milliy-ma'naviy qadriyatlarga keskin munosabatda bo'lish va inkor etish;
- boshqalarga tushunarsiz bo'lgan maxsus terminlar (ibodat tili)ning ishlatilishi;
- o'z mol-mulki va daromadini sekta ixtiyoriga topshirishni targ'ib qilish;
- oxir zamon haqidagi suhbatlarning ko'pligi.

O'zbekistondagi missionerlik bilan bog'liq vaziyat haqida to'xtalar ekanmiz, bunday faoliyat asosan protestantlikka doir oqimlar vakillari hamda qisman krishnachilar, bahoyilar kabi yangi paydo bo'lgan dinlar tomonidan amalga oshirilayotganini qayd etish lozim.

Missionerlar yurtimizda faol ish yuritayotganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, ular yurtimizdagi sharoit, aholining milliy xususiyatlarini yaxshi o'rganganlarini qayd etish lozim. Jumladan, missionerlar milliy bayramlarimiz, urf-odatlarimizdan ham ustalik bilan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, ular «Yangi yil», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni» bayramlari, har yili uyushtiriladigan umumxalq hasharlarida «o'zini ko'rsatish» orqali mahalliy aholi orasida ijobiy imidj yaratishga urinmoqdalar. Masalan, «Yangi yil» bayrami munosabati bilan bolalar uchun turli shirinliklar, o'yinchoqlar va yangi yil ruhini aks ettiruvchi har xil to'plamlarni sovg'a qilish, tansiq meva-chevalarni o'z ichiga oladigan oziq-ovqat paketlarini taqdim etish, muhtoj oilalar farzandlari uchun ko'ylak, shim va boshqa shunga o'xshash narsalarni o'z ichiga olgan komplektlarni tarqatishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, ularning turli mintaqalarimizda joylashgan ko'zi ojizlar jamiyatlari, mehribonlik uylarida shunday harakatlarni amalga oshirishga intilganliklari fikrimizning isboti bo'la oladi.

Missionerlar «Xotira va qadrlash kuni»da urush qatnashchilari uchun tashkil etiladigan ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlarning «homiy»laridan biri sifatida ishtirok etish, ochiq eshiklar kunini e'lon qilib, osh damlash va kishilarni cherkovga ommaviy jalb qilishga urinayotganini ham qayd etish lozim.

Ayni paytda, missionerlar hududiy o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda faoliyat olib borishga harakat qilishini ham ta'kidlash zarur. Chunonchi, Qoraqalpog'iston va Xorazm mintaqalaridagi umumiy ekologik vaziyatni hisobga olib, missionerlar o'z hamkorlari bo'lgan xorijiy xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda «Ichimlik suvining sifatini yaxshilash», «Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish», «Bolalar va onalar salomatligini mustahkamlash», «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni oqilona tashkil etish» degan shiorlar va tamoyillar ostida ish olib borishga harakat qilganliklari ma'lum. Shuningdek, qishloq hududlarida kam ta'minlangan oilalar farzandlarining sunnat to'ylarini o'tkazib berish, cho'l hududlarda motorli quduqlar o'rnatib berish, uylarida tegirmon ochish, «PAYNET» to'lov xizmatlarini uylarida tashkil etishga alohida urg'u berilmoqda. Achinarlisi, missionerlar tomonidan masjidlariga kelib, musulmonlar bilan namoz o'qib bo'lib, keyin da'vat qilish hollari ham kuzatilgan.

Bugungi kunda missionerlik tashkilotlari yangi «o'lja»lar orttirishda tibbiy va ta'lim sohalarida faoliyat olib borish, xayriya yordamlari ko'rsatish, uyma-uy yurib tashviqot olib borish, mahalliy tillarda xristianlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar, gazeta va jurnallar chop qilib tarqatish, radio va teledasturlar tayyorlash, kino mahsulotlari ishlab chiqarish hamda Internet tarmog'ida saytlar tashkil qilish orqali o'z qarashlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor bermoqdalar.

So'nggi vaqtlarda missionerlar ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, ular bilan maqsadli ishlashga harakat qilmoqdalar. Jumladan, ular asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a'zolari, ilgari hych bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka uchragan, moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar. Shuningdek, san'at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o'rta maktab o'qituvchilari ham faol missionerlik targ'iboti obyektida tanlanmoqda.

Shunday bo'lsa-da, missionerlarning asosiy «mo'ljal»lari asosan yoshlar va ayollar hisoblanadi. Missionerlikning taniqli nazariyotchisi P.Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy obyektida deb qarab, o'zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallashadi». Endi tasavvur qilaylik, yoshligidan «murtad»lik yo'lini tanlagan, ya'ni o'z e'tiqodidan qaytgan inson «yirik mansablar»ni egallaganidan so'ng Vatan ravnaqi uchun xizmat qilarmikin...?

Ayollar orasida ish olib borish esa, missionerlar uchun «bir o'q bilan kamida uch quyinni urish»dir. Birinchisi – ayolning o'zi, ikkinchisi –

uning farzandlari va uchinchisi – turmush o‘rtog‘i. Ayollarning ulushi baptistlar va pyatidesyatniklar cherkovlariga qatnaydiganlar orasida 70, adventistlar va «Iyegovo shohidlari» orasida 80, presviterian cherkovlariga qatnaydiganlar tarkibida 90 foizgacha borishi esa missionerlarning ana shu maqsadlar yo‘lidagi xatti-harakatlarining hayotiy-amaliy natijasidir.

Missionerlar yurtimizdagi mehnat migratsiyasidan ham ustalik bilan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Janubiy Koreya yoki Rossiyada ishlab kelayotgan mehnat migrantlari orasida boshqa dinga o‘tish holatlari ayniqsa ko‘proq uchrayotgani achinarlidir. Yuqoridagi kabi taktikani chet elda ta‘lim olish uchun harakat qilayotgan yoshlarga, xorijlik fuqaroga turmushga chiqib, o‘z baxtini topishga intilayotgan ayol-qizlarga nisbatan qo‘llash hollari uchrayotganini ham alohida qayd etish lozim. Mazkur holat ham ularning aniq vaziyatga moslashgan holda ishlashga harakat qilayotganini yana bir bor isbotlaydi.

Shu nuqtai nazardan, chet elda ishlashni niyat qilgan va ishlab qaytib kelgan fuqarolar orasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish profilaktika inspektorlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, aholi orasida ish olib borishda sektalarning quyidagi salbiy jihatlari urg‘u berish maqsadga muvofiq:

- o‘z hayotini nazorat qilishdan mahrum bo‘lish;
- sektada bo‘lmagan eski do‘stlar bilan munosabatlarning uzilishi;
- ruhiy bezovtalik: gallyutsinatsiya, voqyelikni noto‘g‘ri anglash, depressiya, o‘z joniga qasd qilish haqidagi o‘ylarga muhtalo bo‘lish;
- jamiyatga nisbatan begonasirash, dushmanlik kayfiyati shakllanib qolishi;
- gipnoz texnikalari yordamida sog‘lom fikrlashdan mahrum qilinish;
- ijtimoiy yakkalanib qolish: qarindoshlar, do‘stlar, yaqinlar va ishdan ayrilish.

Sektaga kirgan odam musulmonchilikdan chiqqan, ya‘ni murtad hisoblanadi. Islom diniga binoan, bunday odamlarga nikohlanish, ular tayyorlagan taomni yeyish, vafot etsalar yuvish, kafanlash, janoza o‘qish, musulmonlar qabristoniga qo‘yish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonuniga binoan, «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar». Shunday ekan, unga nisbatan tegishli jazo choralari

qo'llanishi tabiiy. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutka muddatgacha ma'muriy qamoqqa olinishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan. Respublikamizning Jinoyat kodeksida esa yuqoridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilganda eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Missionerlik millat va jamiyatning kelajagiga tahdid ekan, unga qarshi kurashni tizimli tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning barcha vosita va usullaridan samarali foydalanish, balandparvoz shiorlarni takrorlash va dabdababozlikdan qochish, missionerlikning real tahdidini hayotiy misollar orqali yoritib berish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar aholining qiziqishi va intilishlaridan kelib chiqib tashkil etilgandagina o'zining ta'sir quvvatiga ega bo'lishini va aniq amaliy natijalarga erishishga zamin yaratishini ta'kidlash zarur.

Xalqimiz bag'ri keng xalq, boshqa din vakillarini hurmat qilib, g'ayridin qo'shnilar bilan yaxshi aloqa qiladi. Buni o'zining yuksak insoniylik burchi deb biladi. Faqat o'z farzandining g'ayridin qo'shnisi tomonidan e'tiqodi o'zgartirilishiga chiday olmaydi.

Shunday ekan, ota-onalarimizning o'z farzandlarida sog'lom e'tiqodni shakllantirish, xulqi va faoliyatidagi o'zgarishlarni nazoratsiz qoldirmaslik, ongi va ruhiyatini zaharli mafkuralar ta'siridan qat'iyat bilan himoya qilishdek masalalarga alohida e'tibor bilan qarashlari ularning ertangi kuni porloq bo'lishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bunday e'tibor ezgulik va yovuzlik o'rtasida azaldan davom etib kelayotgan kurash, inson ma'naviyati va e'tiqodiga qarshi qaratilgan harakatlar globallasuv ta'sirida o'ziga xos shaklu shamoyil kasb etayotgan bir davrda ayniqsa muhimdir. Zero, bugungi kunda bu voqeya bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ozingina beparvolik, kichkina loqaydlik farzandlarimizning missionerlar ta'siriga tushib qolishiga, zararini hych narsa bilan qoplab bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishiga zamin yaratishi mumkinligini hych qachon yoddan chiqarmaslik lozim.

## II bob. ISLOM DINI HAMDA UNDAGI YO‘NALISH VA MAZHABLAR. DINIY TUSHUNCHALARNI BUZIB TALQIN QILINISHINING SALBIY OQIBATLARI

### 2.1. Islom – tinchlik dini

Islom – inson qadri va taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan eng ezgu g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan din. Islom – bu tinchlik. Arab tilidagi bir o‘zakdan yasalgan «silm», «salom» va «islom» so‘zlari ma’no jihatidan tinchlik va omonlikni anglatishi bejiz emas.

Islom ta’limoti, xususan, Qur’oni karim oyatlarida tinchlikni saqlash uchun kurashish va intilishga chaqiriladi: **«Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga tinchlik ishiga kirishingiz!...»** (*Baqara, 208*). Tafsir kitoblarida keltirilishicha, oyatdagi «yoppasiga» so‘zi barcha insonlarning birlashgan holda tinchlik yo‘lini tutishlari lozimligi va uning barqarorligini saqlashda qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘z hissalarini qo‘shish zarurligini bildiradi.

Tinchlik insoniyatga berilgan ne‘matlarning ichida imondan keyingi eng ulug‘ ne‘mat sanaladi. Bu haqida Muhammad (a.s.) shunday deganlar: *«Allohdan afv va tinchlik omonlikni so‘rangizlar, biror kishiga imondan keyin afv qilishlik va tinchlikdan afzalroq ne‘mat berilgani yo‘q»*.

Alloh taolo Qur’oni karimning Baqara surasi 126-oyatida **«Eslang, Ibrohim: «Ey, Rabbim, buni (Makkani) tinchlik shahri qilgin va uning aholisidan Allohga va oxirat kuniga ishonuvchilariga (turli) mevalardan rizq qilib bergin!»**, deb duo qilganida avvalo tinchlik, undan keyin rizq so‘rash orqali duo qilish ta’lim berilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, tinchlik-xotirjamlik rizqdan ham ulug‘roq ne‘matdir.

Tinchlikni qadrlash hamda osoyishta hayot uchun shukronalik uni saqlab qolish va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Islom ta’limotida masalaning bu jihatiga ham alohida e’tibor berilgani Qur’oni karimning «Nahl» surasi 112-oyatida **«Alloh bir shaharni (Makkani) misol keltirur: u tinch, sokin (shahar) edi, har tomondan rizqi kengu mo‘l kelib turar edi. Bas, u (aholisi) Allohning ne‘matiga noshukurlik qilgach, Alloh unga (aholisiga) bu «hunarлари» sababli ochlik va xavf libosi (balosi)ni «totish»ga majbur etdi»**. Shukr qilish orqali berilgan ne‘matlar yanada ziyoda bo‘lar ekan, uni asrab qolish uchun ushbu ne‘matni e’tirof etish va shukr qilish muhim omildir. Inson go‘zal bir holatda umr kechirayotgan bo‘lsa uning o‘zi bu holatni o‘zgartirmagunicha ya’ni, noshukurlik qilmagunicha Yaratgan aslo ularning ne‘matlarini to‘sib qo‘ymasligini oyati karimalarida aytib o‘tgan.



Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg‘ambar (a.s.) shunday deydilar: «*Kimki, o‘z uyida xavf-xatardan emin holda tong ottirsa va huzurida bir kunlik ozig‘i bo‘lsa, bas unga go‘yoki, dunyo ne‘matlari to‘laligicha ato qilinibdi*».

Muqaddas manbalar orqali kishi uchun eng aziz ne‘mat bu – tinchlik ekani bildirilmoqda. Alloh tarafidan bandalarga ato etilgan ushbu ne‘matga raxna solish eng katta gunohdir.

Zero, Payg‘ambar (a.s.) o‘z faoliyatlarida doimo muzokara, sulh bilan tinchlik yoki mudofaa yo‘lini tutganlari islom tarixidan ham ma‘lum. Ayniqsa, «Hudaybiya sulhi» deb nom olgan tinchlik bitimida ularning tinchlikparvar siyosatlarini yaqqol namoyon bo‘ldi. Musulmonlar uchun noqulay shart-sharoitlar asosida tuzilgan bu sulhga sahobiylar keskin qarshi chiqsalar-da, Rasululloh (a.s.) tinchlikka erishish va qon to‘kilishining oldini olish maqsadida ushbu hujjatga darhol imzo qo‘ydilar. Qur‘oni karimda ham bu borada, «**Bordiyu, tinchlikka moyil bo‘lsalar, bas, sen ham unga (tinchlikka) moyil bo‘l va Allohga tavakkul qil**», deb qattiq ta‘kidlangan (*Anfol, 61*).

Darhaqiqat, Hudaybiya sulhi o‘zining ahamiyati jihatidan har qanday jangdagi g‘alabadan yuqori turadi. Zero, bu sulh yangi islom dinining tinchlikparvar mohiyatini namoyon etgan edi. Payg‘ambar (a.s.) o‘zlarining ziyorlariga bo‘lsa ham tinchlik uchun qanchalik jonkuyar ekanlari makkaliklarga hamda ayrim madinalik sahobiylarga saboq bo‘ldi.

Keyinchalik esa, Payg‘ambar (a.s.) Arabiston tarixida misli ko‘rilmagan kuchga ega bo‘lsalar-da, Makkani qon to‘kmasdan tinch yo‘l bilan egallash yo‘lini tutganlari ham e‘tiborga molik. Vaholanki, Makka mushriklari necha yillar davomida Rasululloh (s.a.v.)ga aziyat yetkazib, ularga qarshi chiqib, ko‘plab musulmonlarning umriga zomin bo‘lgan edilar. Rasululloh (a.s.) shaharga kirishdan oldin makkaliklarga Abu Sufyonning hovlisiga kirib olganlar, eshigini qulflab o‘tirganlar, Masjid al-Haromga kirib olganlarga omonlik berilishini kafolatladilar.

Makkaga kirgach esa, Rasuli Akram shu vaqtgacha dushmanlik qilib kelgan mushriklarni bir joyda to‘plab: «Ey, Quraysh ahli, sizlarga meni qanday chora ko‘radi, deb o‘ylaysizlar?» Quraysh dedi: «Saxiy insonning saxovatli farzandidan yaxshiliknigina kutamiz». Shunda Rasuli Akram «Men sizlarga Yusuf (a.s.) o‘z birodarlariga aytgani kabi – «**Bu kun sizlarga nisbatan ayblov yo‘q**», (*Yusuf, 12*) – deyman. Ketaveringlar, hammangiz ozodsizlar», deb marhamat ko‘rsatdilar. Hatto dushmanlarga ham olijanoblik ko‘rsatish, ularga kechirimli munosabatda bo‘lish dini-mizning tinchlikparvar mohiyatini namoyon etadi. Zero, islom dini har qanday sharoitda jangga yo‘l qo‘ymaslikka, tinchlikni asrashga katta e‘tibor

bergan. Payg‘ambar (a.s.) sahobiylarga doimo takrorlab shunday deganlar: «*Qiyomat kuni birinchi savol nohaq to‘kilgan qonlar to‘g‘risida bo‘lur*» (Imom Buxoriy rivoyati).

Tinchlikni ulug‘ ne‘mat, deb e‘lon qilgan dinimizda bu yo‘lda nafaqat amal, balki so‘z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan. Payg‘ambar (a.s.) «*Musulmon kishi shuki uning tilidan va qo‘lidan musulmonlar ozor chekmaydilar!*» deb marhamat qilganlar. Zero, so‘z, ya‘ni tildan yetadigan ozor qo‘ldan yetadigan zarardan avval zikr etilishi, qo‘l bilan boshqalarning faqat bu dunyosi – salomatligi, oilasi, mulkiga zarar yetkazish mumkinligi, til bilan esa insonlarni turli buzg‘unchi g‘oyalarga targ‘ib qilish, kishilarni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish orqali ikki dunyosini barbod etish mumkin. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ayrim firqa va toifalarning musulmonman, deb turgan aholining ichida parokandalik, oilasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinishlari islomning asl mohiyatiga butunlay ziddir. Bu amallarni islom nomi bilan bog‘lash dinimizga nisbatan tuhmatdir.

Islom dinida zo‘ravonlik, ekstremizm va terrorizmning hych bir ko‘rinishiga, zulm qilish, qo‘rquv solish, tinch aholini vahimaga tushirish, ularning moli va joniga tajovuz qilishga aslo yo‘l qo‘yilmaydi. Inson huquqlari, hayoti, dini, oilasi va molini himoya qilish ham islom ta‘limotining asosini tashkil etadi.

Payg‘ambar (a.s.) shunday deydi: «*Birontangiz, zinhor o‘z birodariga qurol bilan ishora qilmasin (o‘qtalmasin), chunki, u bilmaydiki, shayton uning qo‘lini buzishi mumkin (ya‘ni, uning qalbiga vasvasa solish orqali musulmonga qarata o‘q ottirishi mumkin). Oqibatda esa u odam do‘zax chohiga qulaydi*».

Bir insonning qoni, obro‘si va moliga tajovuz qilish islom dinida harom qilingan. Bu haqda Rasululloh (a.s.)ning vido hajida «*Ey odamlar*» deb boshlanadigan va butun bashariyatga qaratilgan quyidagi gaplari tasdiq bo‘la oladi: «*Albatta, sizlarning qonlaringiz, mollaringiz va obro‘laringiz o‘zlaringiz uchun xuddi shu kuningiz, shu oyingiz va shu shahringiz kabi hurmatlidir. Shu yerda hozir bo‘lgan kishi hozir bo‘lmaganlarga yetkazsin*». Ushbu so‘zlar bilan butun insoniyat o‘zaro tinch-totuv yashashga, boshqalarga nisbatan adolat va shafqatli bo‘lishga chaqiriladi. Zero, inson hayoti Yaratgan tomonidan berilgan buyuk ne‘mat bo‘lib u tinchlik mavjud yerda qaror topadi.

Yuqoridagi mulohazalar yakunida yana bir holatni alohida qayd etish lozim. Ba‘zi ne‘matlarning shukuri tilda «Xudoga shukur», deyish bilan ado etilsa, ayrim ne‘matlarning shukurini amaliy harakatlar bilan ado etish talab etiladi. Tinchlik ana shunday amaliy shukr talab qiladigan ne‘matlardan biri.

## 2.2. Islomdagi aqidaviy yo‘nalishlar va fiqhiy mazhablar

Islom dini paydo bo‘lganidan keyin Payg‘ambar (a.s.) ijtimoiy hayotda vujudga keladigan musulmonlarning barcha savollariga fiqhiy va e‘tiqodiy jihatdan javob berib, ularga islom mohiyatini tushuntirib borganlar. U zotning vafotlaridan keyin esa, sahobiylar ijtimoiy hayotdagi masalalarni Muhammad (a.s.)dan eshitgan-ko‘rgan bilimlari asosida hal qilishga intilganlar.

Keyinchalik, islom dini jug‘rofiy jihatdan turli mintaqalarga tarqaldi. Bu esa fiqhiy va e‘tiqodiy masalalarda fikriy xilma-xillikka sabab bo‘lar edi. Chunki, islom dini kirib borgan o‘lkalarda ilk musulmonlar uchun yangi urf-odat va an‘analar mavjud bo‘lib, ular Muhammad (a.s.) zamonlarida kuzatilmagan va o‘z navbatida Qur‘on va hadisda ham o‘z yechimini topmagan edi. Bu holat musulmon ulamolari oldiga islom dini sofligini saqlab qolish, dinni yangi qabul qilgan insonlarning turli savollariga shariatga xilof bo‘lmagan tarzda javob berish vazifasini qo‘yardi.

Sahobiylar, tobeiylar va ulardan keyingi musulmonlar ilgari kuzatilmagan masalalarga ham Qur‘on oyatlari va Payg‘ambar (a.s.) sunnatlariga tayangan holda yechim topib berishga harakat qilar edi. Shuning uchun ular «Sunniylar» yoki «Ahli sunna va jamoa» nomini oldilar.

«Ahli sunna va jamoa» vakillari e‘tiqodiy jihatdan yo‘moturidiylik yoki ash‘ariylik yo‘nalishiga e‘tiqod qiladilar. Yurtimiz musulmonlari moturidiya aqidasi ergashadilar. Garchi mazkur yo‘nalishlar bir-biridan muayyan jihatlari bilan farqlansa-da, bu ikki ta‘limot vakillari bir-birlarini hurmat qiladilar. Moturidiya va ash‘ariya ta‘limoti vakillari e‘tiqodiy masalalarda ayrim ixtilofga borsalar-da, lekin bu ixtiloflar dindagi ikkilamchi – far‘iy masalalarga tegishlidir. Aniqroq qilib aytganda, ikki ta‘limot o‘rtasidagi ixtiloflar lafziy bo‘lib, mohiyat va haqiqatda biri ikkinchisini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ham ikki ta‘limot vakillari bir-birini «adashgan», «bid‘atchi» yoki boshqa bir salbiy nom bilan atamaydi.

Moturidiya va ash‘ariya o‘rtasidagi asosiy farq imonga berilgan ta‘rifda ko‘zga tashlanadi. Moturidiyaga ko‘ra, imon (ya‘ni kishining musulmon bo‘lishi) til bilan iqrar bo‘lish va dil bilan tasdiq etish, ya‘ni ishonish orqali yuzaga keladi. Amal (ya‘ni diniy arkonlarni bajarish) esa imonning tarkibiga kiritilmaydi.

Afsuski, hozirgi kunda mutaassib oqimlarning namoz o‘qimagan yoki boshqa diniy amallarni bajarmagan yoki katta gunoh sodir etgan kishilar imoniga shubha bilan qarash, ularni kufirda ayblash holatlari kuzatilmoqda. Imom Moturidiy tomonidan asoslab berilgan amalning imon tarkibiga

kirmasligi haqidagi ta'limot esa insonlar o'rtasida takfir fitnasi urug'ini tarqatishga qaratilgan g'oyalarga qarshi yetarlicha asos vazifasini o'taydi.

Shuningdek, mutaassib oqimlar konstitutsiyaviy tuzumlar o'rnatilgan davlatlarda yashash, bunday hukumatga xizmat qilish va bo'ysunish musulmonchilikka xilof deb hisoblab, bunday tuzumlarni ag'darib tashlashga da'vat qilishmoqda. Ularning soxta da'volariga ko'ra hukm, ya'ni qonun-qoidalarining joriy qilish huquqi faqat Allohda va hukumat tomonidan qonun-qoidalarining joriy etilishi islom ta'limotiga zid, deb hisoblanadi. Vaholanki, dunyoviy davlatchilik tamoyillari ham islom ta'limotiga zid emasligini hozirgi kunda dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan va aholisi musulmon mamlakatlar misolida ham ko'rish mumkin. Mutaassib guruhlarining bunday qarashlari ilk islom davrida ham kuzatilgan bo'lib, o'shanda xorijiyar nomi bilan tanilgan buzg'unchi oqim vakillari «Hukm faqat Allohnikidir», deb xalifa Hazrati Ali (r.a.)ning qabul qilgan qarorlarini bekorga chiqarmoqchi bo'lganlarida Hazrati Ali (r.a.): «Haq so'z bilan botil iroda qilinibdi», ya'ni buzg'unchilik ishlarini din nomidan amalga oshirib, o'zlarining mudhish qilmishlari va jinoyatlarini din bilan niqoblamoqchi bo'lishibdi, degan ekanlar.

Hozirda ham g'araz maqsadlarni ko'zlagan mutaassib oqimlarning bunday fitnasi ko'plab begunoh odamlar, ayniqsa ayollar va norasida bolalarning qoni to'kilishiga sabab bo'lmoqda. Vaholanki, Payg'ambar (a.s.) hadislarida «*Agar sizlarga boshi qora mayiz singari qop-qora qul boshliq qilingan bo'lsa ham, unga quloq soling va itoat qiling*», deyiladi. «Ahli sunna va jamoa» ulamolari ham bu kabi masalalarga diqqat bilan yondashgan holda rahbarga itoat etishni Alloh va uning rasuliga itoat etishdan keyingi eng muhim diniy ko'rsatma sifatida qabul qilganlar.

Ko'rinib turibdiki, Moturidiya va ash'ariya ta'limotlari, ya'ni «Ahli sunna va jamoa» yo'nalishi e'tiqod masalasida Payg'ambar (a.s.) va u zotning sahobiylari yo'lini tutgan bo'lib, bu yo'l diniy mutaassiblikdan holi tarzda hamda har doim zamon bilan hamnafas holda rivojlanishda davom etmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda dunyo musulmonlarining 90 foizdan ko'proq qismini «Ahli sunna va jamoa» yo'nalishiga e'tiqod qiluvchilar tashkil etadi.

Islom dinida «Ahli sunna va jamoa»dan tashqari ikkinchi yo'nalish – «Shia» yo'nalishi ham mavjud bo'lib, u islomning ilk davrida yuzaga kelgan diniy-siyosiy yo'nalish hisoblanadi. «Shia» so'zi arab tilida «yordamchilar» va «tarafdorlar» degan ma'noni anglatadi. Usmon (r.a.) vafotidan keyin musulmonlar ikki guruhga bo'lindilar: birinchi katta guruh «Shiatu Ali (Ali tarafdorlari)» va ikkinchi guruh «Shiatu Muoviya (Muoviya taraf-

dorlari)» deb nomlandi. Ko'p vaqt o'tmay «shia» so'zi muayyan bir ma'noni anglatuvchi nomga aylandi, ya'ni Ali (r.a.), farzandlari va nabiralarning yordamchilariga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Shialar shialik, ya'ni ahli-bayt (Muhammad (a.s.)ning oila a'zolari)ga tarafdorlik qilish e'tiqodini xolis diniy aqida, deb biladilar.

Shialik oqimida quyidagi aqida ilgari suriladi:

Imomat, ya'ni payg'ambar Muhammad (a.s.) o'rinbosarligi yoki islom davlati rahbarligi payg'ambar vasiyatiga binoan faqatgina payg'ambarning qizi Fotimadan tug'ilgan Alining erkak avlodlariga xos bo'lib qoladi.

Shialar aqidasi binoan, «**Imomlar**» oddiy insonlar jumlasidan bo'lmay, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar:

*birinchidan*, faqat payg'ambarning qizi Fotimadan tug'ilgan zotlar va ularning bolalari payg'ambar oilasi hisoblanib, imomlik vakolatining haqiqiy va qonuniy egalari dirlar;

*ikkinchidan*, imom payg'ambar emas. Ammo payg'ambar bilan oddiy insonlar o'rtasida turadi;

*uchinchidan*, imom har qanday gunohdan pok bo'lib, hych qachon gunoh va xato qilishi mumkin emas;

*to'rtinchidan*, imom barcha bo'lib o'tgan va qiyomat kunigacha yuz beradigan ishlardan ilhom orqali voqifdir;

*beshinchidan*, Qur'onni tafsir qilish faqat imomga xosdir.

Shuning uchun shialar imom sunniylar imomi (xalifasi)dan farqli o'laroq birinchi muallif, g'aybi biluvchi payg'ambar bilimlarining merosxo'ri bo'lgan zot hisoblanadi.

Shialar asosiy beshta firqaga: *kaysoniya*, *zaydiya*, *imomiya*, *ismoiliya* va *g'uluvga ketgan shialarga* bo'linadi. Bugungi kunda islom olamida ahli sunna va jamoa mazhabidagi musulmonlar bilan yashab kelayotgan shialar asosan ikki guruhga bo'linadi: *imomiya* (isna-ashariya, ja'fariya) va *zaydiylar*. Shialarning mazkur ikki guruhi ham e'tiqod jihatdan bir muncha mo'tadil hisoblanadi. Xususan, zaydiylar Ali (r.a.)ni boshqa sahobiyalardan afzal deb bilsa-da, u zotdan oldingi xulfoi roshidunlarning xalifaligini e'tirof qiladilar. Mut'a nikohini sunniylar kabi harom, deb hisoblaydilar. Zaydiylar asosan Yamanda yashaydilar. Imomiya shialari Eron aholisining uchdan ikki qismini, Iroq aholisining yarmini, Livanda bir necha yuz ming kishini, Hindistonda va Ozarbayjonda ham bir necha million kishini tashkil qiladi. Imomiya shialarining aqidasi ham biz yuqorida aytib o'tgan umumiy shialarning aqidasi bo'lib, ya'ni ular ham Ali (r.a.)ni imom va Payg'ambar (a.s.)ning vasiysi deb imon keltiradi, *vasoyat*

u zotdan keyin farzandlariga o'tgan, deydilar. Imomiya shialarining ichidan eng ko'p sonlisi isna-ashariya shialari bo'lib, ular bugungi dunyoning ko'plab mamlakatlarida istiqomat qiladilar. Bugungi kunda shialar deyilganda aynan shular nazarda tutiladi. Ular ketma-ket o'n ikkita imomga imon keltirganliklari uchun «Isna-ashariya» («O'n ikkichilar») deb ham nomlangan.

Isna-ashariya firqasi muayyan ba'zi bir holatlarni e'tiborga olmaganida, imomiya shialarining ichida eng mo'tadili hisoblanadi. Isna-ashariylar har qanday roviy yoki muhaddisdan rivoyat qilingan hadislarni qabul qilmaydilar. Balki ular qabul qilishi uchun ahli bayt tarafidan, ya'ni asosan Ali (r.a.)dan rivoyat qilingan bo'lishi kerak. Mana shu narsa shialar bilan sunniylarning o'rtasida eng katta xiloflardan biridir.

Ular zulhijja oyining o'n sakkiziga to'g'ri keladigan «G'odir al-xum» (go'yoki Payg'ambar (a.s.) mana shu kunda Ali (r.a.)ga xalifalikni vasiyat qilgan) kunini bayram qiladilar. Ular bu kunni «Katta hayit» deb nomlaydilar hamda bu kunda ro'za tutishni ta'kidlaydilar. Muharram oyining o'ninchi kuni azaxonlik, dod-voy solib yig'lash, turli rasmlar chizish va ko'ksilariga urib, yuzlarini tirnash kabi ko'pgina noshar'iy ishlarni e'tiqodi bilan bajaradilar. O'zlari muqaddas hisoblagan Karbalo, Najaf, Mashhad va Qum shaharlarini ziyorat qilgan kishiga ulug' savoblar va'da qiladilar.

Hozirda «Shia» yo'nalishidagi mazhablarga musulmonlarning taxminan 7,5 foizi ergashadilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda shialarning Adliya ro'yxatidan o'tgan beshta (ikkitasi Samarqand shahrida, uchtasi Buxoro viloyatida) ja'fariy yo'nalishidagi masjid faoliyat yuritadi. Tarixiy manbalarda Samarqand va Buxoro shaharlarida istiqomat qiluvchi shialar o'rta asrlarda ko'chib kelgani zikr qilinadi.

**Fiqhiy mazhablar.** «Mazhab» (arabcha – yo'l) atamasi islomning bir necha sohalarida keng ko'lamda ishlatiladigan atama bo'lib, ijtimoiy va diniy masalalarning yechimini fiqhiy qoidalar asosida o'ziga xos tarzda hal qilib bergan yo'nalish, ta'limot, fiqhiy maktab ma'nolarini anglatadi.

Davrlar o'tishi bilan «Ahli sunna va jamoa» yo'nalishi bo'yicha turli fiqhiy mazhablar yuzaga keldi. Unga ko'ra, musulmonlarning amal qilishlari uchun har tomonlama qulay, yengil va kamchiliklardan xoli bo'lgan mujtahidlar tutgan yo'llariga ehtiyoj sezildi. Payg'ambar (a.s.) ham hayotda duch kelinadigan masalalar xususida to'xtalib: *«Avvalo Allohning kitobi – Kalomullohga murojaat qiling, unda nima deyilgan bo'lsa, ana o'shanga amal qiling, agar Qur'onda biron masalaning yechimini topa olmasangiz,*

*u holda mendan qolgan sunnatimga murojaat qiling, hadislarimdan ham topmasangiz, sahobiylarim aytgan gaplarga ergashing, chunki sahobiylarim yo'ldagi yo'lchi yulduzga o'xshaydilar» deb, marhamat qilganlar. Bu o'rinda payg'ambarimizning bir necha minglab sahobiylari bo'lganligi ma'lum va mashhur.*

Mana shu o'rinda mazhab tarafdorlarining fikrlariga murojaat etish lozim bo'ladi. Demak, sunniylikdagi mazhablarning dalil va hujjatlarga asoslangan qarashlari mavjud. Ular orasida deyarli farqlar bo'lmas-da, faqatgina ba'zi ibodat va muomalot (oila va nikoh, savdo-sotiq)ga oid masalalarda ayrim jihatlar ko'rinadi. Bu farqlar, masalan, afzal va joiz degan nisbat bilan o'lchanadi. «Biz amal qilgan mazhab afzal, boshqasi dindan adashgan» deyishga hech qanday asos yo'q. Bular ichidan to'rttasi sunniylikning (hanafiy, molikiy, shofey va hanbaliy) asosiy mazhablari sifatida mustahkam shakllangan bo'lib, ularning barchasi to'g'ri yo'ldagi mazhablar hisoblanadi.

**Hanafiylik.** Mazhab asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit bo'lib, «Imomi A'zam» laqabi bilan shuhrat qozongan. U zot Kufa shahrida (699–767) tavallud topib, o'sha yerda vafot etgan. Ustozi Sha'biydan kalom, hadis, tafsir, fiqh ilmlarini mustahkam egallab, ayniqsa fiqh ilmiga katta qiziqish bilan qaraydi. Abu Hanifa yashagan davr Umaviylar va Abbosiylar sulolasining davlat boshqaruvi vaqtlariga to'g'ri keldi. Abu Hanifa Qur'oni karim, sunna, sahobiylarning so'zlari, qiyos, istehson, ijmo, urf kabi fiqhiy manba va uslublarga ko'ra hukm chiqargan. Abu Hanifa asos solgan hanafiylik mazhabi VIII asr o'rtalarida tarqala boshlab, nafaqat Kufa, balki Iroq, Jazoir, Tunis, Marokash, Indoneziya, Malayziya, Eron, Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Turkiya va boshqa mamlakatlarga tezda tarqalib ulgurdi. Hanafiylik mazhabining mahalliy xalqlar urf-odatlarini, turmush tarziga hurmat bilan qaragani, islom huquqining asosiy tamoyillariga zid bo'lmagan urf-odat va an'analarni e'tirof etgani uning keng jug'rofiy o'lkalarga tez sur'atda tarqalishiga zamin yaratgan.

Bu mazhab dastlab Abbosiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Misrda Ayyubiylar, Mamluklar, shuningdek, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari hamda Usmoniylar imperiyasi tomonidan rasmiy mazhab sifatida qabul qilinib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida undan keng ko'lamda foydalanildi.

Hanafiy mazhabi Iroqning Kufa shahrida yuzaga kelib, Movarounnahrning yirik shaharlari – Samarqand va Buxoroda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarildi. Mo'tadilligi, milliy urf-odatlarga bag'rikengligi,

turli mintaqalardagi shart-sharoitlarga mos kelishi, islomga yangidan kirib kelayotgan mahalliy aholi manfaatlari himoyachisi sifatida maydonga chiqayotgani va boshqa omillar tufayli hanafiylik ko'plab musulmon mamlakatlari xalqlari tomonidan qabul qilingan. Hozirda musulmonlarning taxminan 47 foizi hanafiy mazhabiga ergashadilar. Jumladan, yurtimiz musulmonlarining ham aksariyati aynan shu mazhabga amal qiladi.

**Molikiylik.** Mazhab asoschisi Imom Molik ibn Anas (713–795) Madinada tug'ilib, o'sha yerda vafot etgan. U zot Madina huquqiy maktabiga asoslanib sunniylikdagi keng tarqalgan mazhablardan biri «molikiy»likka asos soldi. Mujtahid olimning «Muvatto» asari mazhab tamoyillarini atroflicha qamrab olgan. Keyinchalik ushbu asarga qator sharhlar yozilgan. Mazhabga ko'ra, asosiy manba sifatida hadislar qamrab olinadi. Shuning uchun mazhab tarafdorlari «ahli hadis» deb ham ataladi. Hanafiylik kabi ushbu mazhabda ham urf-odatlar tan olinadi. Hozirda molikiy mazhabi Misr, Falastin, Sudan, Somali, Liviya, Tunis, Marokash kabi markaziy va G'arbiy Afrika, Gambiya, Nigeriya, Quvayt, Bahrayn, Ummon hududlarida keng tarqalgan. Hozirda musulmonlarning taxminan 17 foizi molikiylik mazhabiga ergashadilar.

**Shofeiylilik.** Mazhab asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris Shofeiylidir. Mujtahid olim (767–820) yillarda faoliyat yuritib Misrda vafot etgan. U zot o'z davrida tarqalib ulgurgan boshqa mazhab vakillarining ta'limotlarini ham puxta o'zlashtira oldi. Jumladan, Yaman, Bag'dod olimlaridan, Madinada molikiy mazhabi asoschisi Molik ibn Anasdan saboq oldi. Shuningdek, Iroq va Kufa shaharlariga kelib mazhab boshi Abu Hanifaning mashhur shogirdlaridan ham ta'lim oldi. Hanafiylik ta'limotini asosan Muhammad ibn Hasan Shayboniydan o'zlashtirdi. Imom Shofeiylilik asos solgan shofeiylilik mazhabi VIII asr oxiri va IX asrda deyarli barcha arab musulmon mamlakatlariga tarqalgan. Bu mazhab qator mamlakatlar tomonidan rasmiy mazhablardan biri sifatida foydalaniladi. Hozirda musulmonlarning taxminan 27 foizi shofeiylilik mazhabiga ergashadilar.

**Hanbaliylik.** Mazhab asoschisi Imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbaldir. Olim Bag'dod shahrida milodiy 780 yil tavallud topib, 855 yili o'sha shaharda vafot etgan. Imom Hanbal asos solgan hanbaliy mazhabi asosan VIII asr oxiri va IX asr o'rtalarida tarqal-sa-da, faqat ma'lum hududlar bilangina cheklanib qoldi. Uning tarafdorlari Makka, Madina va boshqa ba'zi arab mamlakatlarida uchraydi. Imom Hanbalning «Musnad» nomli kitobiga jami qirq mingdan ziyod hadislar kiritilgan. Hozirda musulmonlarning taxminan 1,5 foizi hanbaliylik mazhabiga ergashadilar.



Bu to'rt fiqhiy mazhabning tashkil topishi Payg'ambar (a.s.)dan keyin ikki asr orasida nihoyasiga yetdi. Ular orasida ba'zi bir-biridan farqli jihatlarning bo'lishi tabiiy. Shunday bo'lsa-da, to'rtala mazhab ham haq yo'lda hisoblanadi. Lekin inson har bir ishda bu mazhablarning faqat bittasigagina ergashishi mumkin, ya'ni, bir masalada u mazhabga keyingisida boshqasiga amal qilish durust emas.

2005-yil 4–6-iyun kunlari Iordaniyaning Ammon shahrida «Islom haqiqati va uning hozirgi dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni» shiori ostida bo'lib o'tgan anjuman chiqargan qarorga ko'ra bugungi kunda musulmonlar «Ahli sunna va jamoa»ning to'rt mazhabi: hanafiy, molikiy, shofeiyy va hanbaliy, shuningdek, ja'fariy (imomiya, isna-ashariya), zaydiya, ibodiya va zohiriya mazhablariga ergashuvchilarning birortasini «kofir» deyish, qoni, moli va obro'siga tajovuz qilish haromligi ta'kidlangan. Demak, shialik e'tiqodidagi sanab o'tilgan mazhab vakillari ham musulmon deb e'tirof etiladi va ularga nisbatan ham xayrixoh munosabatda bo'lish talab etiladi.

### **2.3. Islom asoslarini g'arazli maqsadlarda buzib talqin qilishning mohiyati va shakllari**

Islom niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan ekstremistik harakatlarning inson ongi va qalbini egallash maqsadida har qanday razil yo'llardan foydalanish hollari avj olayotganini afsus bilan qayd etish lozim. Bunday kuchlarning dinimiz asoslarini, Qur'on oyatlari va hadislarning asl mohiyatini buzib talqin qilishi, jamiyat hayotiga tahdid soladigan ishlarni go'yoki, islom dini ko'rsatmasi o'laroq sodir etayotgani esa, ularning har qanday qabih ishlardan ham qaytmasligidan dalolat beradi.

Voqyelik shuni ko'rsatmoqdaki, ular Yer yuzining turli nuqtalarida davlatga qarshi targ'ibot olib borish, jamiyat asoslarini, mamlakatdagi tinchlik va tartibni, mavjud tuzum va boshqaruv tizimini izdan chiqarishda ham islom dini g'oyalarini g'arazli talqin etish uslubidan faol foydalanmoqda.

Quyida ekstremistlar o'zlariga bayroq qilib olgan ba'zi g'oyalar va tamoyillar tizimli tahlil qilinib, ularning islom ta'limoti asoslariga mutlaqo zidligi birlamchi manbalar – Qur'oni karim oyatlari va hadislarga tayangan holda ochib beriladi.

«*Takfir*» (arab. «kufirda ayblash») – musulmonni imonsizlikda, kofirlikda ayblash.

Islom dini ta'limotiga ko'ra, Allohning yagonaligi, Payg'ambar Muhammad (a.s.) uning elchisi ekaniga imon keltirgan, islom diniga

e'tiqod qiladigan har qanday kishi mo'min hisoblanadi. Insonning imonini o'lchash, uni musulmon yoki kofirligini aniqlash huquqi hych kimga berilmagan. Chunki imon inson qalbida bo'ladi. Qalb esa, faqatgina Allohning hukmidadir. Lekin bugungi kunda ko'plab diniy-ekstremistik guruhlar musulmonlarga «kofir» deb ayb qo'yib, dindoshlariga qarshi «jihod» e'lon qilishgacha bormoqda. Ayrim radikal oqimlarning o'z jamoatlaridan chetlashgan, «hijrat» qilmagan, ularning nazdida kofir hisoblangan kishini kofir demaydiganlarni «kufr»da ayblayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Vaholanki, islom ta'limotiga ko'ra, shirkdan tashqari har qanday gunoh qilgan inson toki o'sha gunohini halol deb hisoblamas ekan, kofir bo'lmaydi. Musulmonlar jamoasidan chetlashish esa, faqatgina islomni tark etish (murtadlik)da namoyon bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, ekstremistlarning o'z jamoalaridan chiqqanlarni kofirlikda ayblashi butunlay asossiz ekanini anglash mumkin. Hadisda «*Kimki mo'min kishini «kofirsan» deb haqoratlasa, go'yoki uning qonini to'kkanchalik gunoh qilgan bo'ladi*» deyiladi. Ya'ni, hych kimga musulmon insonni «kofir» deb hukm chiqarish huquqi berilmagan.

«*Hijrat*» – arabcha so'zdan olingan «bir joydan ikkinchi joyga ko'chish», «tark qilish» ma'nolarini anglatadi. Istilohda esa, Rasululloh (a.s.) davrlaridagi musulmonlarning Habashistonga, keyinchalik Rasululloh (a.s.) o'zlari boshchiligida Madinaga ko'chib o'tishlariga aytiladi.

Payg'ambar Muhammad (a.s.) Makka shahrida yashar ekanlar chiroyli xulqi va insonlarga bo'lgan go'zal muomalasi bilan yon-atrofdagi kishilarning islom diniga qiziqishiga sabab bo'layotgandi. Bu esa, o'z navbatida, musulmonlar sonining kun sayin ortib borishiga turtki bo'lar edi. Bundan tashvishga tushgan Makka mushriklari Rasululloh (a.s.)ga suiqasd uyushtirib, u kishini qatl qilishga kelishadilar. Biroq Alloh taolo o'z Rasulini fitnadan ogoh qilib, Madinaga hijrat qilish to'g'risida vahiy yuboradi.

Ulamolar hijrat to'g'risida nozil bo'lgan oyat va hadislarini o'rganib, uni ikki qismga ajratadilar. Birinchisi, yuqorida ta'kidlangan «ko'chish» ma'nosidagi hijrat bo'lib, bu borada Qur'oni karimning «Niso» (97 va 100-oyatlar), «Anfol» (74-oyat), «Nahl» (41 va 110-oyatlar) suralarida bayon qilingan. Mazkur manbalarda islomga nisbatan qarshi turgan makkaliklar tomonidan musulmonlarni turli ko'rinishda azoblash hamda ularni o'z tanlagan e'tiqodlaridan voz kechtirish maqsadida jismoniy va boshqa ko'rinishlardagi zo'rliklar ishlatilgani bayon qilinib, dinlari va hayotlarini saqlash maqsadida tinch va osoyishta joyga ko'chish buyurilgani ta'kidlanadi.

Ikkinchisi, inson gunohlardan o'zini tiyishi va ularni tark qilishi tushuniladi. Bu borada Imom Buxoriydan rivoyat qilingan quyidagi hadisi sharif dalil sifatida keltiriladi. Rasululloh (a.s.): «*Tili va qo'lidan boshqalar aziyat chekmagan kishi haqiqiy musulmondur. Alloh taolo qaytargan narsalardan hijrat qilgan inson haqiqiy muhojirdir*», deyilgan. Ulamolarni hadisni sharhlab, undagi «hijrat»dan murod «tark qilishdir», deganlar. Boshqa bir hadisda esa, Ummu Anas (r.a.) Rasululloh (a.s.)dan nasihat qilishni so'raydilar. Shunda, Rasululloh (a.s.): «*Gunohlardan tiyilgin, o'sha hijratning eng kattasidir. Farzlarga rioya qilgin, o'sha jihodning eng afzalidir. Zikrni ko'paytirgin, Qiyomat kuni Alloh taoloning huzuriga borganingda unga eng mahbub amal shu bo'ladi*», deyilgan. Lekin islom dini aqidasi buzib, g'araz maqsadlarni ko'zlayotgan kimsalar «hijrat qilmaganlar kofir, konstitutsion tuzumlar o'rnatilgan yurtlarda yashamoqlik kufr» degan soxta da'vo bilan vatandoshlarimizni aldab, xorijdagi jangarilar tayyorlanadigan markazlarga jo'natishga harakat qilmoqda. Vaholanki, ona yurtini tashlab, o'zga ellarda sarson-sargardon yurish, o'zi kabi manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi qurol ko'tarish islom ta'limotiga ziddir.

«*Jihod*» (arab. «g'ayrat qilish», «kuchni ishga solish») so'zi «jiddujahd», ya'ni inson o'z maqsadiga erishish yo'lida bor imkoniyatlarini ishga solib, harakat qilishini anglatadi.

Istilohda esa, ushbu so'z bir qancha ma'nolarda ishlatiladi. Jumladan, «jihod» – Allohning yo'liga da'vat qilish, yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish, Alloh yo'lida insonning o'z havoyi-nafsigaga qarshi kurashi, ota-onaga xizmat qilishi va yovga qarshi kurashishdek turlari mavjud. Bunga dalil sifatida Imom Termiziydan rivoyat qilingan quyidagi hadisi sharifda «*Jihodning afzali Alloh taoloning roziligini deb inson o'z havo nafsiga qarshi jihod qilishidir*», deyilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan: «*Bir kishi Rasululloh (a.s.)ga: «Men jihodda qatnashmoqchiman», dedi. U zot: «Ota-onang bormi?» deb so'radilar. «Ha», deb javob qildi u kishi. Shunda Payg'ambar (a.s.): «Ularning huzuriga borib, yordam ber, xizmatini qil! Shu sening jihodingdir*», dedilar». Shundan kelib chiqqan holda, musulmon ulamolar farzandning ota-onaga qilgan xizmati ham jihod bo'lishini ta'kidlaganlar.

Rasululloh (a.s.) Makkadan Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng, Madinada musulmonlar uchun oldin bo'lmagan narsa, ya'ni davlat yuzaga keldi. Payg'ambar Muhammad (a.s.) islomning ilk – Makka davrida yuqorida keltirilgan, jang ma'nosi bo'lmagan jihodni olib bordilar. Chunki, u kishi mushriklar yetkazgan azob va uqubatlarga sabr qilish hamda ular

bilan faqat Qur'on asosida mujodala – bahs yuritish, to'g'ri yo'lga da'vat qilishga buyurilgan edilar.

Musulmonlar Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng, Alloh taolo musulmonlarga mushriklardan o'zlarini mudofaa qilishga ruxsat berdi. Bu borada Qur'oni karimda: **«(Mushriklar tomonidan) hujumga uchrayotgan (musulmon)larga, mazlum bo'lganlari sababli (jang qilishga) izn berildi. Albatta, Alloh ularga yordam berishga qodirdir»** (*Haj, 39*), deb ta'kidlanadi. Shu asnoda, hijratning ikkinchi yilida Vatan mudofaasi mazmunidagi jihodga izn berildi.

Ushbu oyat tafsirida aytilishicha, «Payg'ambarimiz Muhammad (a.s.) Makkada turgan yillari musulmonlar mushrik va kofirlardan har qancha aziyat chekkan, turli tazyiq va zulmu istibdodlarga duchor bo'lsalar ham, Alloh kufr va shirk ahliga qarshi jang qilishga ruxsat bermagan, balki ular bilan murosa qilishga, sabr-qanoatli bo'lishga buyurilganlar».

Islom tarixini chuqur o'rgangan mutaxassis olimlar, tarixda yuz bergan har qanday jihod, faqatgina, mudofaa maqsadida olib borilganini ta'kidlaydilar. Xususan, suriyalik mashhur ulamo Ramazon Butiy: «Musulmonlar tomonidan olib borilgan jihod yov bostirib kelganda himoya maqsadida yoki dushman tarafdin hujum xavfi paydo bo'lganda unga qarshi borish uchungina yuz berganini ko'rish mumkin», deb ta'kidlagan. Lekin, bugungi kunda g'arazli maqsadlarni ko'zlab, olib borilayotgan urushlarning «jihod» deb atalayotgani mutlaqo asossizdir.

Islom ta'limotiga ko'ra, musulmon bo'lmaganlar bilan o'zaro muloqot o'rnatishning asli tinchlik orqalidir. Mudofaa mazmunini anglatuvchi jihod joriy qilinishining asl sababi ham «doimiy tinchlik»ni saqlab turish bo'lgan. Shunday ekan, tinchlikning bir uchquni sezilgan zahotiyoq uni qabul qilish har bir musulmondan talab qilinadi. **«Agar ular sulhga moyil bo'lsalar, Siz ham unga moyil bo'ling va Allohga tavakkul qiling!»** (*Anfol, 61*).

Bu borada islom tarixida yuz bergan Hudaybiya sulhida Payg'ambarimiz (a.s.)ning tinchlik uchun ko'rsatgan marhamatlari ma'lum va mashhurdir. Unda Rasuli Akram raqib tomonning juda noo'rin talablariga ham ko'nib, sulh, tinchlik o'rnatishga qanchalik intilish kerakligini musulmonlarga ta'lim berib ketdilar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mudofaa ma'nosidagi jihod xalqaro shartnomalar va davlatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlar bo'lmagan bir holatda yuz bergan. Bugun esa bularning barchasi o'zgardi. Deyarli barcha davlatlar xalqaro tashkilotlar a'zolari bo'lib, turli hamkorlik shartnomalari, bitim va protokollarga imzo qo'yganlar. Shunday ekan, butun dunyo davlatlari islom ta'limotlariga ko'ra

«muohad» ya'ni «ahd qilingan» toifasiga kiradi. Rasululloh (a.s.) bir hadislarida shunday dedilar: «*Kim muohadni o'ldirsa, jannatning hidini hidlamaydi. Jannatning hidi qirq yillik masofadan taralib turadi*» (Imom Buxoriy rivoyati).

Shariatga oid matnlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, Alloh taologa yaqinlashtiruvchi har qanday ezgu ish jihod hisoblanadi (masalan, ota-onaga yaxshilik qilish, nafsiga qarshi kurashish va boshqa.). Hadislarda «*U ikkisi (ya'ni ota-ona) borasida (xizmatlarini qilib) jihod qilgin*» (Imom Buxoriy rivoyati), «*Mujohid – Alloh taolo itoatida o'z nafsiga qarshi kurashgan kishidir*» (Imom Ahmad rivoyati) deyiladi. Shunday ekan, islom jannatga kirishga hamda do'zaxdan uzoqlashishga sabab bo'luvchi Alloh taoloning zikri, insonlarga yaxshilik qilish, Yer yuzida osuda hayot kechirish kabi jihodga, ya'ni sa'y-harakat qilishga chaqiradi. Zero, asl jihod islom ta'limotiga ko'ra, Alloh taologa yaqinlashtiruvchi solih amallarni o'z ichiga oladi. Binobarin, halol tijorat, ishlab chiqarish yoki quduq qazib suv chiqarish kabi ishlar ham shular jumlasidandir. Demak, tinchlikka raxna solish, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligiga ziyon yetkazish, fitna qo'zg'atish, toifalarga bo'linib o'zaro nizolashish umuman islom diniga yot holat hisoblanadi. Buni quyidagi Qur'on oyatlarida ham ko'rish mumkin: «**Alloh fasod (buzg'unchilik)ni yoqtirmaydi**» (*Baqara, 205*). «**Ularga: «Yer yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmangiz!» – deyilsa, ular: «Albatta, biz chin islohchilarmiz», – deydilar. Ogoh bo'lingki, aynan ularning o'zlari buzg'unchilardir, lekin (buni o'zlari) sezmaydilar**» (*Baqara, 11-12*). «**Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir**» (*Baqara, 191*).

«*Shahid*» – (arab. «guvohlik», «hozir bo'lmoq») ushbu darajaga erishgan insonlarga jannat yoki ko'plab yaxshiliklar bashorat qilinganiga farishtalar guvoh, ya'ni shohid bo'lgani sababli, aynan ushbu so'z ishlatilgan.

Ulamolar nazdida, shahid deyilganda Alloh taolo yo'lida dushman bilan bo'lgan jangda Vatani, dini, oilasi, millati sha'nini himoya qila turib vafot etgan inson nazarda tutiladi. Ammo inson Vatan sarhadlari, millat sha'nini himoya qilish uchun emas, balki mol-davlat to'plash, o'zidan nom qoldirish kabi dunyoviy narsalarni qasd qilgan bo'lsa, bu toifa kishilar shahid hisoblanmaydi.

Shuningdek, ba'zi insonlar borki, bu dunyoda ko'pchilikka nafi tegadigan xayrli ishlar qiladi va qorin (ichki) kasalligi, cho'kish, kuyish kabi sabablar bilan vafot etadilar. Ular kishilar nazdida oddiy insondek tuyulsa-da, Rasululloh (a.s.) o'z hadislarida zikr qilganlaridek, Alloh

nazdida shahidlar maqomida bo‘ladi. Demak, shundan kelib chiqib aytish joizki, islom dini nuqtai nazarida shahidlik ham musulmon kishining ixlos-u e’tiqodi, xayrli amali hamda musibatlarga sabr-toqati evaziga Alloh tomonidan beriladigan mukofotdir.

Afsuski, bugungi kunda ba’zi kimsalar o‘zini portlatish bilan go‘yo «shahidlik» maqomiga sazovor bo‘lishga intilmoqda. Aslida musulmon odamning o‘zini o‘zi o‘ldirishi, ayniqsa, o‘zini portlatib yuborishi go‘yoki «din yo‘lida» deb e’lon qilinsa-da, shahid deb hisoblanmay, balki «o‘z joniga suiqasd» deb baholanadi. Shuningdek, ularning bu g‘ayriinsoniy harakatlari tufayli qanchadan-qancha begunoh insonlarning qoni to‘kilmog‘da.

Qur’oni karimda esa bu borada **«O‘zlaringizni o‘ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir»** (*Niso*, 29) deyilgan bo‘lsa, yana bir oyatda **«Biror jonni o‘ldirmagan yoki Yerda (buzg‘unchilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarini qilmagan insonni o‘ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o‘ldirgan kabidir»** deb, begunoh insonlarning qonini to‘kish ham qattiq qoralangan. Hadisi qudsiyda *«Bandam o‘zini o‘zi o‘ldirib, unga bergan umrimga shukur qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom qildim»* deyilgan. Demak, islom ta’limoti bunday holatlarni keskin qoralaydi.

*Mazhabsizlik.* Bugungi kunda mutaassib oqimlar tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalardan yana biri bu – mazhabsizlik g‘oyasi bo‘lib, u islom dini mohiyatini to‘g‘ri tushunishga xavf solayotgan xatarli omillardan biridir. Mutaassib guruhlarining mafkurasiga ko‘ra, fiqhiy mazhablar ishlab chiqqan kategoriyalar shariatni to‘g‘ri tushunish metodologiyasi sifatida tan olinmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shariat ahkomlarini amalga tatbiq etish eng to‘g‘ri yo‘l, deb hisoblanadi.

Mantiqan mushohada qilib ko‘rilsa, mazhabsizlik g‘oyasi o‘tgan minglab olimlarning qilgan mehnatlarini, qancha mashaqqat bilan umr sarflab yaratilgan noyob manbalarni bekorga chiqaradi. Asrlar davomida barcha musulmonlar amal qilib kelgan an’analar noto‘g‘ri, shuncha musulmon adashgan ekan, degan xulosaga olib keladi. Eng ayanchlisi, musulmonlarni birlashtirib, jamlab turgan to‘g‘ri yo‘lga putur yetkazadi. Buning natijasida esa, musulmonlar orasida o‘zaro parokandalik, beqarorlik va taraqqiyotda to‘xtash yuzaga keladi. Bunday da’vat mazhablar mohiyati va qiymatini umuman bilmaslikdan kelib chiqadi. Garchi ahli sunna va jamoada mazhablar to‘rtta bo‘lsa ham, ular yagona ahli sunna va jamoaning yo‘nalishlari sifatida e’tibor qilinadi va musulmon ummatini jamlaydi, birlashtiradi. Zero, Payg‘ambar (a.s.) shunday marhamat qildilar: *«Alloh ummatimni biror zalolatga jamlamas»*. Yana bir hadisda

«Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir», – deyilgan.

Ma'lumki, Payg'ambar (a.s.) hayotlarining oxiriga kelib, turli qabila va yurt odamlari islomni qabul qila boshladilar. Yangi musulmonlar oldida yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida nozil bo'lgan oyatlarni o'rganish, shariat ahkomlarini o'z hayotlariga tatbiq qilish vazifasi turar edi. Tabiiyki, yosh sahobiyalar o'zlaridan kattalardan, yangi musulmonlar esa, avvalgi musulmonlardan shar'iy masalalarni o'rgana boshladilar.

Islom dini dunyo bo'ylab, turli mintaqalarda tarqalgach, turli arab bo'lmagan xalqlar ham musulmon bo'ldilar. Tabiiyki, ular o'zlariga Qur'oni karim va Payg'ambar (a.s.) sunnatlaridan shariat ahkomlarini chiqarib, tartibga solish imkoniga ega emas edilar.

Shunday qilib, jamiyatda asta-sekin kishilarga diniy hukmlarni o'rgatadigan, ularning savollariga javob bera oladigan, muayyan ilmlarga ega insonlarga ehtiyoj tobora ortib bordi.

Shu tariqa turli diyoralarda olimlar yetishib chiqqa boshladilar. Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofeiyy va Imom Ahmadlar bugungi kunda ham mavjud bo'lgan to'rt fiqhiy mazhabga asos soldilar. Ular ibodatlar va boshqa barcha masalalarni Qur'oni karim va hadisi sharifga ko'ra ma'lum qoidalarga solib chiqdilar. Manbaning boyligi va Rasululloh (a.s.)ning ayrim vaqtlarda bir amalni turlicha bajarganlari, bir masala bo'yicha turlicha tasarruflari haqidagi hadis va xabarlar, rivoyatlar bu olimlarning ishlarida ham ma'lum juz'iy farqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, turli mintaqalardagi sharoitlarning turlichaligi, shariat masalalarida tabiiy tafovutlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Masalan, shofeiyy mazhabida tahoratdan so'ng yuz-qo'lni artmaslik afzal bo'lsa, hanafiy mazhabida artish afzaldir. Demak, mazhablar tarqalgan hududlardagi iqlim sharoiti ham e'tiborga olingan. Binobarin, Rasululloh (a.s.)dan ikki holatni ham tasdiqlovchi rivoyatlar yetib kelgan.

Yuqorida zikr etilganidek, juz'iy masalalarda ixtilof qilingani bilan, to'rt sunniy mazhabda islomning asosiy masalalari bo'yicha ixtiloflar yo'q. Chunki har bir mazhab asoschisi o'z so'zlarini ishonchli dalillar bilan isbotlagan.

Asrlar davomida musulmonlar to'rt mazhab – *hanafiy, molikiy, shofeiyy va hanbaliy* mazhablaridan biriga amal qilib kelganlar. Hyech kim buni inkor qilmagan. Qancha-qancha faqih, muhaddis, mutakallim va mutasavvif olimlar ham shu mazhablarga asosan o'z faoliyatlarini olib bordilar.

Mazhabsizlik g'oyasi o'zida millatni ortga tortish, qoloqlikka mahkum qilish xavfini mujassamlaydi, taraqqiyotdan chetga chiqib qolishga olib keladi. Chunki turli soha mutaxassislari mazhabsizlik g'oyasiga

ergashsa, unda umrlarini o‘z kasbiy mahoratlarini yuksaltirish, izlanishlar olib borishga emas, balki tubsiz diniy masalalarga o‘ralashib qolib, hayotlarini faqat o‘zlari uchun diniy hukmlar chiqarishga sarflaydilar. Oqibatda turli sohalardagi mutaxassislar ham tez o‘zgaruvchan globallashuv sharoitida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar: yaxshi mutaxassis ham, yetuk ulamo ham bo‘la olmaydilar. Natijada mutaxassislardan mosuvo bo‘lib borishi barobarida, millat avvalida turg‘unlik, keyinchalik esa tanazzulga yuz tutadi. Aslida esa har bir mutaxassisning o‘z sohasini puxta egallashi, jamiyat rivoji uchun xizmat qilishi, odamlar og‘irini yengil qilishi, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishi ham ulug‘ ibodatdir.

## **2.4. Vatanga xizmat – yuksak fazilat**

Vatan ostonadan, insonning kindik qoni to‘kilgan tuproqdan boshlanadi. Inson tug‘ilib o‘sgan uyi, mahallasi, qishlog‘i, yaqinlari – Vatan degan tushunchada mujassam. Unga muhabbat esa, avvalo, otana, aka-uka, yoru birodarlarga hurmat-ehtiromda namoyon bo‘ladi. Ulg‘ayib voyaga yetgan zaminga mehrlilik bo‘lish, uning har bir hovuch tuprog‘ini muqaddas, deb bilish, ko‘zga to‘tiyodek surtish, bir umr farzandlik sadoqati bilan yashash har bir inson uchun ham farz, ham qarz hisoblanadi.

Ma‘lumki, inson jamiyat hayotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘p qirrali faoliyat yuritar ekan, ana shu jarayon davomida turli kishilar, guruhlar bilan aloqada bo‘ladi. Har qanday aloqadorlik esa insonga qandaydir majburiyat yuklaydi, ana shu majburiyatni bajarish burchini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, burch, oddiy qilib aytganda, ado etilishi, bajarilishi shart bo‘lgan vazifa, majburiyatdir.

Ichki ishlar idoralari xodimlari zimmalariga yuklatilgan burchlari, vazifalari va majburiyatlarini amalga oshirishlari konstitutsiyaviy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida ko‘rsatilishicha: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar». Shuningdek, 15-moddasida davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishlari belgilangan.

Xalqimizda «Vatanni sevmok imondandir», deyiladi. Ushbu hikmat mazmunidan elimiz inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti, yor-do‘stlari va yaqinlari bilan bog‘lovchi Vatani sevishi, uni ardoqlash turli xavf-



xatarlardan himoya qilishni imon darajasiga ko'tarib, vatanparvarlik fazilatining muqaddas ma'no-mazmun va yuksak maqomga egaligini e'tirof etganini anglash mumkin.

Ichki ishlar idoralari xodimlari o'z faoliyatlarini boshlashlari, ya'ni kasbga kirishishlari, o'z xalqiga, el-yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish uchun qasamyod qiladilar. Qasamyod tantanali ravishda yaqinlari, keng jamoatchilik ishtirokida qabul etiladi. Chunki Qasamyod xalq ishonchining ramzidir. Shu bois u xalq, Vatan, yaqinlarining ishonchini oqlash mas'uliyati hamdir. Bunday sharafta yuksak ma'naviyat sohiblarigina loyiq.

So'nggi nafasi qolguncha ona Vatanning sodiq farzandi bo'lib qolishga, xizmatning butun mashaqqatu qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga Vatan va ajdodlar ruhi oldida qasamyod qilish uchun saflangan yigit va qizlar ushlab turgan zamonaviy qurolga boqar ekansiz, O'zbekiston Prezidentining «Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» haqidagi da'vatlari xotirangizga keladi. Zero, milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni teran anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishishni orzu qilgan har bir yigit-qiz uchun sog'lom fikr, bunyodkor g'oya va teran ma'rifat eng qudratli qurol bo'lmog'i lozim. Ular qabul qilgan qasamyodlariga sadoqat ramzi sifatida qaraydilar.

Barcha davrlar, ellar va dinlarda Vatan himoyasi muqaddas amallardan sanalgan. Islom dinida ham vatanni sevish, uni ardoqlashga da'vat etiladi. Musulmon inson Vatanni sevmqlikni Payg'ambar (a.s.)ning sunnati sifatida qabul qilmog'i lozim bo'ladi. Chunki, Muhammad (a.s.) Makkadan Madinaga ko'chib ketishga majbur bo'lganlarida o'z tug'ilib o'sgan ona shahri – Makkaga qarab: «*Sen qandoq pok Vatansan! Men seni sevaman. Agar qavmim meni sendan chiqarmaganida, sendan boshqa yerni maskan tutmasdim*», deganlar. Bu esa, har bir musulmon uchun ibrat bo'lmog'i lozim.

Vatanni sevish – inson o'z oilasi, yaqinlari, tug'ilib o'sgan diyoringning har bir qarich yerini ardoqlashi, uning tinchligi va xavfsizligini har qanday yovuz kuchlar tajovuzidan joni evaziga bo'lsa-da, asrab-avaylashida namoyon bo'ladi. Islom ta'limotida bu masalaning o'ta muhim ekanini Vatan himoyasi har bir mo'min uchun farzi ayn, ya'ni barchaga barobar buyurilgan amal, darajasiga ko'tarilganidan ham bilish mumkin. Demak, Vatanni himoya qilish, dushmanlardan asrash, ravnaqi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir musulmon uchun ham farz, ham qarzdir. Shu bilan birga, Vatanga xiyonat qilish, ayniqsa, urush sharoitida yurtni himoyasiz tashlab qo'yish og'ir gunohlardan ekani muqaddas manbalarda ta'kidlanadi.

Islom dinida Vatan va vatanparvarlikning yuksak qadrlanishini, shuningdek, Vatanga xiyonat qilish islom mohiyatiga zid ekanini Payg‘ambarimiz (a.s.) hadislar va ulamolarning fikrlari ham tasdiqlaydi.

Kunlarning birida Muhammad (a.s.) sahobiyarga kim musulmonlarni kechasi qo‘riqlab chiqadi deb so‘radilar va ortidan «*Kechalari Allohdan qo‘rqib yosh to‘kkan ko‘zni va Alloh yo‘lida tunlari posbonlik qilib, mijja qoqmagan ko‘zni do‘zax o‘ti kuydirmaydi*» (Imom Termiziy rivoyati), deya el-yurt himoyasida turishning ulug‘ savob ekanini aytib o‘tganlar.

Shu bilan birga, Payg‘ambarimiz (a.s.) yurt sarhadlari daxlsizligi, aholining tinch-totuv yashashi va mol-mulkining omonda bo‘lishini ta‘minlash maqsadida kechayu kunduz xizmatda turgan kishilar faoliyatini yuksak ibodat ekanligini ham ta‘kidlaganlar. Jumladan, Imom Tabaroniydan rivoyat qilingan bir hadisda Muhammad (a.s.): «*Alloh taolo roziligi yo‘lida bir kun chegara hududida posbonlik qilish, bir oy kechalari ibodat qilib, kunduzlari nafl ro‘za tutishdan afzaldir*», deb bunday xizmat uchun Yaratgan tomonidan ulkan mukofotlar berilishini va‘da qilganlar.

El-yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilayotgan soha xodimlari o‘z rahbarlarining qonun doirasidagi topshiriqlariga mas‘uliyat bilan yondashishi ham islom dinining muqaddas ko‘rsatmasi hisoblanadi. Bu haqida Alloh taolo o‘z kalomida «**Ey, imon keltirganlar! Allohga itoat etingiz, Payg‘ambarga va o‘zlarinigizdan (bo‘lmish) boshliqlarga itoat etingiz!**» (*Niso, 59*), deb marhamat qiladi.

Vatan xavfsizligi, tinchligi, xalqning osuda yashashi uchun xolis xizmat qilgan kishiga beriladigan ajru savob bitmas-tuganmas ekani haqida ham hadislar ta‘kidlanadi. Jumladan, Imom Ahmad (r.a.) rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: «*Rasululloh (a.s.): «To‘rt kishiga vafotidan keyin ham ajr oqib kelaveradi: Alloh yo‘lida chegarada posbonlik qilgan holda vafot topgan kishining ajri, bir ilmni o‘rgatgan va u ilmga amal qilganlarning o‘rgatuvchiga boradigan ajri, molidan sadaqai joriya qilgan kishining ajri, ortidan duo qiluvchi solih farzand qoldirgan kishining ajri*», dedilar». Demak, Vatan tinchligi, el-yurt omonligi uchun xolis xizmat qilgan va shu yo‘lda jon fido qilgan shaxslarga vafotidan keyin ham to‘xtamay savob borib turar ekan.

Shu bilan birga Vatan xizmati, el-yurt tinchligi uchun mas‘ul bo‘la turib bu vazifaga sovuqqonlik bilan qaragan, dushman xavf solib turgan pallada o‘zini chetga tortgan kimsalarga nisbatan ulkan gunoh bo‘lishi ham oyat va hadislar aytib o‘tilgan. Xossatan, Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda ham shunday deyiladi: «*Rasululloh (a.s.): «Halokatga eltuvchi yettita gunohdan chetlaninglar!*» – dedilar. Sahobiyar: «*YO Rasululloh, ular qaysilar?*» – deb so‘rashdi. Ul zot: «*Allohga*

*shirk keltirish, sehrgarlik qilish, Alloh o'ldirmoqni harom qilgan jonni nohaq o'ldirish, sudxo'rlik qilish, yetimning molini yeyish, yov bostirib kirgan vaqtda orqaga qochish hamda iffatli, mo'mina, buzuqlik nimaligini bilmaydigan ayolni fohishalikda ayblash», deb javob berdilar».*

Bu hadisdan ko'rinadiki, Vatanga dushman bostirib kelish xavf bo'lib turgan mahalda o'zini ortga tortish, turli bahonalar bilan el-yurt mudofaasidan o'zini olib qochish islom dinida eng og'ir gunohlardan hisoblanadi. Bunga 630 yilda musulmonlar yashab turgan Madina shahriga rumliklar hujum qilish xavfi bo'lib turgan pallada ayrim kishilarning hiech bir sababsiz Vatan mudofaasidan o'zini olib qochgani voqyeasi yorqin misol bo'la oladi. Bu jang tarix kitoblariga «Tabuk» nomi bilan kiritilgan. O'shanda rumliklarning Madinaga hujum qilishi haqidagi sovuq xabar yetib kelganida, Payg'ambar (a.s.) balog'atga yetgan va mudofaaga yaraydigan har bir erkak kishini umumiy safarbarlikka chaqirdilar. Ammo ayrim sahobiyalar Vatan himoyasiga qodir bo'la turib, bu chaqiriqdan o'zlarini olib qochdilar.

Muhammad (a.s.) Tabuk safaridan qaytgach, jangga bormagan kishilar u zotning huzurlariga kelib turli sabablarni uzr sifatida keltirdilar. Ka'b ibn Molik, Mirora ibn Rabi', Hilol ibn Umayya ismli uch sahobiy esa, hiech qanday uzr va sababsiz Vatan himoyasiga chiqmaganlarini bayon qildilar. Bundan juda g'azablangan Payg'ambar (a.s.) mazkur uch kishining hukmini Allohga havola qilib, ummatga saboq bo'lsin deb, ularga nisbatan juda og'ir jazo tayin qildilar. Jazo shundan iborat ediki, musulmonlarning birortasi ham ular bilan gaplashmas, ular bilan bir davrada o'tirmas va hattoki, o'z ayollari ham o'zini ulardan chetda tutishi kerak edi.

Bu jazo muddati 50 kun davom etdi va uch sahobiy qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'lib, astoydil tavba qildilar. So'ngra Qur'oni karim-dagi: **«Yana (jangga chiqmay) qolgan uch kishining ham (tavbalarini qabul etdi). Ularga Yer (shuncha) kengligi bilan torlik qilgan, dillari tang bo'lgan va Alloh (g'azabi)dan faqat o'ziga qochish bilan panohtopilishini bilishgandan so'ngra ular tavba qiluvchilardan bo'lishlari uchun Alloh tavbalarini qabul etdi. Albatta, Alloh Tavvob (tavbalarni qabul etuvchi) va Rahim (rahmli)dir»** (*Tavba, 118*) oyatlarini nozil qilish bilan ularning gunohlari kechirildi.

Demak, bundan anglash mumkinki, kishi Vatan mudofaasi uchun chaqirilganida qodir bo'la turib chaqiriqqa javob bermasligi Yaratgan huzurida ham eng qabih amallar qatorida yozib qo'yilar ekan.

Shunday ekan, yurt tinchligi va xavfsizligiga xavf-xatar tug'ilgan pallada, ayniqsa, har bir fuqaroning hushyor bo'lishi, o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarmog'i talab etiladi.

Oyat va hadislarda aytilganidek, Vatanga xiyonat qilish gunohi faqat yov bostirib kelganda jang maydonini tashlab qochishida namoyon bo'lmaydi. Vatan, elu yurt tinchligi va xavfsizligiga mas'ul bo'lgan shaxs yuklatilgan vazifasiga beparvolik qilishi va bu ishining salbiy oqibatini o'ylamasligi natijasida beqarorlik kelib chiqishiga sabab bo'lsa ham dinimiz ta'limotlariga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan gunohga sherik bo'ladi.

Ayni paytda, islom dini tinchlik zamonida ham tinchlik va xavfsizlik masalasiga katta e'tibor qaratishga da'vat etadi.

Soha xodimlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarini eng yuqori darajada bajarish uchun tinmay izlanishi, zamonaviy fan-texnologiya yutuqlarini egallashi, tinchlik davrida ham o'z ustida muntazam ishlashi, jismoniy quvvatini oshirib bormog'i talab etiladi. Chunki, islom dini musulmonlarning har tomonlama mukammal bo'lishi uchun o'z ustida izlanishga chaqiradi. Muhammad (a.s.)ning: «*Kuchli musulmon zaif musulmonga qaraganda Allohga mahbubroqdir*» degan hadislar ham bu fikrimizga kuchli dalil bo'la oladi.

Shunday ekan, el-yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilgan har bir shaxs bilmog'i lozimki, jonajon Vatani, aziz ota-onasi, qadrdon aka-ukasi, opa-singlisi va oilasining himoyasi yo'lida bel bog'lab, o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarishi va belgilangan tartib, qonun-qoidalarga bo'ysunishi nafaqat uning fuqarolik burchi, balki muqaddas dinimizning ham ko'rsatmasi hisoblanadi.

## **2.5. Dunyoviylik – dahriylik emas**

Bugungi kunda turli mutaassib kuchlar tomonidan diniylik va dunyoviylik nisbati buzib talqin qilinib, davlatga oid dunyoviy ishlardan dinni ajratish dahriy davlat va axloqsiz jamiyat qurishga olib kelishi haqidagi noxolis da'volar tobora yangramoqda.

Musulmonlarning dunyoviy davlatda yashashi mumkinligi ilmiy isbotlar talab qilmaydi. Nafaqat G'arbiy Yevropa, Amerika va Avstraliyadagi aholining ozchiligini tashkil qiluvchi musulmonlarning tajribasi, balki aholisining mutlaq ko'pchiligi musulmonlardan iborat Turkiya yoki O'zbekiston tajribasi ham shundan dalolat beradi.

Ammo ayrim guruhlarining siyosat bilan din ajralmasdir, ijtimoiy hayotning barcha sohalari islom dini qoidalari asosida boshqarilishi kerak, degan demokratiya tamoyillariga zid da'volari biryoqlama kayfiyatlarni uyg'otmoqda.

Vijdon erkinligi barcha demokratik tizimlarda kafolatlangan va Inson huquqlari haqidagi Xalqaro deklaratsiyada belgilab qo'yilgan muhim

huquq hisoblanadi. Demokratik nazariya, bir tomondan, dinni undan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinishlardan saqlaydi, boshqa tomondan esa, uni mutaassiblik va jaholatda ayblashlardan himoya qiladi.

Dunyoviylik tushunchasini diniylik bilan mutlaq qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas. Ma'lum ma'noda, diniylik va dunyoviylik bir-biriga mutlaq zid tushunchalar ham emas. Ular dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usullaridir. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Dindorlik esa qalbgga bog'liq hissiyot. Uni barchaga majburiy singdirish hych qaysi diniy tamoyillarga to'g'ri kelmaydi.

Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma'naviy qiyofasining muhim qismlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda diniy qadriyatlarni e'tiborga olmay ish tutish mumkin emasligini Prezident Islom Karimov ham alohida ta'kidlab o'tadi: «Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi».

Biz barpo etayotgan dunyoviy, demokratik jamiyat, huquqiy davlatdagi davlat va din munosabatlari mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ochiq-oydin ifoda etilgan. Unga ko'ra, respublikamizda din davlatdan ajratilgan. Biroq, dinning davlatdan ajratilganligi uning jamiyatdan ajratilganini bildirmaydi. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Bas, shunday ekan, bu nozik va murakkab masalada munosabatlarning o'zaro hurmat va ishonch asosida qurilishi yagona maqbul yo'ldir. Davlatni idora qilish, jamiyatni boshqarish – siyosiy rahbarlarning vazifasi. Diniy rahbarlar esa kishilarni islom qadriyatlari asosida tarbiyalab, jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda, hayotiy masalalarni hal etishda hukumat rahbarlariga yordam berishlari, davlat qonunlari va siyosatini hurmat qilishlari lozim. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haququqlarini qanchalik hurmat-ehtirom qilsa, dindorlar ham davlat qonunlari va siyosatini shunchalik hurmat-ehtirom qilishlari shart». Shundagina jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayoti mutanosib rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

– diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

– ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;

– dindand buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi yuqoridagi mezon va tamoyillaridan ikkita asosiy xulosa chiqarish mumkin:

*birinchidan*, O'zbekistonda din barcha qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olinadi;

*ikkinchidan*, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lgan har qanday g'arazli maqsadga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'iyan man etiladi. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hych qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunchilikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz».

Dunyoviy, demokratik davlatning dinga nisbatan siyosati prinsiplariga ko'ra dindorlar va diniy tashkilotlar quyidagi talablarga rioya qilishlari lozim:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish;

– dindand davlatga va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi targ'ibot olib borish, millatlararo adovat uyg'otish va fuqarolararo totuvlikni buzish vositasi sifatida foydalanmaslik;

– diniy tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi;

– diniy o'quv yurtlarida diniy fanlardan dars beruvchi shaxslarning diniy ta'lim olgan bo'lishlari va diniy tashkilot rahbariyati ruxsati bilan-gina o'qitish ishlarini olib borishlari;

– dindorlardan majburiy pul yig'imi yig'maslik va to'lovlar undir-maslik;

– taqiqlangan g'oyalar, adabiyotlar, kino, foto va video mahsulotlarni tarqatmaslik hamda ishlab chiqarmaslik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko'ra diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakatlarini tuzish taqiqlanadi.

Shuningdek, dindorlar va diniy tashkilotlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o'tkazishi; yashirin diniy faoliyat bilan

shugʻullanishi; davlat roʻyxatidan oʻtmagan diniy tashkilotlarning faoliyat koʻrsatishi; diniy tashkilotlar xizmatchilarining Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodining roʻyxatga olinishi; diniy tashkilotlar xizmatchilarining hokimiyat vakillik organlari deputatligiga nomzod etib roʻyxatga olinishi taqiqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida»gi qonunining «Vijdon erkinligi» nomli 3-moddasiga koʻra esa «Fuqaro oʻzining dinga eʼtiqod qilishga yoki eʼtiqod qilmaslikka, ibodat qilishda diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan oʻz munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yoʻl qoʻyilmaydi». Shuningdek, mazkur qonun talabiga koʻra, rasmiy hujjatlarda (masalan, fuqaro pasportida) fuqaroning dinga munosabati koʻrsatilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab huquqlari cheklanmaydi yoki ularga hech qanday imtiyozlar berilmaydi.

Islom dinida ham dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi. Islom dinining muqaddas manbalari – Qurʼoni karim va Sunnada ham dunyoviylik tamoyillari asosini koʻrishimiz mumkin. Jumladan, Baqara surasi 201-oyatda: **Yana shundaylari ham borki, ular: «Ey, Rabbimiz, bizga bu dunyoda ham yaxshilik ato etgin, oxiratda ham yaxshilik (ato etgin) va bizni doʻzax azobidan asragin», – deydilar.**

Ushbu oyatda inson bu dunyosi uchun ham harakat qilishi kerakligiga ishora qilinadi. Qurʼoni karimdagi «**Dinda (dinga) zoʻrlash yoʻq**» (Baqara, 256) oyatida dunyoviylikning eng muhim asoslaridan biri mujassam boʻlgan. Unga koʻra diniy hayot tarzini majburlab singdirish mumkin emasdir. Ushbu oyatning soʻnggi nozil boʻlgan oyatlardan ekani ham alohida eʼtiborga molik.

Shuningdek, «Qasas» surasida bayon qilingan: «**Alloh senga ato etgan narsa bilan oxiratni istagin va dunyodan boʻlgan nasibangni ham unutmagin**» (Qasas, 77) oyatini Abu Lays Samarqandiy «Bu dunyodagi nasibangni tark qilmagin, toki oxirating uchun xizmat qilsin» deya tafsir qilgan.

Mazkur oyatda oxiratni yodda tutgan holda, bu dunyo neʼmatlarini ham yoddan chiqarma, deyilmoqda. Chunki senda tanang, oilang, qoʻni-qoʻshni, jamiyat, qoʻl ostingdagilarning haqqi bor, har bir haqdorning haqqini ado etish kerak.

Shular bilan birga Qurʼonda koʻplab oyatlar dunyoviy masalalarni ham qamrab oladi. Misol tariqasida Qurʼondagi eng katta oyat ham aynan dunyoviy masala – qarz oldi-berdisi haqidagi «Baqara» surasining 282-

oyati bo'lib, unda masalaning moddiy va ma'naviy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Payg'ambar (a.s.)ning hayot yo'lini o'rgangan ulamolar u yerdagi dunyoviylikka e'tibor berilgan nuqtalarni alohida o'rganganlar. Muhammad (a.s.) diniy masalalarda barchaga muallim bo'lsalar ham, dunyoviy masalalarda mutaxassislarning fikrlariga quloq tutardilar. U zot (a.s.) Madinada ansorlarga qarata «Menga o'z fikringizni bildiring, ey odamlar!» deb maslahat so'rab, murojaat qilganlari tarix kitoblarida qayd etilgan. Rasululloh (a.s.) Badr kuni o'z qo'shinlari uchun qarorgoh tanlaganlarida esa sahobiy Hubob ibn Munzir harbiy mutaxassis sifatida u zotga murojaat qilib: «YO Rasululloh, bu yerga tushishni Alloh sizga buyurib, biz bu yerdan boshqa joyga tushishga haqli emasmizmi yoki bu shaxsiy fikr, harbiy reja va urush uslubimi?» deb so'radi. «Yo'q, bu shaxsiy fikr, harbiy reja va urush uslubi», deb javob berdilar. «YO Rasululloh, unday bo'lsa, bu ma'qul joy emas», deb boshqa strategik qulay joyni ko'rsatib, o'z fikrini asoslab berdi. «To'g'ri maslahat berding», deb Rasululloh (a.s.) uning fikrini qabul qildilar. Ushbu harbiy strategiya jangda katta ustunlikni ta'minladi. Xuddi shunga o'xshash «xurmo changlatish» haqidagi hadisda ham Payg'ambar (a.s.) dunyoviy ishlarida soha mutaxassislarining fikriga tayanish kerakligiga ishora qilganlar. Jumladan, Imom Muslimning Anas (r.a.)dan keltirgan rivoyatda:

*«Payg'ambar (a.s.) xurmo changlatayotgan bir qavmning oldidan o'tayotib, buni qilmasangiz ham bo'laveradi, dedilar. O'sha yili hosil yomon chiqdi. U zot yana o'shalarning oldilaridan o'tayotib, xurmoingizga nima bo'ldi? deb so'radilar. Ular, shundoq, shundoq, degan edingiz... deb aytdilar. U zot: «Sizlar dunyoingiz ishini biluvchiroqsiz» dedilar.*

Ya'niki, Rasulullohning ba'zi gaplari diniydan ko'ra tajribaviy asosga yoki shaxsiy ra'yga tayangan. Shuning uchun ham sahobiylar Rasulullohning ba'zi amrlari borasida «shaxsiy fikringizmi yoki Allohning amrimi?» deb so'rar edilar. Shaxsiy fikrlari bo'lsa, unda ba'zan boshqa afzalrog'ini taklif eta olardilar. Rasululloh (a.s.) bunday taklifni qabul qilib, o'z ra'ylarini o'zgartirar edilar. Ya'ni shu dunyoviy soha mutaxassisining fikrini albatta inobatga olar edilar.

Rasululloh (a.s.)dan keyin chahoryorlar ham shu yo'lni tutdilar. Hazrati Umar (r.a.) «Sizlarning yaxshingiz u dunyo va bu dunyo uchun harakat qilganingizdir» deb alohida ta'kidlagan. U zot masjidida ertayu-kech ibodat bilan mashg'ul bo'lgan yoshlarni tayoq bilan urib haydab, dunyoviy ish bilan shug'ullanishga chaqirgani rivoyatlarda mashhurdir. Ali (r.a.) esa «Bu dunyo uchun abadiy yashaydigandek, oxirating uchun ertaga vafot etadigandek harakat qil», deb marhamat qilgan.



Diniylik va dunyoviylik haqida soʻz borganda, davlatchilik mavzusini ham nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Ulamolarning qayd etishlaricha, islomda diniy davlat tushunchasi Paygʻambar (a.s.) davridagina joriy boʻlgan. Ammo, shu bilan birga, Paygʻambar (a.s.) Madinaga koʻchib oʻtganlarida tuzgan Madina sahifasi (zamonaviy tilda Madina konstitutsiyasi)da dunyoviy davlatchilikning muhim jihatlarini koʻrish mumkin. Nabiy (a.s.) 52 moddadan iborat tuzgan «Madina sahifasi»da muhojirlar, ansorlar (Avs va Xazraj qabilalari), ahli kitob (yahudiy qabilalar) va boshqa toifalarning barchasi uchun teng huquq, majburiyat va jazo choralari belgilangan edi. Ushbu «Sahifa» Madinada yashovchi turli ijtimoiy guruhlarning oʻzaro tinch-totuv yashashlarini taʼminlashga qaratilgan edi. «Sahifa»da eski urf-odat va anʼanalar eʼtirof etildi, barcha toifalarning dini, kelib chiqishidan qatʼi nazar tengligi koʻrsatib oʻtildi, ichki va tashqi xavfsizlik hamda hamkorlik masalalari qayd etildi. Shular bilan birga siyosiy tashkilotning tamomila yangi koʻrinishdagi tamoyillari ishlab chiqildi: tashqi dushmanga qarshi birdamlikda harakatlanish va jamoaning (shahar aholisining) barcha vakillarini birdek himoya qilish, har qanday jinoyatchini yakkalab qoʻyish, yaʼni uning urugʻ va qabilasi himoyasidan ajratilishi tufayli qabilalararo nizolarga barham berilishi, barcha aholi yagona xalq (ummat) deb qaralishi va boshqa.

«Sahifa»ning 25-bandi Madina aholisiga diniy qarashlar va eʼtiqod erkinligini taʼminlashga qaratilgan edi. Unda: **Banu Avf yahudiylari moʻminlar bilan bir (jamoat) ummatdir. Yahudiylarning oʻz dini, musulmonlarning oʻz dini bor.** «Sahifa»ning keyingi bandlarida boshqa yahudiy urugʻlariga Banu Avfga tatbiq etilgan huquqlar tatbiq etilishi aytiladi.

«Sahifa»da fuqarolik, yaʼni bir davlatning teng huquqli va toʻlaqonli aʼzosi boʻlish imkoniyati ham yoritilgan edi. Yaʼni dini, qabilasi, urugʻidan qatʼi nazar bir davlat hokimiyati ostida fuqarolik taʼminlanishi, ularning barchasi oʻz dinini saqlagan holda bir jamiyatga birlashishi «Sahifa»ning 1, 2, 25-35 va boshqa bandlarida qayd etildi. «Sahifa»da barcha toifalar davlatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi unsurlar sifatida eʼtiborga olinib, ular oʻzaro yordam olish-berish, vatan himoyasida hamkorlik qilish kabi huquqlar belgilandi. Koʻrinib turibdiki, Rasululloh (a.s.) bu hujjatda musulmonlar va boshqa din vakillari oʻrtasidagi munosabatni fuqarolik asosiga qurdilar. Madina va uning atrofida yashovchi barcha uchun teng boʻlgan huquq va majburiyatlar koʻrsatilgan «Sahifa» taraflar tomonidan adolatli deb topildi, ularning hammasini qoniqtirdi va tezda imzo bilan tasdiqlandi. Natijada turli diniy, siyosiy qarashlarga ega boʻlgan insonlarning bir davlat hokimiyati ostida teng huquqli boʻlib yashashlari «Madina sahifasi»da kafolatlandi.

Hozirgi zamonaviy davlatlar ham o'z poydevorini e'tiqodiy tamoyillar emas, balki fuqarolik negiziga quradilar. Yuqorida keltirilganidek, «Madina sahifasi»da ham deyarli shunday tamoyillar nazarda tutilgan edi. Payg'ambar (a.s.)ning jamiyat qurilishi va davlat boshqaruviga oid tuzgan ilk hujjat – «Sahifa»da ham ko'rib turganimizdek dunyoviylik tamoyili yetakchilik qiladi. Ushbu hujjatga binoan Madina aholisining hech bir vakiliga diniy aqidalarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmagan, fuqarolik haq-huquqlari diniy mansublik nuqtai nazaridan belgilanmagan. Hattoki, turli e'tiqodiy qarashlarga ega Madina aholisiga ham bir xalq deb qaralgan.

Payg'ambar (a.s.) vafot etayotganlarida ham o'rinlariga boshqaruvni amalga oshiradigan xalifani tayinlab ketmadilar, balki musulmonlar ixtiyoriga qoldirdilar. Ya'ni, davlatning keyingi rahbarlarini saylash jarayonlari diniy shaklda amalga oshmasligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham Abu Bakr Siddiq (r.a.) rahbar etib saylanganlarida boshqaruv ishida xato qilishlari mumkinligini e'tiborga olib, sahobiylerden ularni to'g'rilab turishni, to'g'ri ish qilsalar ularni qo'llab-quvvatlashni so'raganlari rivoyatlarda mashhur. Islom dini ta'limotida davlat siyosiy tuzilmasining muayyan shakli ko'rsatilmagan. Faqatgina umumiy tamoyillar belgilangan. Ulamolalar bu tamoyillar 4 ta ekanini aytadilar: tenglik, erkinlik, adolat va mashvarat. Ushbu tamoyillar o'rnatilsa, davlat qanday shaklga ega ekanidan qat'i nazar, u islom diniga muvofiq keladi.

Davlat boshqaruv tizimi o'z diniy qiyofasini yo'qotib, dunyoviy tus olishi Payg'ambar (a.s.)dan so'ng boshqargan 4 xalifa (*xulafo' roshidun*) davrida yaqqol namoyon bo'la boshlangan edi. Shuni ta'kidlash joizki, xalifa Umar (634–644) davridan boshlab, davlat boshlig'i *amir al-mu'minin* – mo'minlar amiri deb atala boshladi. Ana shu davrning o'zidayoq davlat axloq va dinning uyg'un holda dunyoviy tus ola boshladi. Turli vazirliklar shaklida devonlar tuzildi, davlatda vazifalar taqsimoti amalga oshirildi. Bu devonlar asosan dunyoviy maqsadlar yuzasidan barpo etilgan edi: pochta, qo'shin, muhrdorlik, ishchilar devonlari va boshqalar. Payg'ambar (a.s.)dan keyingi davrda diniy masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini xalifalar emas, balki aynan musulmon ulamolari va faqihlar shakllantirganlar, xalifalarga mutlaq diniy rahnamo sifatida qaralmagan. Chunonchi, hanafiylik-moturidiylik an'anasiga ko'ra ham sof diniy teokratik davlatchilik islom dini ta'limotlariga zid hisoblanadi. Alloma Taftazoniyning «Sharh al-Aqoid an-Nasafiyya» asarida keltirilishicha, sahih hadisda xalifalik Payg'ambar (a.s.)dan keyin o'ttiz yil, undan keyin podsholik va amirliklar bo'lishi bashorat qilingan. Ali (r.a.) vafoti bilan ushbu o'ttiz yil tugal bo'ldi. Muoviya va undan keyingilar xalifa emas,

balki podsho va amirlar bo'ldilar. Shuni alohida qayd etish lozimki, ayrim xalifalar davrida siyosiy va diniy boshqaruvni jamlashga bo'lgan harakatlari turli muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, abbosiy xalifa Ma'mun (813–833 y. boshqargan) mo'taziliya diniy ta'limotini davlat mafkurasi bilan aylantirib jamiyatga majburlab singdirishga qaratilgan harakatlari tezda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, hozirga qadar islom ulamolari tomonidan qoralanib keladi.

Bugungi kunda ayrim buzg'unchi kuchlar tomonidan zamonaviy dunyoviy qonunchilik asosida hayot kechirish musulmonlar uchun maqbul emasligi haqida soxta da'volar tarqatilmoqda. Vaholanki, dunyoviy qonunlar haqida islom ulamolarining fikrlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq chiqarilgan qonunlar shariatga zid kelmasa, unday qonunlar shariatdandir. Zero, har bir shariat inson manfaati uchun yuborilgan, jamiyatlarning o'z manfaatlarini ko'zlab chiqargan qoidalari garchi shariatdan olinmagan bo'lsa-da, lekin shariatga zid kelmasa ular ham shariatga muvofiq (shar'iy) hisoblanaveradi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, islom dinida dunyoviylikka dinsizlik sifatida baho berilmagan. Dunyoviy ishlar shaxs va jamiyat manfaatini ko'zlar ekan ular din ta'limotlarida doim qo'llab-quvvatlagan. Din dunyoviy ishlarning ma'naviy jihatlarini tartibga solib turgan. Masalan, bu ishning savobli yoki savobsizligi, ma'naviy jihatdan mumkin yoki mumkin emasligi kabi. Umuman olganda demokratik tizimlarning konstitutsiyaviy normalarida davlat va din o'rtasidagi munosabatlar masalasidagi ikki jihat yaqqol ajralib turadi:

– din jamiyatda insonparvarlik ruhiyatining shakllanishida yuksak ma'naviyat bulog'i, beqiyos axloqiy tarbiya manbai, insonlarni halollik, poklik kabi fazilatlarga undovchi qadriyat sifatida e'tirof etiladi;

– dindan g'arazli maqsadlarda foydalanish, diniy omildan foydalanib siyosatga aralashish, hokimiyatga intilish kabi holatlar man etiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish bosqichida diniylik bilan dunyoviylik o'rtasidagi yangi nisbatni shakllantirish har doim ham silliq kechmadi. Bu yo'lda musulmon aholi diniy ongini radikallashtirish va siyosiy lashtirishga qaratilgan urinishlar hamon davom etmoqda. Bunday harakatlarning aniq ko'rinishlari sifatida islom niqobi ostida harakat qilayotgan turli oqimlarning faoliyatida ko'rish mumkin.

Dunyoviylik tamoyili mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li – dunyoviy demokratik yo'l. Din axloqiy tarbiya sohasida muhim aha-

miyatga ega vazifani bajaradi. Biroq diniy siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir. Xalqimiz diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda dunyoviy taraqqiyot yo'lidan bormoqda.

Ming yillar davomida islom dini tamoyillariga sodiq holda yashab kelayotgan xalqimiz go'zal fazilatlarni to'laligicha hayoti, urf-odat va an'analariga singdirib olgan. Xalqimizning urf-odat va asriy an'analarini o'zida aks ettirgan respublikamiz qonunchiligida kimning qanday e'tiqodga ega bo'lish-bo'lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e'tiqod qonunga xilof bo'lmasligi shart.

## **2.6. Kishilarni mutaassib shaxslar tomonidan psixologik ta'sirga solayotgan omillar**

Bugungi kunda din omilining siyosiylashuvi qator norasmiy oqim va yo'nalishlarning faoliyatlarida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa fuqarolarning diniy oqimlar ta'siriga tushishlariga sabab bo'lmoqda. Turli huquqiy va ma'naviy tadbirlarning amalga oshirilishi bevosita fuqarolarning norasmiy diniy oqimlarga tushib qolishidan qisman himoya qilmoqda. Ammo fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi turli oqimlar faoliyati takomillashuviga ham olib kelmoqda. Ular nafaqat turli g'oyaviy targ'ibotlar bilan cheklanib qolmasdan, balki inson ruhiyatiga turli usul va vositalar yordamida ta'sir etishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar. Bu esa bevosita ichki ishlar xodimlariga qator mas'uliyatlar yuklaydi. Ulardan:

- fuqarolar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'zlashtirish;

- fuqarolarning kayfiyati va yo'nalganliklari (shaxsning biror hodisa yoki narsani baholashida ma'lum me'yor yoki qadriyatning ustunlik qilishi)ni aniqlay olish;

- psixologik yordam asoslarini bilish;

- fuqarolarning psixologik qiyofasini yarata olish;

- muammoli vaziyatlarda muloqot va ruhiy ta'sir usullarini qo'llay olish va boshqa.

Bu o'rinda "mutaassiblik" tushunchasiga ham to'xtalib o'tish lozim. Ilmiy psixologik ensiklopediyada mutaassiblikka berilgan shunday ta'rif uchraydi: «mutaassiblik – odamning o'z faoliyati va muomalasida namoyon bo'luvchi turli muqobillarni rad etib, muayyan fikrni himoya qilishga intilishidir». Mutaassiblik ruhiy hodisa sifatida keragidan ortiq sa'y-hara-

kat, g'ayrat, astoydillik, o'z (hammadan ko'proq ekstremal, diniy yoki siyosiy) qarashlarining to'g'riligiga ko'r-ko'rona ishonch bilan tavsiflanadi. Shuni aniq anglash kerakki, har qanday mutaassib terrorchi degani emas, biroq aksariyat terrorchilar – o'taketgan mutaassiblardir. Soddalashirilgan holda mutaassiblikni *g'oyaviy, siyosiy va vatanparvarlik* ruhidagi va *diniy* mutaassiblikka ajratish qabul qilingan. Bugungi davrda mutaassiblikning yuqorida keltirilgan turlari ichida eng xatarlisi – diniy mutaassiblik hisoblanadi.

*G'oyaviy mutaassiblik* g'oyaning g'alabasi uchun o'zini qurbon qilishga tayyorlikka asoslanadi. Yer dumaloq degan g'oyadan voz kechmasdan xuddi shunday mutaassib bo'lgan inkvizitsiya gulxanida yongan Jordano Bruno g'oyaviy mutaassib bo'lgan. G'oyalar turli xil bo'lishi mumkin, biroq mutaassiblik, uning favquloddaligiga ishonch tariqasida, psixologik jihatdan har doim yagonadir.

Shunga e'tibor qaratish kerakki, mutaassiblar, odatda, o'zlariga ixlos qo'yishlarini, ularning ortidan borishlarini yaxshi ko'rishadi. Chunki ular, eng avvalo, o'z hayot faoliyatida manfaatparast odamlardek fikr-mulohaza yuritmaydilar, bu esa har doim odamlarni o'ziga jalb qiladi.

*Siyosiy mutaassiblik* siyosiy tizim, tartib, hokimiyat belgilab bergan o'z siyosiy maqsad va qarashlarining ustunligini himoya qiladi va ular uchun qurbonlik talab qiladi (masalan, «Buyuk Germaniya» uchun, «demokratiyaning g'alabasi» uchun va sh.k.). Siyosiy mutaassiblik va u bilan bog'liq bo'lgan terrorizmning hokimiyat uchun va aksincha, hokimiyatni saqlab qolish uchun o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida olib borgan kurashlaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Siyosiy mutaassiblikning psixologik manbalarida har doim hokimiyatga orzu-mandlik, qanday qilib bo'lmasin, odamlarni bo'ysundirishga intilish yashirinib yotadi. Shuning uchun ham eng ko'zga ko'ringan mutaassib siyosatchilar har doim u yoki bu darajada terrorchilik usullariga murojaat qilganlar va pirovard natijada juda ko'p hollarda o'zlari terror qurboniga aylanganlar.

*Vatanparvarlik (millatchilik) ruhidagi mutaassiblik* vatanparvarlik va milliy g'ururning oxirgi darajasi sifatida ijtimoiy-siyosiy jihatdan, odatda, shovinizmga o'z aksini topadi. Bu tushuncha fransuzcha millatchilikning so'nggi shakli, milliy ustunlikni targ'ib qilish, bir millat manfaatlarining boshqa barcha millatlar manfaatlariga qarshi qo'yilishi, milliy «mag'rurlik»ni keng tarqatish, milliy adovat va nafratni alanga oldirish; harbiy kuchlarga umid bog'lab, keragidan ortiq nodonlikkacha bo'lgan vatanparvarlikni anglatuvchi *chauvinisme* so'zidan kelib chiqqan.

*Diniy mutaassiblik* tarixan mutaassiblikning dastlabki shakli sifatida uning boshqa turlari orasida o'ziga xos o'rin tutadi. U yashirin ravishda har qanday din tarkibida bo'ladi, muayyan tarixiy sharoitlarda rivojlanishi va o'zining ijtimoiy-siyosiy maqsadlariga erishish vositasi sifatida turli diniy va siyosiy guruhlar tomonidan qo'llanilishi mumkin. Mohiyatan, diniy mutaassiblik – bu diniy dunyoqarashning o'ziga xos talqini va diniy idrok qilishning alohida usulidir. Diniy mutaassiblikning yuqori darajadagi xavfliligi shundan iboratki, u dindorlar ongi va xulq-atvorini manipulyatsiya (boshqa shaxs tomonidan biror shaxsning boshqarilishi, nazorat qilinishi) qilish omili sifatida qo'llanilishi mumkin.

Profilaktika inspektorlari diniy mutaassib shaxslar bilan ishlash jarayonida muloqotning psixologik jihatlari haqida bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi. Ma'lumki, muloqotning qator vazifalari mavjud. Insonning maqsadi, fikri, munosabati va dunyoqarashi aynan muloqotda yaqqol namoyon bo'lishi uchun mutaxassislar muloqot masalasiga katta e'tibor qaratadilar. Muloqot jarayonida quyidagi qoidalarga ahamiyat berish zarur:

- Suhbatdoshning ismi bilan murojaat etish;
- Unga imkon qadar yaqinroq masofada turish (60–75 sm);
- «Nima uchun?», «Nima sababdan?» kabi ochiq savollardan muntazam foydalanish;
- Suhbatdosh bilan boshni oldinga biroz quyi holatda ushlab, qo'llar ochiq va samimiyat bilan suhbatlashish.

Yuqorida ta'kidlanganidek, diniy oqimlar a'zolari orasida yoshlar, ayollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu sababdan aynan yoshlar va ayollarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Qolaversa, ishsizlar, o'z qat'iy fikriga va maqsadiga ega bo'lmagan yoshlar bilan faol ishlash talab etiladi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari mahallalarda tashkil etilgan turli to'garaklarga yoshlarni jalb etishda faol qatnashishi, nazorat qilishda ko'mak berishi zarur. Mahalla hududida joylashgan maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi va boshqa tashkilotlar bilan doimiy aloqada bo'lish talab etiladi. Diniy oqimlar o'z faoliyatlarini aynan nazoratsiz, o'zaro kelishmovchiliklarga ega va munosabatlari sust bo'lgan qarovsiz hududlarga e'tibor qaratadilar. U yerda bemalol faoliyat yuritib borish mumkin bo'ladi. Mahalla fuqarolarining diniy yo'nalganligi, diniy ongini doimiy o'rganib borish mahalladagi mavjud ijtimoiy bosim va kelgusida mahallada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bashorat qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, mahallada diniy oqimlarga kirish xavfi yuqori bo'lgan fuqarolar ham uchraydi. Bunday fuqarolar bilan ishlashda profilaktika

inspektori fuqaroning yaqinlari (oilasi, do'stlari, qo'shnilari) bilan hamkorlikda ishlashi samarali bo'ladi.

E'tiqod qilishda dastlab eshitish, so'ng ishonish, so'ngra tekshirish va nihoyat e'tiqod qilish darajasiga yetib boriladi. Diniy oqim a'zolarining boshqalardan ajratilib qo'yilishi quyidagi ikki xil holatni yuzaga keltirishi mumkin:

1) Agar o'z vaqtida aniqlanib, tushuntirish ishlari yetarli darajada olib borilsa, fuqaro yana to'g'ri yo'lga kiradi;

2) Agar kech aniqlanib, tushuntirish ishlari jazolash va qo'rqitish bilan olib borilsa, bu fuqarolarda «o'z e'tiqodini yanada kuchaytirish» yoki «gunohlaridan poklanish» ko'rinishida aks etishi mumkin. Shu sababli, xodimning doimo fuqarolar ichida faoliyat yuritishi shartdir.

Xodim fuqarolar bilan munosabatlarni o'rnatar ekan, dastlab o'zi uchun kichik bir savollar va maqsadlar xaritasini tuzib olishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni suhbat o'tkazilishidan avval suhbatdosh haqidagi ma'lumotlar, yaqin qarindoshlari, qiziqishlari kabilardan kichik xarita tayyorlab olishi va beradigan savollarini qanday ketma-ketlikda berishini aniqlashtirib olishi zarur.

Diniy mutaassibning ibodat qilish paytidagi ko'tarinki ruhi va jaza-vasi xuddi siyosiy miting, rok-konsert yoki sport musobaqasi paytidagi kabi, unda barcha kelib chiqadigan oqibatlar bilan birgalikda, ichki nar-kotik – endorfinning otilib chiqishiga sabab bo'ladi. Mutaassiblar o'zlarini xavfsiz deb his qiladigan hammaslamlari guruhiga singib ketib, o'z Menidan chiqib, «biz»ga o'tishga intiladilar. Dunyo ular uchun «biznikilar» va «dushmanlar», dindorlar va dinsizlarga bo'linadi. Shunga e'tibor qaratish kerakki, mutaassiblar, odatda, o'zlariga ixlos qo'yishlarini, ularning ortidan borishlarini yaxshi ko'rishadi. Chunki ular, eng avvalo, o'z hayot faoliyatida manfaatparast odamlardek fikr-mulohaza yuritmaydilar, bu esa har doim odamlarni o'ziga jalb qiladi.

Shuningdek, ayollar va erkaklar bilan ishlashda mutaxassis ularning o'ziga xos psixologik jihatlarini inobatga olishi zarurdir. Ya'ni ayollar bilan suhbatda dalillardan ko'ra hayotiy voqyealar, ibratli hikoyatlardan foydalanish lozim bo'lsa, erkaklar bilan suhbatda esa ularning shaxs sifatida tan olinishlarini hisobga olib, suhbat jarayonida «Agar bu masalaga bunday yondoshsak qanday munosabatdasiz?» yoki «Sizning fikringiz qanday?» kabi munosabatni yaratish muammolarni aniqlashtirishga yordam beradi.

Yosh darajalarini hisobga olmasdan munosabat o'rnatishimiz esa katta xatolarga olib kelishi mumkin. Ma'lumki, biz dunyoga kelib ulg'ayar ekanmiz, atrofdagilarimiz bizga qanday o'qish, yozish, talaffuz qilish

kabilarni o'rgatadilar. Ammo hych kim insonlar bilan qanday munosabat o'rnatish kerakligini o'rgatmaydi. Shu sababli muloqot va munosabat muammosi keng qirrali masala bo'lib qolmoqda.

Rossiyalik psixolog olimlar o'z tadqiqotlarida diniy mutaassiblikka ko'pincha o'z hayotidan, tashqi ko'rinishidan, atrofdagilaridan, jamiyatdan, hukumatdan va umuman norozi kayfiyatdagi odamlar tezroq berilishlarini aniqlaganlar. Shu ma'noda fuqarolarda sabr, shukronalik tuyg'usini qaror toptirish lozim bo'ladi. Professor Olshanskiyning fikricha, mutaassiblik – bu guruhiy va ommaviy psixologiyaning o'ziga xos noyob hodisasi. O'zaro e'tirof etishda bir-birini qo'llab-quvvatlab turadigan mutaassiblar uchun kuchli emosionallik, o'zlarining qarashlarini tasdiqlovchi har qanday axborotga tanqiddan xoli bo'lgan munosabat va aksincha, hatto xayrixohlik ruhidagi va amaliy bo'lsa-da, tanqidni qabul qilmaslik xosdir.

Fuqarolarda diniy mutaassiblikning bir qator psixologik belgilari aniqlangan. Ulardan o'zining ilgarigi maqsadlaridan voz kechishi, muhim munosabatlarni uzib tashlashi, guruhga o'z vaqti va mablag'ining barchasini berishi, uning uchun beminnat ishlab berishi. U(mutaassib shaxsi) yaxshi ovqatlanmaydi, kam uxlaydi, kasallik alomatlarini e'tiborga olmaydi, tibbiy va psixologik yordamni rad qiladi, shifokorlarning maslahatlariga e'tibor qilmaydi. Uning kiyimi, soch turmagi, vazni, ovqatlanish tartibi o'zgaradi; unda giyohvandning jonsiz jiddiy qarashlari paydo bo'ladi, so'z qurilishi, nutqi, mimikasi (imo-ishorasi) va harakat (muomala) tarzi o'zgaradi, yumor hissi kamayadi.

U ekstravertdan introvertga aylanishi va aksincha bo'lishi mumkin. Tahliliy mushohada yuritish sehrli mushohada yuritishga o'tadi. Dangasa mehnatsevarga, mas'uliyatsiz mas'uliyatliga, isqirt ozodaga, parishonxotir juda aniq, puxta odamga aylanadi. Ilgarigi qiziqish va xobbilar yo'qoladi, vijdonlilik va poklik haqidagi tasavvurlari o'zgaradi. Oila va do'stlari bilan aloqalar yo'qoladi, o'z qobig'iga o'ralib oladi, oilaviy tadbirlarda ishtirok etmaydi, ko'p vaqtini guruh bilan o'tkazadi, guruhning boshqa a'zolarinikiga yashash uchun ko'chib o'tadi. Murosasizlik tadqiqotchilar tomonidan mutaassiblikning asosiy alomatlaridan biri deb topilgan.

Xodim o'z faoliyatida har qanday noodatiy jarayonni ko'zdan qochirmasligi talab etiladi. Inson o'zining odatiy xatti-harakatlarini boshqa noodatiy xatti-harakatlarga o'zgartirishi uning ruhiyatida keskin o'zgarish bo'layotganligini bildiruvchi omillardan hisoblanadi. Fanatizm (mutaassiblik) ham aynan jamiyat va odamlar ommasiga qarshi fikrlash, qarshi turish, qarshi harakatlanish asosida sodir bo'ladi. Bunda fuqarolar o'zligini namoyon qilish, tajovuzkorligini ko'rsatish, ishonuvchanligini bildirib qo'yadilar.



Ma'lumki, joylarda diniy ta'limga qiziquvchi fuqarolar ham topiladi. Ular bilan joylardagi imom-xatiblar o'rtasida doimiy munosabatlarni, suhbatlarni ta'minlash ham yaxshi samara beradi. Chunki inson o'zi qiziqqan narsani bilishga intiladi va ko'pincha buning uddasidan chiqadi. Shunday vaziyatda qiziquvchan inson turli norasmiy diniy oqimlar a'zolari ta'siriga tushib qolishlari juda achinarlidir. Yuqoridagi kabi holatlar-ning oldini olish uchun hududlardagi rasmiy imomlar yordamlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, diniy ta'limni olishni istovchi fuqarolarni mamlakatimizdagi mavjud diniy va dunyoviy ta'lim muassasalariga yo'naltirish ham yaxshi samara beradi. Bunda mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi qo'l keladi.

Odatda, radikal (destruktiv va terrorchilik) tashkilotlarning a'zolari notinch oiladan chiqqanlar u yoki bu sabab bilan mavjud jamoat tuzilmasi doirasida qiyinchilikka duch kelgan, ishini yo'qotgan yoki umuman ish joyiga ega bo'lmagan kishilar bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda yuzaga keladigan begonalashish hissi odamni xuddi o'zi kabi g'ayriijtimoiy ko'ringan guruhga birlashishga majbur qiladi.

Shu bilan birga, xodim o'z o'rnida mahallalarga yangi ko'chib kelgan va chet eldan ishlab qaytgan fuqarolarni nazorat qilish ishlarini doimiy olib borishi lozim. Mahalla tadbirlari va qo'ni-qo'shnilar bilan u qadar faol va inoq bo'lmagan fuqarolarga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi. Ularda assotsial (jamiyatga zid) xulq-atvorning shakllanishi kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda darhol atrofdagilar bilan profilaktik ishlarni boshlash talab etiladi.

Diniy mutaassib oqimlarga a'zo bo'lgan fuqarolarni psixologik profilaktika qilish o'zida qator muammolarni qamrab oladi. Jumladan:

- diniy mutaassib oqimlar faoliyatining kundun-kunga murakkablashib borayotganligi;
- oqim faollarining turli psixotexnologiyalardan keng foydalanayotganliklari;
- diniy mutaassib shaxs psixologik portretining egiluvchanligi;
- mutaxassislarning psixologik bilimlarining yetishmasligi;
- usullar va vositalarning universal hamda me'yorlashtirilmaganligi kabilar.

Ammo bugungi kunda diniy oqim a'zolarini to'g'ri yo'lga qaytarishda ichki ishlar organlari xodimlariga quyidagi usullarni tavsiya etishimiz mumkin:

- u a'zo bo'lgan referent (taqlid qilgan) guruh va rahbarlarini aniq dalillar yordamida obro'sizlantirish;

- ijtimoiylashuvi (atrofdagilar bilan munosabatlari) masalasida psixolog mutaxassisini jalb etib, yangidan normalarni o‘zlashtirish;
- jamiyatning faol qatlamiga qo‘shilishi uchun zarur barcha imkoniyatlarni yaratib berish (o‘qishi, ishlashi, munosabatga kirishi kabilar);
- dalillar yordamida o‘zi tanlagan yo‘lning oxiri, maqsadi va kelajagi xususida suhbatlashish;
- munosabati va dunyoqarashida hissiylikdan ratsional (aql bilan) baholash ko‘nikmasini shakllantirish;
- diniy ibodatlarini bajarishlarini keskin cheklamaslik bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirish;
- o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun psixolog mutaxassislarni jalb etib turli treninglar tashkil etish;
- Vatan, ona va e‘tiqod kabi muqaddas tushunchalarning asl mohiyatini tushuntirish;
- islom dinining asl mohiyati bo‘lgan tinchlik, insonparvarlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni qaror toptirishda ko‘zga ko‘ringan mutaxassislarni jalb etish va boshqalar.

Qolaversa, o‘tkazilgan suhbatlarda boshqa biror shaxsning ishtirok etmasligi va suhbatni hych nimaga (qog‘ozga, diktafonga) yozib olmaslik zarur.

Eng achinarlisi mutaassiblikni ko‘pincha din bilan bog‘lashlari va terroridan foydalanib hamda musulmonlar uchun muqaddas bo‘lgan islom niqobi ostida o‘zining dahshatli ishlarini amalga oshirayotgan, mohiyatan, mintaqada vaziyatni beqarorlashtirayotgan bir qator tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq voqyealarning sharqda yuz berayotganiga e‘tibor qaratgan holda, Ali Apsheronning fikrlarini keltirish o‘rinlidir. «Islom, – deb yozadi u, – o‘ta ketgan mutaassib inqilobchilarga muhtoj emas, aksincha, u chuqur va samimiy e‘tiqodga ega bo‘lgan, boshqacha fikrlovchi, boshqa tilda so‘zlaydigan yoki boshqa dinga e‘tiqod qiladigan kishilarga nisbatan bag‘rikenglik va ochiqlik xos bo‘lgan taqvodor va xudojo‘y kishilarga muhtojdir».

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilingan holatda yurtimizning tinch va musaffo osmonidan nafaqat bahra olishga, balki mana shu xotirjamlikni ta‘minlashga o‘zimizning hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

### **III bob. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING KELIB CHIQUISHI, SHAKLLANISHI. FUQAROLARNI EKSTREMISTIK OQIMLAR TA'SIRIDAN ASRASHNING DOLZARB MASALALARI**

#### **3.1. Ekstremizm, terrorizm va axborot xurujlarining namoyon bo'lish shakllari**

Din niqobi ostidagi ekstremizm, terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi. Prezidentimiz Islom Karimov yer yuzida sodir bo'layotgan bunday ofatlarning qanday kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida shunday deydi: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

Darhaqiqat, ilmiy istilohda qo'llanayotgan «fundamentalizm», «aqidaparastlik», «mutaassiblik», «ekstremizm», «terrorizm» kabi atamalar deyarli barchaga tushunarli bo'lsa-da, har bir kishi ularni o'zicha talqin etishi mumkin. Keng ma'noda, bu atamalar qonuniy hokimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga nisbatan ishlatiladi.

Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi – bu mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Demak, mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Mutaassiblik (arab. «mutaassib» – «chuqur ketish») muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o'zgalar» va «o'zgacha» qarash hamda g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etish, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda ham mutaassiblikning jirkanch qiyofasi dunyoning

turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo‘poruvchilik va xunrezliklarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Aqidaparastlik (arab. «aqida» — «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat‘iy ishonch asosida shakllangan qoida va tartiblarni jitimoiy vaziyatni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash va urinishdir. Bunday qarash tarafdorlari diniy aqidalarning har qanday majoziy talqiniga, izohlanishiga murosasizliklari bilan ajralib turadilar. Diniy aqidaparastlik – Qur‘on oyatlari va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islom davriga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim tarafdorlarining qarashlari, deyishimiz mumkin. Ular faqat islomning fundamental (asosiy) tamoyillarigina jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi deb hisoblaydi va o‘zgalarni ham ularga amal qilishga da‘vat etadi.

Fundamentalizm (lot. – «asos») tushunchasining ma‘nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko‘rinishini anglatadi. Diniy fundamentalizm – «ma‘lum din vujudga kelgan ilk davrga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan ta‘limotni ilgari suradi. Din aqidalarining so‘zma-so‘z talqiniga asoslangan e‘tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan din, shu jumladan, islom dini e‘tiqodi shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarning qat‘iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor Birinchi Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910-yildan keyin shu nom bilan atala boshlangan. Fundamentalistlar xristianlikning an‘anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat‘iy rioya qilishni talab qilardilar.

XX asrning 70-yillaridan boshlab esa, bu so‘z islomga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Buning natijasida, jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarini «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi. Demak, islomni asl holida saqlab qolish da‘vosi bilan odamlarni bir-biriga qarshi qo‘yib, qon to‘kishni tashkil qilayotgan, amalda esa o‘zining manfaatlarini o‘ylayotgan kishilar Yevropada fundamentalistlar, arab mamlakatlarida esa mutaassiblar yoki aqidaparastlar, deb ataladi.

Ekstremizm (lot. – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Bunday harakatlarga diniy tus berish esa diniy ekstre-

mizmga olib keladi. Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Jamiyat uchun nosog'lom, uning taraqqiyotiga zid bo'lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchilar – ekstremistlardir.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra – diniy va dunyoviy, namoyon bo'lishiga ko'ra – hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistlar qarashlari juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, ular hech qachon chegara bilmagan yoki din, millat, biron-bir mamlakat hududini tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lsa, diniy ekstremizmni bir qancha dinlarga, jumladan buddizm, xristianlik, islom kabi dinlarga e'tiqod qilishini da'vo qiluvchi turli oqimlarda uchratish mumkin.

Mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar.

Hozirgi kunda esa islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu jarayonning eng xatarli jihati diniy siyosiy- lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Terrorizm (lot – «qo'rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida dahshat va qo'rqov uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyat. Terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

Terrorizmning xarakterli tomonlaridan biri – uning siyosatga yo'naltirilganligidir. Har bir terror jarayonining asosida hozirgi davrda muayyan siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yotadi. U yoki bu shaxs ustidan zo'ravonlik, kuch ishlatish esa, ushbu mamlakatdagi siyosatni saqlash yoki o'zgartirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy kurashning bu usuli ma'lum jamiyatda, mamlakatda yashovchi fuqarolar orasida qo'rqov

va dahshat tarqatishga asoslanadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hiech qanday urush bo‘lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo‘rluk yo‘li bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagan uchun ham ko‘p hollarda aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

O‘zbekistondagi qonunchilik tizimida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tushunchalarni umumlashtirgan holda ularning ta’rifiga aniqlik kiritilgan. 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 2-moddasida terrorizm tushunchasi quyidagicha ifodalangan: «...terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rluk, zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar».

Demak, terrorizm hiech qanday umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviyatga rioya qilmasligi, biron-bir sog‘lom mafkuraviy va g‘oyaviy asosga ega emasligi, jamiyat, har qanday milliy va xalqaro huquq me’yorlariga amal qilmasligi bilan ajralib turuvchi jinoiy faoliyatdir.

Hozirgi paytda dunyoning birorta mamlakati yo‘qki, terrorizm, xususan xalqaro terrorizm xavfidan o‘zini muhofazalangan deb bilsa. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: «...terrorizmning tajovuzidan o‘zini xoli his qiladigan birorta qit’a yoki davlatning o‘zi yo‘q. Xuddi vabo singari yer yuzining ko‘plab mamlakatlari yoyilib borayotgan bu balo-qazo ertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin».

Zamonaviy terrorizmning ikkita alohida xatarli belgisini ajratib ko‘rsatish mumkin: bir tomondan, u tobora shafqatsizroq g‘ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sig‘dirish qiyin jug‘rofiy ko‘lamlar kasb etib bormoqda. AQSH Davlat departamentining ma’lumotlariga

ko'ra, dunyoda har yili taxminan 650 dan ortiq terrorchilik hodisalari sodir etilmoqda. Xatarli jihati shundaki, ularning soni muntazam oshib bormoqda. Masalan, 1992-yilda ana shunday noxush voqyealarning umumiy soni 362 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 600 dan oshib ketdi.

BBC World Service va London Qirollik kolleji ma'lumotiga ko'ra, 2014-yil noyabr oyining o'zidayoq jangarilar dunyo bo'yicha 5042 kishining umriga zomin bo'ldi. Shundan, «Iroq va Shom islom davlati» («ISHID») tomonidan 2206 kishi, «Boko Haram» tashkiloti tomonidan 801 kishi va «Tolibon» harakati tomonidan 720 kishi qatl etilgan.

Ekspertlarning fikricha, dunyoda faoliyat ko'rsatayotgan terrorchilik tashkilotlarining yuzdan oshig'i eng zamonaviy qurollar bilan yaxshi ta'minlangan yirik uyushmalardan iborat. Ular turli qo'poruvchiliklarni sodir etish jarayonida o'zaro hamkorlik qiladilar, ma'lumotlar almashadilar, zarur hollarda, bir-birlariga harbiy, moliyaviy va boshqa shakldagi yordam ko'rsatadilar. Bu esa, terror oqibatlarini yanada oshiradi. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga «al-Qoida», «ISHID», «Jabhat an-Nusra», «Boko Haram», «Tolibon», «Abu Sayyaf» kabilarni kiritish mumkin.

Shuning bilan birga, bugungi kunda «axborot xuruji» ko'rinishidagi informatsion terrorizm ham asr balosiga aylandi. Ayni vaqtda ayrim davlatlar uchun hukmronlikka erishishda atom va termoyadro qurollaridan ko'ra «Axborot xuruji» o'ta samarali xizmat qilmoqda. Chunki, ommaviy axborot vositalari odamlar ongi va tafakkur tarziga, xulq atvorlariga, hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Ommaviy axborot vositalarining bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib kelganini ta'kidlash zarur. Bu jarayonning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi va omma ongida xavotirli aks sado berishiga erishish orqali guruhning jamiyat oldida tanilishi ham hisobga olinadi. Bunday harakat zamirida, aslida terrorchilarning ojizligi namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Chunki, jamiyatda ovoza bo'lishga intilish, odamlarda qo'rquv hissini uyg'otish yo'li bilan tashkilot o'zining bosh maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. Shu bois, bunday paytlarda ta'sir o'tkazish orqali xulqini modelashtirish va faolligini boshqarish mumkin bo'lgan ruhiy ojiz, ma'nan qashshoq, subutsiz kimsalar ijrochi sifatida chiqadilar.

Ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir, tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi.

Axborot dushmani yo'q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamla-

katlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'sir o'tkazishda davriy nashrlar, radio-televideniye va albatta internet vositalaridan ustalik bilan foydalanilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari orqali inson ongini salbiy boshqarish usullari ishlab chiqilgan. Bular:

Axborot-psixologik kurash – tanlab olingan obyekt ustidan psixologik ustunlikka erishish maqsadida uning axborot tizimi, jarayonlari, kompyuter tarmog'i, inson ongiga ta'sir qilish orqali amalga oshiriladigan va shuning bilan bir vaqtda o'zini axborotdan himoya qiladigan tadbirlar majmui.

Axborot-psixologik operatsiya – joy, kuch va vositalarning tadbirlar vaqtida yagona maqsad uchun obyektning aholisiga o'z siyosiy hamda harbiy maqsadlarga erishish yo'lidagi ogohlantiruv va kelishuvga doir tadbirlar majmui.

Axborot-psixologik ta'sir – bu operatsiyalar o'tkazishga mos keladigan odamlar ongiga ta'sir etish maqsadida psixologik yo'naltirilgan axborotdir. Bu yo'nalishda AQSH dunyoda yetakchilik qilib kelmoqda. AQShning informatsion-psixologik kurash vositalarini egallashga qaratilgan sarf-xarajatlari oxirgi 15 yil mobaynida to'rt barobar oshib ketdi va bu qurollanish dasturida birinchi o'rinni egalladi.

«Axborot xuruji» shunday qurolki, u ishlatilganida jamiyat a'zolari o'zlari bilib-bilmagan holda bu qurolning ta'sirchanligini yanada oshiradilar. Axborot urushining eng achinarli tomoni shundaki, qaysi davlatga nisbatan axborot urushi olib borilsa, shu davlatning fuqarolari o'zlari bilmagan holda unga ko'mak berishadi. Bunda bir ma'lumot og'izdan-og'izga o'tganida bo'rttirib borilaveradi. Ma'lumki, 2000-yili Serbiyada bo'lib o'tgan «gullar inqilobi», 2003-yili Gruziyada, 2004-2005 hamda 2014-yillarda Ukrainada yuz bergan «sariq inqilob»lar, shuningdek, 2010-2011-yillarda ba'zi arab davlatlarida yuz bergan «arab bahori» aslida «rangli inqilobchilar»ning yagona ssenariysi mish-mish, mavjud davlat tuzumiga, uning rahbariyatiga nisbatan aholini gij-gijlash asosida amalga oshirilgan edi. Demak, «rangli inqilob» texnologiyalari aslida ayrim davlatlarning Yer kurrasini turli mintaqalaridagi moddiy resurslarini egallashga bo'lgan intilishlarining g'oyaviy ifodalovchilari bo'lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, XX asrda insoniyatga yadro quroli katta xavf solgan bo'lsa, bugungi kunga kelib turli maqsadlarni ko'zlab uyushtirilayotgan axborot xurujlari xalqlar, davlatlar, mintaqalar hayotiga, kelajak taqdiriga



tahdid solmoqda. Voqyelik inson qalbi va ongi uchun boʻlgan bunday kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining koʻpayib borayotgani, ayniqsa bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Bunga eʼtiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini taʼminlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan oʻziga ogʻdirishga harakat qilayotgan kuchlarni misol keltirish mumkin. Masalan, «islom» niqobi ostida faoliyat koʻrsatayotgan mutaassib uyushmalar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qatʼi nazar, barcha musulmonlarning maʼnaviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularni yagona maqsad ostida birlashuvi gʻoyasini ilgari suradilar. Ular shu yoʻl bilan har bir davlatning oʻz taraqqiyot yoʻlidan ogʻdirishga harakat qilib, qayerda gʻoyaviy boʻshliq, loqaydlik va beparvolik boʻlsa, oʻsha yerda paydo boʻladilar.

Afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yoʻli bilan oʻz maqsadlariga erishishni koʻzlaydigan kuchlar bor ekan, sunʼiy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham toʻxtamaydi. Bunga 2011–2014-yillarda baʼzi arab mamlakatlarida roʻy bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli toʻqnashuvlar misol boʻla oladi. Mazkur ommaviy tartibsizliklar tufayli Tunis, Misr, Liviya, Suriya, Iroq kabi davlatlarda minglab kishilar qurbon boʻldi va voqyealar hamon davom etmoqda. Yaqin Sharq davlatlarida boʻlib oʻtgan xunrezliklar, «arab bahori» nomi bilan begunoh odamlarning yostigʻini quritayotganlar ham asosan dinni qurol qilib olgan kuchlar ekani hych kimga sir emas. Shuningdek, bugungi kunda bunday oqimlar uchun oʻz maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qoʻllash, Internet va ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali keng targʻibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Masalan, birgina ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan tartibsizliklarning salbiy oqibatlarini 2011-yilning boshlarida bir qator arab davlatlarida yuz bergan «tvider inqilobi» voqyealarida ham koʻrish mumkin. Xususan, tashqi kuchlar tomonidan Facebook, Twitter ijtimoiy tarmoqlari va proksi-IP xizmatidan foydalangan holda Tunis, Misr, Liviya, Bahrayn, Eron, Suriya-dagi tartibsizliklar tashqi kuchlar tomonidan nazorat qilib turilgan. Yaʼni inson qalbini tilka-pora qiladigan ushbu qonli mojarolar toʻsatdan paydo boʻlib qolmagan, aksincha, bunga uzoq yillar tayyorgarlik koʻrilgani aniq maqsadga qaratilgan axborot xurujlari olib borilganini eʼtibordan soqit qilib boʻlmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2015-yil 14-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 23 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llangan bayram tabrigida ta’kidlaganlaridek, «Bugungi kunda bizning yaqin va olis yon-atrofimizda vujudga kelayotgan vaziyatga baho berar ekanmiz, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning ko‘lami kengayib borayotganini, ya’ni paydo bo‘layotgan qarama-qarshiliklarni hal etishda kuch ishlatishga zo‘r berish ustunlik qilayotgani, xomashyo resurslari va kommunikatsiyalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha geosiyosiy raqobatning oshgani, yadro texnologiyalari va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, xalqaro terrorizm va ekstremizmning keng tarqalayotgan ekspansiyasining faollashuvi, millatlar va konfessiyalararo mojarolarning kuchayayotganini e’tirof etmaslik mumkin emas».

Demak, bugungi kunda dunyo hamjamiyatida mafkuraviy poligonlarning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri har bir mamlakat, davlat, xalq oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bunday sharoitda kishilarni, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongini turli xil yot g‘oya va axborot xurujlaridan saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

### **3.2. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib borishga intilayotgan diniy-ekstremistik harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari**

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, din-lararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik hamda hamjihatlik yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Lekin g‘oyalar kurashi avj olgan XXI asrda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida hal etilishi zarur bo‘lgan qator muammolar yuzaga kelayotgani, kishilarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning kun sayin ko‘payib paydo bo‘layotgani barchamizni ogohlik va hushyorlikka undaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 31-avgustda «Shahidlar xotirasi» xiyobonida o‘tkazilgan marosimda ulamolar, jamoatchilik vakillari bilan suhbat chog‘ida ta’kidlaganlaridek, «Bugungi kunda dunyoning turli mintaq va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshilik, jumladan, Yaqin Sharqda, Iroq va Suriya mamlakatlarida bo‘layotgan qonli to‘qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o‘rtasida kuchayib borayotgan o‘zaro nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurbon bo‘layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi».

Darhaqiqat, hozirgi kunda diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib, islom ta'limotining ayrim g'oya hamda tamoyillari mazmun-mohiyatini bir yoqlama, taassubga berilib noto'g'ri izohlashga va odamlarni hidoyat yo'lidan adashtirishga urinmoqda. Bunda islomning asosiy manbalari hisoblangan Qur'on oyatlari va hadislarning asl mohiyatini buzib talqin qilishi hamda jamiyat hayotiga tahdid soladigan ishlarni din bilan bog'lashga urinishi esa ularning har qanday qabih ishlardan ham qaytmasligidan dalolat beradi.

Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ko'rsatgan salbiy ta'siri mintaqamizda faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadida yaqqol namoyon bo'ldi. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekistonda asosan «Hizb ut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiylar», «Nurchilar» kabi diniy mutaassib guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Islomning asl mohiyatiga butunlay zid bo'lgan g'oyalar keyingi davrlarda turli oqim va o'zini o'ta faol namoyon etayotgan *soxta salafiylik* kabi harakatlar tomonidan o'zlashtirib olindi.

Aslida islomda «salaf» (arabcha – «ajdodlar», «avval yashab o'tganlar») deganda, hadislarga ko'ra, Muhammad payg'ambar (a. s.) zamonlari va undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Islom mujtahid ulamolari ilk musulmonlarni «salafi solih», ya'ni solih ajdodlar deb hisoblaydi. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan «salaf» yoki «salafiy»lar tushunchalari aslo ishlatilmaydi.

Soxta salafiyning tarix sahnasida yangi kuch bilan paydo bo'lishi suriyalik Ibn Taymiya (1263–1328) faoliyati bilan ham bog'liq. U salafiylik g'oyalari uchun zarur bo'lgan aqidaviy, huquqiy va falsafiy asoslarni yaratib, ushbu harakatning nazariy asoslarini belgilab bergan edi.

Bu nazariyalarga tayangan holda XX asrning ikkinchi yarmida o'z oldiga xalifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo'ygan «islohotchilik», «panislomizm» niqobi ostida soxta salafiylik yangidan jonlandi. Bu o'z navbatida, siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib ko'targan o'ta radikal diniy-siyosiy tashkilot va oqimlarning vujudga kelishiga yo'l ochib berdi. Soxta salafiyalar:

- Qur'on oyatlari va hadislarni so'zma-so'z (yuzaki) tushunib, ko'rkona amal qilish orqali boshqa manbalarni botilga chiqaradilar;
- «jihod»ni islomning oltinchi arkoni deb hisoblaydilar;
- o'z fikr va g'oyalari muxoliflarni «takfir» (kufirda ayblash) ayblab, musulmonlarni «hijrat» (vatanni tark etish) qilishga keng miqyosda da'vat etadilar;

– fiqhiy mazhablarni inkor qilib, mazhabsizlikni targ‘ib qiladilar;  
– tasavvuf, urf-odat va milliy qadriyatlarni shariatga xilof deb hisoblaydilar;

– g‘ayridinlarga o‘ta toqatsiz munosabatda bo‘lib, diniy bag‘rikenglikni yoqlamaydilar;

– har qanday yangilikni «bid‘at» deb hisoblab, uni rad etadilar.

Soxta salafiylar, garchi, har qanday yangilikni bid‘atga chiqarsalarda, o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida texnika taraqqiyoti yutuqlaridan faol foydalanishga intilmoqdalar. Jumladan, ular internetni o‘zlarining yovuzlik quroliga aylantirib, global tarmoqda virtual jamoat tashkil etib, o‘z g‘oyalariga maslakdosh ummatni shakllantirish va ularni hijrat qilishga da‘vat etishga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, o‘z saflarini yangidan-yangi janggarilar bilan to‘ldirishdan iborat.

Hozirda jahon internet tarmog‘ida soxta salafiylarning bir necha mingdan ziyod veb-saytlari mavjud. Ularga asosan diniy asosdagi nizolarni keltirib chiqaradigan ma‘lumotlar, diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlar rahbarlarining turli bayonotlari murojaatlari joylashtirilmoqda. Shuningdek, soxta salafiylarga tegishli saytlarda qo‘poruvchilik va terrorchilikni targ‘ib qiluvchi «mina portlatish ishlari», «shaharlar va tog‘li hududlarda jang olib borish san‘ati», «zaharlovchi moddalardan qurol tayyorlash va undan foydalanish», «maxfiy operatsiyalar o‘tkazish uslublari», «o‘z joniga qasd qilish yo‘llari» kabi sahifalar ham mavjud.

Yuqorida qayd etilganidek, Ibn Taymiya va uning izdoshlari aqida yoki ibodat masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratishgan bo‘lsa, soxta salafiylikning keyingi davomchilari ta‘limotlarida siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib ko‘tardilar. Bu islomning siyosiylashuvi va «Islom xalifaligini tiklash» g‘oyalarining keng yoyilishiga olib keldi.

Hozirda soxta salafiylik g‘oyalari ostida asosan Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyo va hatto, Yevropaning ayrim hududlarida faoliyat olib boradigan harakatlar jamiyatdagi e‘tiqodiy birlik, barqarorlik va taraqqiyot uchun real tahdidga aylangan. Ayniqsa, soxta salafiylar tomonidan targ‘ib qilinayotgan mazhabsizlik g‘oyasi, asrlar davomida shakllangan diniy an‘analarni izdan chiqarib, bir yurt musulmonlari o‘rtasida parokandalikni yuzaga keltirmoqda.

«*Hizb ut-tahrir al-islomiy*» («*Islom ozodlik partiyasi*») harakati musulmon davlatlarini birlashtiruvchi xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e‘lon qilgan. Tashkilotga 1953-yilda Taqiyiddin Nabahoniy (1909–1979) tomonidan asos solingan. Ta‘limot nazariyasi Nabahoniy va

uning izdoshi Abdul Qaddim Zallumning «Islom nizomi», «Islom davlati», «Xalifalik», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», «Hizb ut-tahrirning tushunchalari», «Demokratiya – kufr nizomi» va «Siyosiy ong» kabi asarlarida bayon etilgan. Ularda dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitutsiya va saylov kabi siyosiy institutlar inkor qilingan holda turli mamlakatlarda radikal «islom» gʻoyalari targʻib qilish, davlat toʻntarishi orqali hokimiyatni qoʻlga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni oʻrnatish asosiy maqsad sifatida ilgari suriladi.

«Hizb ut-tahrir» 1960–70-yillarda turli davlatlarning hukumatlariga nisbatan bir necha bor fitna uyushtirishda qatnashganidan soʻng uning faoliyati deyarli barcha musulmon davlatlarida, shuningdek, 2003-yildan Rossiya va Germaniyada ham taqiqlandi. Shunday boʻlsada, «Hizb ut-tahrir» Gʻarbiy Yevropadagi bir qator mamlakatlarda oʻz boʻlinmalarini saqlab kelmoqda. Baʼzi maʼlumotlarga koʻra, tashkilotning Buyuk Britaniyada joylashgan boʻlinmasi muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajarib kelgan.

«Hizb ut-tahrir»ning faol harakati 1970–80-yillardan buyon Pokiston, Indoneziya, Filippin, 1990-yillar boshidan esa Markaziy Osiyo davlatlarida, 2003–2004-yillardan Rossiya va Ukrainaning bir qator mintaqalarida kuzatilgan. Ayni paytda «Hizb ut-tahrir» kurashni uch bosqichda olib borishni koʻzlaydi. Ulardan birinchisi, «tasqif» – tushuntirish ishlari bosqichi. Unda hali ongi toʻliq shakllanmagan, fikri zaif, taʼsirga beriluvchan yoshlarni tuzoqqa ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralari-dagi masʼul shaxslarni oʻz tarafiga ogʻdirishdek maqsadlarga erishish koʻzlanadi. Ikkinchisi – «tafoul» – birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali «Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi» yoʻlida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi. Uchinchisi – «inqilob» – toʻntarish bosqichida esa, tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qoʻlga kiritish moʻljallanadi.

Tashkilot gʻoyalarida islom dinining anʼanaviy fiqhiy yoʻnalishlari, xususan, aqidaviy taʼlimotlariga zid qator fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, ularning daʼvosicha, «yagona xalifalik davlati»ni tiklash islomdagi muhim farz amallardan hisoblanib, uch kundan ortiq musulmonlarning xalifasiz yashashlari haromdir. Hattoki, «Hizb ut-tahrir» harakati paygʻambarimiz Muhammad (s.a.)dan rivoyat qilingan ohod hadislar<sup>1</sup>ning ishonchliligiga ham eʼtiroz bildiradi. Ushbu ohod hadislariga qabr azobi, masih Dajjolning chiqishi, paygʻambarimiz (s.a.v.)ning boshqa paygʻam-

---

<sup>1</sup> Оход хадислар – ровийлар сони мутавотир даражасига етмаган хадис тури бўлиб, озчилик кишилардан ривоят қилинган хадис тури.

barlardan afzalligi kabi yigirmadan ziyod xabarlar kiradi. Ohod hadis bilan sobit bo'lgan hukmga amal qilish vojibdir. Birgina qabrda bo'ladigan azob yoki rohat haqida Qur'oni Karimning «G'ofir» (46-oyat), «Toho» (124-oyat), «Tur» («45-oyat»), «Nuh» (25-oyat), «Tavba» (101-oyat) suralarida bayon qilingan. Shuningdek, ular muqallid (imoniga dalil keltira olmaydigan kishi)ning imoni imon bo'lmasligi, hizbning fikrati va tariqatiga imon keltirish zarurligi, shar'iy manbalardan aql va tafakkurni ustun qo'yilishi kabi xato g'oyalarni ilgari suradi.

Ularning bu kabi g'oyalari va islomga zid boshqa ta'limotlari sababli butun dunyo musulmon ulamolari yig'ilishlarida ham keskin tanqidga uchrab keldi.

So'nggi yillarda «Hizb ut-tahrir»da g'oyaviy yakdillik yo'qolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo'linishlarga olib keldi. Undan «Hizb un nusra» guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, «Hizb ut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytirilishi barobarida, ular orasida o'zini o'zi o'ldirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Ular yosh qiz va ayollarga «uy tutish sirlari» (pazandalik, tikuvchilik)ni o'rgatish orqali harakatning g'oyalarni targ'ib etish, tuzoqqa ilingan ayollarni go'yoki, «hijrat» qilish yo'lida chet davlatlardagi o'z «birodarlari»ga yordam berish uchun jo'natish yoki jazo muddatini o'tayotgan jamoa a'zolariga turmushga chiqishga da'vat etish kabi amaliyotlar bilan shug'ullanmoqdalar.

Mazkur harakat g'oyalarining O'zbekistonga kirib kelishi o'tgan asrning 80-yillari o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda «hizb»chilarning ta'limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan, mutaassiblikka yo'g'rilgan va yuqorida qayd etilgan g'oyalar aks etgan turli xildagi kitob, risola va jurnallar noqonuniy yo'llar bilan yurtimizga kirib keldi. Bu tashkilotga qarshi hukumatimiz tomonidan olib borilgan amaliyotlar sababli yurtimizda «Hizb ut-tahrir»ning faoliyatiga chek qo'yildi.

«*Turkiston islom harakati*» (sobiq «O'zbekiston islom harakati») 1996-yilda tashkil topgan norasmiy diniy-ekstremistik tashkilotdir.

Uning asoschilari Tohir Yo'ldoshev va Juma Hojiyev bo'lib, harakat tarkibiga 1992-93-yillarda O'zbekistonda faoliyati taqiqlangan «Adolat uyushmasi» (Namangan), «Islom uyg'onish partiyasi» (1990-yil Astraxanda asos solinib, 1991-yil yanvaridan O'zbekistonda faoliyatini boshlagan), «Odamiylik va insonparvarlik» (Qo'qon), «Turkiston islom partiyasi», «Islom lashkarlari» (Namangan) kabi diniy-ekstremistik guruhlarining sobiq faollari kirgan.

«Turkiston islom harakati» a'zolari Birlashgan tojik muxolifati tarafida Tojikistonda yuz bergan fuqarolar urushida ishtirok etgan. Nizo hal

qilinishi jarayonida «Turkiston islom harakati» dala qo‘mondonlari Tojikiston hukumati va BTM o‘rtasida imzolagan bitim shartlarini bajarishdan bosh tortib, Afg‘oniston hududiga o‘tib ketgan.

Harakatning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida «Buyuk islom xalifaligi»ni tiklash, unga musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgabo‘yi mintaqalarini ham qo‘shib olishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlarini amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali O‘zbekistondagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish asosiy vazifa qilib belgilangan.

«Turkiston islom harakati» a‘zolarining har qanday yangilikni inkor etish, qabrlarni ziyorat qilish, dunyodan o‘tganlar ruhiga bag‘ishlab Qur‘on tilovat qilish, qabr ustiga belgi – qabrtosh qo‘yish, musiqa, teatr, tasviriy san‘atni «bid‘at» sanashi, tug‘ilgan kun nishonlashni kechirilmas gunoh deb hisoblashi ularning g‘oyalarini asl islom ahkomlari va hanafiylik ta‘limotiga butunlay zid ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur guruh «al-Qoida» va «Tolibon» harakati kabi terrorchi tashkilotlar bilan yaqin aloqaga ega. «Turkiston islom harakati» guruhi jangarilari 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000-yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, 2004-yili Toshkent va Buxoroda, 2005-yili Andijonda, shuningdek, 1999, 2000 va 2006-yillarda qo‘shni Qirg‘izistonda, 2006-yili Tojikistonda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan.

So‘nggi yillarda «Turkiston islom harakati» talofotlar, strukturaviy o‘zgarishlar, rahbar a‘zolar orasidagi yo‘qotishlarga duch keldi. Shu sababli, 2014-yil sentabr oyida «Turkiston islom harakati» rahbari Usmon G‘oziy «ISHID»ni qo‘llab-quvvatlashi va u bilan bir safda ekanligini ma‘lum qilib, ularning yordamiga erishishga intilmoqda.

«Akromiyalar» guruhi asoschisi – Akrom Yo‘ldoshev «jihodchilar»ning Andijondagi g‘oyaviy rahnamosi Abduvali Mirzayev shogirdlaridan bo‘lib, 90-yillarda «Hizb ut-tahrir»ning mahalliy rahbari Abdurashid Qosimovdan saboq olgan. Keyinchalik A.Yo‘ldoshev «hizb»chilar bilan kelisha olmay, ajralib chiqqan hamda «Islom nizomi», «Izzat va sharaf sari» va «Xalifalik» nomli adabiyotlardan foydalangan holda o‘n ikki darsdan iborat «Imonga yo‘l» risolasi va harakat dasturini ishlab chiqqan.

«Akromiyalar»ning bosh g‘oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg‘ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

Oqim vakillari hozirgi musulmonlar, go'yoki kufr davlatida yashayotganini da'vo qilib, ularga namoz ham, ro'za ham, zakot ham, haj ham farz emas, degan g'oyani ilgari surgan. Hatto, ular o'z jamoa a'zolariga «johiliyat» davrida yashayotganligi uchun mast qiluvchi ichimliklarni ichish va chekishga ruxsat bergan. Shundan kelib chiqib, harakatning g'oyaviy dasturi hisoblangan «Imonga yo'l» asarida Qur'oni Karim 23 yil davomida nozil bo'lgani, musulmonlarning islomni asta-sekin o'rgangani, shu bois, bugungi kunda ham jamiyat Qur'ondagi hukmlarni chiqarishda tadrijiy yo'lni bosib o'tishi lozimligi qayd qilingan. Lekin islom ulamolari bu borada aniq misollar keltirib har qanday davlat va hukumat qo'l ostida bo'lishdan qat'i nazar, shariatning inson shaxsining o'zigagina bog'liq bo'lgan ko'rsatmalari hych qachon amalda to'xtashi mumkin emasligini qayd etganlar.

«Akromiyalar» o'zaro aloqalarni mustahkamlash va iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida tadbirkorlik bilan shug'ullanganlar hamda yangi a'zolarini asosan qarindoshlar hisobiga o'zlarining savdo do'konlari, sarta-roshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik, kosibchilik va boshqa ishlarga jalb qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar. «Akromiyalar» yangi a'zolariga ertayu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o'zlarining, go'yoki, siyosatdan yiroq, kichik bo'lsa-da, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go'zal» jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo'lga olish bilan bog'liq rejalarini haqiqiy a'zo bo'lmaganlardan sir tutganliklari hamda yangi tarafdorlar ularni siyosatga aloqasi yo'q deb bilganlari bois, singdirilayotgan fikrlarga ko'nikib boraverganliklarini ko'rsatadi. Bu yo'ldagi amaliy da'vat uslubi boshqa mutaassiblar yondashuvidan farqli bo'lib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo'yishga asoslangan. Oqim a'zolari tomonidan 2005-yilning 13–14-may kunlari Andijon shahrida mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish maqsadida ko'plab odamlarning qurbon bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan qator terrorchilik harakatlari sodir etilgani barchamizga ma'lum.

Hozirgi vaqtda G'arbda «Akromiyalar» yangi diniy-siyosiy guruhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, «Akromiyalar» jamoasi va ularga moyil bo'lgan tashkilotlar tomonidan «O'zbekiston xalq harakati» deb nomlangan harakat tuzilgan. Ular tomonidan «ozodlik», «e'tiqod erkinligi», «inson huquqlari» kabi jozibali tushunchalar ishlatilib, turli yo'llar, masalan, internet tizimi orqali asosan yurtimiz yoshlarini o'z saflariga qo'shishga undash harakatlari qilinmoqda.

«*Tablig'chilar jamoasi*» (arabcha – «yetkazish», ya'ni diniy da'vatni yetkazish) islom bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan, ammo islom dini



asoslarini buzadigan, diniy mutaassib harakat hisoblanadi. «Tabligʻchilar jamoasi»ga Muhammad Ilyos Kandehlaviy (1885-1944) ismli shaxs tomonidan 1926-yilda Shimoliy Hindistonning Mevat shahrida asos solingan. Dastlab Hindistondagi musulmonlar orasida faoliyat yuritgan harakat Ikkinchi jahon urushidan keyin Misr, Turkiya, Saudiya Arabistoni va ayrim Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Harakatning asosiy qarorgohlari Hindistonning Bxopal, Pokistonning Rayvin va Bangladeshning Dakka shaharlarida joylashgan.

«Tabligʻchilar» dunyoviylikni inkor etuvchi, siyosiyashtirilgan va mutaassib diniy mafkurani tashviqot qilish, tarafdorlarini koʻpaytirish orqali oʻz taʼsir doirasini butun dunyoga yoyishni maqsad qiladi. «Tabligʻchilar» har yili 40 kun mobaynida uyma-uy yurib tashviqot ishlarini amalga oshiradi. Ular ilgari surayotgan gʻoyalar hanafiylik mazhabiga zid boʻlib, aqidaparast guruhlarining gʻoyalari singari dinda mutaassiblikni targʻib qiladi.

«Tabligʻchilar»ning Markaziy Osiyoga kirib kelishi 90-yillarning boshiga toʻgʻri keladi. Mustaqillikka erishgan respublikalarida dinga katta erkinliklar berilishi bilan birga, ayrim bizga qoʻshni boʻlgan mamlakatlarda demokratiya shiori ostida turli diniy sektalar rivojiga qonuniy zamin yaratib berildi. «Tabligʻchilar» ham bunday yaratilgan qonuniy imkoniyatlardan chetda qolmay, qoʻshni Qirgʻiziston va Tojikistonda keng targʻibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Natijada, birgina, Qirgʻizistonning oʻzida 2007-yilda 10 ming tabligʻchi faoliyat olib borgan boʻlsa, 2009-yilga kelib ularning soni 25-30 mingga yetdi.

«Tabligʻchilar» Markaziy Osiyoga kirib kelgan davrda Oʻzbekistonni ham chetlab oʻtmadi. Maʼlumotlarga koʻra, dastlab ular boshqa hududlarga kirib borishdagi usullar asosida yurtimiz diniy yetakchilari haqida maʼlumotlar yigʻib, dindorlar va yoshlarning ahvoli, hukumatning dinga munosabati haqidagi masalalarni oʻrganishgan. «Tabligʻchilar» respublikamizda dinga berilgan erkinliklardan foydalanib, dindorlar va yurtimiz musulmonlari orasida keng daʼvat ishlarini olib borishga intilishgan. Garchi, tabligʻchilar oʻz amaliyotlariga sirdan beziyon tus bersalar-da, mutaxassislarning taʼkidlashlaricha, ular oʻz faoliyatlari orqali boshqa oqimlar uchun zaxira yaratib beradilar.

«*Nurchilik*» (xalq tilida «Nurchilar» degan nom bilan ham mashhur) harakatiga Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlogʻida tugʻilgan, faoliyatining ilk davrlaridanoq diniy mutaassiblikka va keskin fikrlashga moyilligini namoyish etgan Said Nursiy (1876–1960) tomonidan asos solingan. U oʻziga Badiuzzamon (arabcha – «zamonaning buyugi», «be-

nazir») laqabini olib, Qur'oni karim oyatlarining sharhlari va diniy ko'rsatmalardan iborat «Risolai Nur» kulliyotini yozib tugatdi. «Nurchilik» hukumat tomonidan ta'qib qilingani uchun asar 1954-yilgacha biror bir nashriyotda chop etilmay, harakat faollari tomonidan qo'lda ko'chirilib, xalq orasida maxfiy tarqatildi.

1960-yil 23-martda vafot etgan Said Nursiydan so'ng harakat tarkibida uning shogirdlari nomi bilan ataladigan turli tarmoqlar vujudga keldi. Ularning ichida Fathulla Gyulen, Mustafu Sungur va Mehmet Kutlular rahnamoligidagi tarmoqlar nisbatan keng tarqaldi. Ular Turkiya shaharlarida ta'limotning asosiy manbai – «Risolai Nur»ga asoslangan dastlabki o'quv kurslarini ochishga muvaffaq bo'lishdi.

Oqim vakillari o'zlariga yangi a'zolari jalb etishda, birinchi navbatda, «nur»chilar jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni singdirishga harakat qiladilar. Aslida, bu bir niqob bo'lib, ularning faoliyati negizida aynan siyosatga aralashuv yotadi. Tashkilotning strategiyasi uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib, asta-sekinlik bilan yoshlarga panturkizm va mutaassib diniy g'oyalarni singdirish, kelajakda ularning rahbar lavozimlarga tayinlanishi orqali «Nurchilik» jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan. Harakat o'z faoliyatida «Risolai Nur» kitobida bayon etilgan g'oyalarga asoslanadi hamda undan boshqa barcha manbalar inkor etiladi.

Bu oqimning Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g'oyalari turkiyalik mutaassiblarning moddiy va ma'naviy ko'magida yetkazilgan. Ular tomonidan mintaqa mamlakatlarida 128 ta litsey ochildi. Litseylardagi ta'lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalanilgani ularning dovrug'i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi. Harakatning asl maqsadlari oshkor bo'lgach, 1999-yil uning faoliyati taqiqlanib, mamlakatimizdagi litseylar yopildi. Shuningdek, harakatga a'zolarining mamlakatdagi ikkinchi g'ayriqonuniy urinishlari sifatida tashkil etilgan o'quv markazlari, chop etilgan gazeta va jurnallar hamda teleko'rsatuvlar aniqlanib, ularning faoliyati ham tugatildi.

«*Islom jihodi uyushmasi*» – («Islom jehodchilari») «Turkiston islom harakati»dan ajralib chiqib, uning saflari asosan 90-yillarda ota-onalari bilan O'zbekistonni tark etgan jangarilarning o'smir yoshdagi farzandlaridan faol foydalanish hisobiga to'ldirilmoqda. Guruhning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hukumatiga qarshi chiqish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, terrorizm orqali «islomiy davlat» o'rnatishdan iborat. Mazkur uyushma O'zbekistonda faoliyati tugatilgan oqimlar a'zolari

tomonidan tashkil etilgan. Tashkilot a'zolari mamlakatda terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarini, g'ayridin va dinsizlarni yo'q qilib, «jihod» yo'li bilan «Islom xalifalik davlati» qurishni rejalashtirgan. 2009-yilda ular tomonidan Toshkent shahri, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida sodir etilgan qotillik va bosqinchiliklar natijasida 3 kishi halok bo'lgan, 24 fuqaro turli darajada tan jarohati olgan.

«*Iroq va Shom islom davlati*» («*ISHID*») – Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarini birlashtirgan tashkilot 2006-yil 15-oktabrda «Iroq islom davlati» nomi ostida Iroqda tuzilgan. Uning bosh maqsadi «islom xalifaligi»ni qayta tiklash va islom shariatini amalga tatbiq etishdan iborat. Suriyada kechayotgan mojarolarga mustaqil armiya sifatida kelib qo'shilgandan so'ng, 2013-yil 9-apreldan boshlab tashkilot «Iroq va Shom islom davlati» (ISHID) deb nomlandi. 2014-yil 29-iyunda tashkilot rahbarlari tomonidan Iroq va Shom (Suriya) hududida xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bag'dodiy xalifa ekani e'lon qilindi. Keyinchalik «ISHID» o'zini «Islom davlati» deb nomladi.

Hozirgi kunda Iroq va Suriyadagi janggari guruhlar tomonidan boshqaruv o'rnatilgan hududlarda na islomiy va na insoniy tamoyillarga to'g'ri keladigan qonunlar joriy qilinmoqda. Jumladan, xristian dini vakillaridan «jizya» solig'ini majburlab undirish, ularga xoch osib yurmaslik, ibodat vaqtida ovoz kuchaytirgichlardan foydalanmaslik kabi taqiqlar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, har qanday musiqiy disklar yoki musiqa asboblari ni sotish ham man etilgan. Diniy toqatsizlik, ayollar va bolalar huquqlarining poymol etilishi, taraqqiyot yutuqlaridan yuz o'girish, oddiy insonlar hayotiga tajovuz qilish avjiga chiqmoqda. Musulmon ayollarga nisbatan o'ta mutaassibona hukmlar joriy qilinib, ularni buzganlarga ayovsiz jazo metodlari qo'llanilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, «ISHID» tarkibiga qo'shilib, harbiy harakatlarda halok bo'lgan janggarilarning bevalari begona odamlar bilan qaytadan nikohdan o'tkaziladi. Bunday ayollar oldiga «jihodchilar tug'ib berish» vazifasi qo'yilgan. Hatto, bir yoki undan ortiq janggariga nikohlanib chiqishiga ham izn berilgan. Ayollar uy qamog'i sharoitida yashashga majbur etilib, qochishga harakat qilganlarga o'lim jazosi beriladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar o'z atroflariga asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, o'z Vatanini tark etishga da'vat etmoqda. Butun dunyo musulmon ulamolari «ISHID»ning faoliyatini tanqid qilib, harakat tomonidan e'lon qilingan xalifalik islom ta'limotlariga zid ekani va uni tan olib bo'lmasligini ta'kidlamoqdalar.

Ushbu qarashlarning barchasi islom dinining haqiqatini bilmaslik, uning matnlarini zohiran, yuzaki tushunish, mazmun-mohiyatini chuqur anglamasdan hukm chiqarish, Qur'on oyatlari va hadislarini o'z yo'nalishiga moslab sharhlashga asoslanadi. Jumladan, ular e'lon qilgan «shirk ko'rinishlarini, unga olib boruvchi vositalarni yo'q qilish» g'oyasiga ko'ra hozirda musulmon olamida shirkning turli ko'rinishlari mavjud degan qarash bo'lib, maqbaralar buzilib, qadimiy yodgorliklarni tashkil etuvchi haykallar, arxeologik topilmalar yo'q qilinadi. «ISHID» terrorchilik guruhi tomonidan 2015-yil mart oyida Iroqning al-Hamadaniya shahrida joylashgan binolar majmuasini talon-taroj qilingani, so'ng rohiblar monastiri hududiga o'rnatilgan portlovchi qurilmalarni harakatga keltirilgani buning yorqin isbotidir. Ma'lumot o'rnida al-Hamadaniyadagi rohibxona tarixiy yodgorlik bo'lib, Ossuriya shohi Sinakxerib tomonidan qurilgan edi. Bundan oldinroq «Tolibon» harakati janggarilar tomonidan ham Afg'onistonda miloddan avval barpo etilgan «Budda» haykalining portlatib yuborilganini ham misol qilish mumkin.

Shuningdek, dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Suriyadagi Palmira shahri ham 2015-yilning may oyida «ISHID» terrorchilari tomonidan bosib olindi. Janggarilarning tarixiy shaharni bosib olishi eramizdan avvalgi I–II asrlarga oid antik madaniyat yodgorliklariga jiddiy xavf solmoqda.

Bundan tashqari, 2015-yilning 22-mayida Saudiya Arabistonining, ash-Sharqiya viloyatidagi «Imom Ali» nomidagi shialar masjidida juma namozi paytida «ISHID» tashkiloti qarashli xudkush-terrorchi tomonidan kuchli portlash sodir etildi. Ma'lumotlarga ko'ra, bomba portlashi oqibatida kamida 20 kishi halok bo'lgan, 50ga yaqin kishi jarohat olgan. Ko'rinib turibdiki, ushbu buzg'unchi oqimlarning asl maqsadi «din» bayrog'i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarini sodir etish, jamiyatga har tomonlama zarar yetkazish orqali kishilar, ayniqsa yoshlar orasida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarini shakllantirishdan iborat.

Shunday ekan, diniy mutaassiblik va ekstremizmga qarshi kurashda faqat jazo choralarini qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish bilan barobardir. Bunday yo'ldan borilganda ularni oziqlantirib turgan «ildiz»lar beshikast qolaveradi, vaqt o'tishi bilan yangi «kurtak»lar yuzaga kelishda davom etaveradi. Demak, bunday manfur kuchlarga qarshi kurash va uni bartaraf etish ishlarida g'oyaviy tarbiya, xususan, kishilar ongida yuksak ma'naviyatni shakllantirish masalalariga yanada e'tiborni kuchaytirish darkor. Bunday

harakatlarga qarshi kurashish, yoshlar qalbini jaholat, yot g'oyalardan himoya qilishda profilaktika inspektorlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirish, eng muhimi «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **3.3. Profilaktika (katta) inspektorlarining xorijga ishlashga borayotgan va qaytib kelgan shaxslar bilan ishlash faoliyati**

O'tgan yillar davomida fuqarolarimizning uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Konstitutsiyamizning 28-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Shunga ko'ra, har yili mamlakatimizning minglab fuqarolari turli xil, jumladan ishlash, o'qish, davolanish, sayohat qilish va boshqa maqsadlar bilan chet ellarga borib kelmoqdalar. Shuni alohida aytish kerakki, uzoq muddatga ketganlar orasida diniy-ekstremistik oqimlar, terrorchi tashkilotlar va boshqa uyushgan jinoiy tuzilmalarning ta'siriga tushib qolayotganlari, o'ta og'ir va og'ir turdagi jinoyatlarni sodir etgan yoxud turli jinoyatlar, ayniqsa odam savdosining qurboniga aylanayotganlari ko'plab uchramoqda.

Shu bilan birga, hozirgi davr odam savdosiga qarshi kurashish, uzoq muddatga chiqib ketayotgan fuqarolar bilan ishlash, ularning chiqib ketish sabablarini aniqlash, qayerda va nima bilan shug'ullanayotganiga oydinlik kiritish ishlarini yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda fuqarolarimizning chet davlatlariga chiqib ketganligi, nima maqsadlarda yurganliklari, ulardan qanchasi doimiy yashash manzillariga qaytib kelganliklari bo'yicha aniq hisobotlar talab darajasida yuritilmayapti. Shu bois, MDH va boshqa chet el davlatlariga uzoq muddatga ishlash uchun chiqib ketgan fuqarolarning terrorchilik guruhlariga qo'shib ketayotganliklari to'g'risida ma'lumotlar olinayotgan bo'lsa-da, ushbu fuqarolar yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar ro'yxatiga kirmay qolgani holatlari ham mavjud.

Bu esa ichki ishlar organlaridan mamlakat fuqarolarining uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarini tartibga solishga doir faoliyatni samarali tashkil etishni talab qiladi. Shuni ham alohida ta'kid-

lash lozimki, bugungi kunda fuqarolarning qonuniy asoslarda uzoq muddatga chet elga ketish va kelishlari bo'yicha ular bilan tezkor-profilaktik suhbatlar olib borish, shuningdek, ularning hisobini yuritish mexanizmi samarali tashkil etilmagan.

O'z navbatida uzoq muddatlarga chet elga chiqayotgan fuqarolar bu haqda hududiy profilaktika (katta) inspektori yoki ichki ishlar organlariga xabar bermaydilar. Oramizda uzoq muddatga chet elga chiqqan yaqin qarindoshlari haqida tegishli idoralar yoki hududiy profilaktika inspektorlariga belgilangan tartibda ma'lum qiladigan fuqarolar ham kamdan-kam topiladi. Ushbu holat ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, xususan, hududiy profilaktika inspektorlaridan bunday toifa fuqarolarni, ularning qayerga va nima maqsadda ketganligini tezkor yo'llar bilan aniqlashni taqozo etadi. Xususan, aholi turar joylarida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari xodimlari, militsiya tayanch punktlari profilaktika (katta) inspektorlari, jinoyat-qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash (JQ va UJQK) xizmati, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish (XCHK va FR) xizmati xodimlaridan boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarini, ayniqsa ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni tizimli tashkil etishga qaratilgan bir qator vazifalarni amalga oshirishlarini talab etadi.

Shuni anglab yetgan holda hududiy profilaktika (katta) inspektorlari xorijga ishlashga borayotgan fuqarolarga tushunchalar berishlari maqsadga muvofiq.

***Birinchidan,*** bugungi kunda diniy ekstremizm hokimiyat uchun kurash, millatlararo janjallar va har xil siyosiy mojarolarni keltirib chiqarishda dindan siyosiy qurol sifatida foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Dinni qurol qilib olgan ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Masalaning yana bir taassufli jihati shundaki, terrorchi tashkilotlarning mutlaq ko'pchiligi muqaddas islom dinini o'ziga niqob qilib olgan.

***Ikkinchidan,*** keyingi yillarda diniy ekstremistik tashkilotlar o'z faoliyatiga ko'proq yoshlarni va ayollarni jalb qilish, terrorchi-kamikadzelardan foydalanish va mumkin qadar ko'proq qurbonlar bo'lishini nazarda tutgan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotganini qayd etish lozim. Ayni paytda diniy-ekstremistik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tashviqot yoshlarning soxta g'oyaga aldanib qolishi, yurt ravnaqi yo'lidagi faoliyatdan chalg'ishi, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

**Uchinchidan**, «din» niqobi ostidagi ekstremistik uyushmalar tarafdorlari o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun har qanday ko‘rinishdagi zo‘rluk ishlatishni, shu jumladan, terroristik (qurolli kurash) yo‘llari bilan amalga oshirishni, kuch ishlatish orqali hokimiyatni ag‘darib tashlashni targ‘ib qiladilar. Ularning jamiyat uchun o‘ta xavfliligi shundaki, ular faqat g‘oyalarini targ‘ib qilishning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, niyatlarini amalga oshirish uchun g‘oyat qat’iyatlik bilan, zo‘rluk ishlatishning har qanday ko‘rinishidan foydalangan holda harakat qiladilar. Bu yo‘lda har qanday o‘ta og‘ir jinoyatlar – odam o‘ldirish, odamlar orasida qirg‘in solish, turli vahimalar tarqatish, qurolli hujumlar uyushtirish, fitna tashkil qilish, bosqinchilik, qo‘poruvchilik, terrorchilik xurujlari va hokazo harakatlardan foydalanadilar.

**To‘rtinchidan**, alohida mavjud tuzumdan norozilik, o‘rnatilgan konstitutsiyaviy tuzumga bo‘ysunmaslik kabi kayfiyatlarni qo‘zg‘atishga harakat qiladilar. Natijada, butun jamiyat tizimini izdan chiqarish va shundan foydalanib hokimiyatni qo‘lga olishni maqsad qiladilar.

**Beshinchidan**, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, turli diniy ekstremistik oqimlar diniy-siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda dindan foydalanmoqdalar. Ular aholisining asosiy qismi musulmon diniga e‘tiqod qiladigan davlatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham o‘zlarining fundamentalistik, separatistik, ekstremistik g‘oyalarini islomiy qoidalar sifatida targ‘ibot qilmoqchi bo‘ladilar.

**Oltinchidan**, afsuski, oxirgi paytlarda terroristik xurujlar ko‘p hollarda islom bayrog‘i ostida uyushtirilmoqda. Ularning g‘oyaviy maqsadi – o‘rta asrlarga qaytish, barcha musulmonlarni birlashtiruvchi xalifalik davlatini barpo etish, jamiyatda islom shariati tartiblarini o‘rnatishdir.

**Yettinchidan**, diniy ekstremizm hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarda namoyon bo‘lib, u juda qadimiy ildizlarga ega va hych qachon chegara bilmagan, millat, hududni tan olmagan, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatmasin, o‘z maqsadlariga nizolar, ixtiloflar, qurolli to‘qnashuvlar, qon to‘kish va zo‘rluk bilan erishishni ko‘zlaydilar.

Umuman olganda, fundamentalistik va separatistik hamda ekstremistik diniy oqimlarning maqsadi bitta – siyosiy hokimiyatni har qanday yo‘l bilan qo‘lga olish va o‘sha hududda o‘z hukmronligini o‘rnatishdir.

Prezidentimiz Islom Karimov, «Turkiston-press» axborot agentligi muxbiri bilan bo‘lgan suhbatda: «Biz o‘z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni yo‘qotamiz, din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu

qadar singib ketganki, uni hyech kandy tashviqot bilan chiqarib bo‘lmaydi. Men O‘zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar muqaddas Islom dinimizni, ota-bobolarimiz e‘tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashga, jamiyatimiz hayotiga xavf tug‘dirishiga hyech qachon yo‘l qo‘ymayman».

Buzg‘unchi dunyoqarashning tub negizida bilimsizlik, ya‘ni g‘oyasizlik yotadi.

*G‘oyasizlik* – insonlar, ijtimoiy guruhlar tafakkuri va ongida muayyan bilimlarga asoslangan fikrlarning yo‘qligi. G‘oyasizlik odatda hali o‘zligini anglab yetmagan, o‘z manfaat va imkoniyatlarini ifoda eta olmaydigan, maqsad-muddolari va hayotiy qadriyatlarni anglab yetmagan kishilarda uchraydi. Ma‘naviyati tuban, imon-e‘tiqodi sust, mafkurasi buzuq kimsalarni yuzaga keltiradi. O‘z o‘tmishi va nasl-nasabini bilmaslik, tarixiy xotirani unutish ham g‘oyasizlikning bir ko‘rinishidir.

*G‘oyaviy bo‘shliq* hosil bo‘lishining sabablaridan biri jamiyatda siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o‘z holiga tashlab qo‘yilganligidadir. G‘oyaviy bo‘shliq hosil bo‘lgan joyda, albatta, xalq manfaat va qiziqishlariga begona bo‘lgan turli xil g‘arazli mafkuralar o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshlaydi.

*G‘oyaviy tajovuz* – muayyan bir jamiyat, davlat, ijtimoiy qatlam ongi va ruhiyatiga tashqaridan o‘tkaziladigan mafkuraviy ta‘sir, g‘arazgo‘y maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan mafkuraviy bosqinchilik.

Hozirda keskin tus olib borayotgan globallashuv jarayonlarida g‘oyaviy tajovuzlarning turli-tuman ko‘rinishlari hamda ta‘sir etish usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Qurolli kuch bilan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshira olmayotgan ekstremistik va terroristik guruhlar tobora mafkuraviy tajovuz yo‘liga o‘tmoqdalar. Bunday tajovuzlarga mamlakat ahli faqat umuminsoniy g‘oyalar va demokratik tamoyillarga asoslangan sog‘lom mafkura bilan qarshi tura olishi mumkin.

Buzg‘unchi mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar madaniyatining yemirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo‘lgan, ko‘plab xalqlarni o‘z yo‘lini o‘zi tanlash huquqidan mahrum etgan. Buzg‘unchi mafkuraning salbiy ta‘siri natijasida shaxs mustaqil fikrlashdan mahrum bo‘lishi va keyinchalik kamikadze, zombi, manqurtga aylanishi mumkin.

Afsuski, bugungi kunda oila tashvishlari, pul ishlash yoki boshqa maqsadlarda xorijga borayotgan fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning – ekstremistik tashkilotlarga jalb etilayotilgani achinarli holdir.

Yoshlarning faol ijtimoiy kuch ekani ularning turli mafkuraviy ta‘sir va tazyiqlarning bosh obyektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning



jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning diniy ma'lumotning yetishmasligi, uni egallashga bo'lgan qiziqish va intilish hamda ishonuvchanlik, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilish, ilmiy tilda aytganda, maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflilik qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Yoshlarning diniy ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib, turli terrorchilik amaliyotlari ishtirokchisiga aylanib qolishlarining asosiy sababi – ularning na diniy, na dunyoviy bilimga egaliklari, sof islom ta'limotini bilmasliklaridir.

Ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, yoshlarni turli ekstremistik oqimlar va missionerlik sektalariga kirib qolishining oldini olish bo'yicha tadbirlar davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilsa, samarali natijalarga erishish mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ekstremistlar o'z maqsadlari uchun asosan yosh yigit va qizlarni tanlaydilar. Xo'sh, nega aynan yoshlar va ayollar?

Chunki, aynan ana ular yurt kelajagi, millatning ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradilar. Shu o'rinda o'smirlar tashqi ta'sirlarga ko'proq moyil bo'lishini alohida qayd etish lozim. Muayyan hollarda hayotdagi orzu-maqsadlarga mustaqil erishish harakatlarining hamma vaqt ham amalga oshavermasligi oqibatida yoshlarda infantillik (o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilish)dek xususiyat shakllanishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda ularning «oliy maqsadlarga intilayotgan men kabi kishilar yoki jamoa mavjud», – degan tasavvur paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Shunda ular o'zlarining maqsad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar.

Mutaassib g'oyalar domiga tushib qolgan shaxslar oilasidan, jamiyatdagi o'rnidan, hatto, hayotidan ajramoqdalar. Bunday shaxslarni har qanday topshiriqni hech ikkilanishsiz bajarish darajasiga olib kelish uchun esa sinalgan uslublardan foydalanmoqdalar. Jumladan, «oz-ozdan» texnologiyasida faqat birgalikda namozga borish, dam olish kunlarini birga o'tkazish, faqat bir hafta kechqurunlari birga diniy adabiyot o'qish, jamoaning yig'inlarida qatnashish, faqat bir marta varaqa tarqatish kabi kichik

iltimoslar orqali yollanayotgan shaxsni jiddiy yonbosishga majbur qilish yoʻlidan boriladi.

Shuningdek, doimiy «miya yuvish» vositasida jamoaning gʻoyalarini amalga oshirish yollanayotgan kishining shaxsiy qiyinchiliklari va jamiyatdagi muammolarni hal etishning eng maqbul yoʻli, degan qarash tinmay uqtirib boriladi.

Soʻngra «guruhiy taʼsir etish» uslubi qoʻllaniladi. Bunda jamoaning barcha aʼzolari yangi aʼzoni turli tomondan yagona gʻoyaga yoʻnaltirilgan fikrlar bilan «koʻmib» tashlaydi. Ayni paytda yollanayotgan shaxsga be-tinim yangidan-yangi maʼlumotlar berish va oʻz fikrlari bilan yolgʻiz qoli-shiga yoʻl qoʻymaslik orqali unda eʼtiroz bildirish yoki bahslashishga imkon qoldirmaslikka harakat qilinadi va bir paytning oʻzida unga nisba-tan jamoa tomonidan faqat shirin soʻzlar gapirilib, u haqda gʻamxoʻrlik, aksariyat hollarda moddiy yordam ham koʻrsatiladi.

Shuni ham taʼkidlash kerakki, kishi «oʻzimni nazorat qila olaman va xohlagan vaqtimda jamoadan chetlasha olaman», – degan xayoldan uzoq boʻlishi lozim. Chunki, aksariyat mutaassib oqimlar yangi tarafdorlarni yollashda ruhiy taʼsirning yuqoridagi kabi usullaridan faol foydalanadilar va ortga qaytishga deyarli imkon qoldirmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, diniy-ekstremistik tashkilotlar dunyo mamla-katlariga jiddiy tahdid solib, islomning «yovuzlik saltanati» sifatida qabul qilinishiga, «islomofobiya»ning turli koʻrinishlari paydo boʻlishiga ham zamin yaratmoqda. Qayd etilgan holatlar diniy ekstremizm va terrorizm kishilik jamiyatining nafaqat bugungi kuni, balki istiqboliga ham xatar solayotgan omilga aylanganini, insoniyat bir butun vujud sifatida qarshi kurashga kirishgandagina uni yenga olishi mumkinligini koʻrsatadi.

### **3.4. Mutaassiblikka qarshi kurashda Ommaviy axborot vositalarining oʻrni**

Axborot texnologiyalar shiddatli rivojlanish davrida diniy mutaassib-lar oʻzlarining Internet saytlarida va ijtimoiy tarmoqlarda din niqobi ostida igʻvo, fitna va yolgʻon maʼlumotga asoslangan axborotlarni muntazam ravishda chop etib boryaptilar. Ularning tarqatayotgan maʼlumotlariga nazar soladigan boʻlsak, dinning asl mohiyatidan bexabar boʻlgan yosh qatlam ruhiyati hamda dunyoqarashiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan igʻvo va ixtilofga chorlovchi gʻoyalarni singdirishga urinmoqda. Bunday xunuk holatning oldini olish maqsadida profilaktika inspektorlari oʻzlariga birik-tirilgan hududlarda mutaassiblikka moyil boʻlgan shaxslar bilan suhbatla-shib, ularning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatlarini oila aʼzo-

lariga, mahallasiga va mamlakat obro'siga qay darajada putur yetkazishi haqida aytib o'tishlari maqsadga muvofiqdir. Mutaassib g'oyalarga mukasidan ketgan shaxs diniy, milliy va ijtimoiy asosda adovatni keltirib chiqaruvchi holatlarni yuzaga keltirsa, uning dunyoqarashini batafsil o'rganib chiqish lozim bo'ladi.

Shuni bilish muhimki, aksariyat yoshlarda taassubga moyillik internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali singdirilmoqda. Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlarning ham keskin ommalashuvi kuzatilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda 2,078 mlrd. kishi (Yer aholisining 29 foizi) ijtimoiy tarmoqlarda doimiy faol hisoblanadi.

2015-yilga kelib turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni quyidagicha: «Facebook» da 1,36 mlrd., «Instagram» da 300 mln., «Twitter»da 280 mln., «Odnoklassniki»da 250 mln., «Vkontakte»da 230 mln., «WhatsApp»da 700 mln., «Viber»da 200 mln., «Telegram» 50 mln. kishini tashkil etmoqda.

Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarida mutaassiblikka yo'g'rilgan ma'lumotlar va maqolalar soat sayin ortib bormoqda. Ularni aniqlab olish uchun foydalanayotgan va targ'ib qilinayotgan axborot resurslariga alohida e'tibor berish zarur. Masalan, mutaassib shaxslar din borasida o'z qarashlaridan farqli kimsalarga xoin, kofir, murtad, mushrik va yahudiy (etnik xususiyatga ega bo'lgan so'z) kabi tushunchalarni muntazam ravishda qo'llab keladilar. Shu bilan birga, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bo'rttirgan holda, keskin tanqidiy baho berib, amaldagi tuzumga salbiy munosabat bildiradilar hamda unga nisbatan qarama-qarshi g'oyalar targ'ibotini amalga oshiradilar. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar orqali suhbatdoshning ruhiyatiga ta'sir o'tkazadigan mutaassib g'oyalarni singdirishga alohida e'tibor qaratishadi. Ular inson ongiga ta'sir etadigan va hissiyotlarni to'lqinlantirish uchun video-yozuvlar, qo'shiqlar, nashidalar, ta'sirchan hikoya va she'rlar orqali g'arazli g'oyalarni singdirib borib, o'z saflariga jalb qilishga intiladilar. Mutaassiblik g'oyalari asoslangan tezkor axborotlar, yangiliklar bir vaqtning o'zida bir necha tillarda yoritib borilishi terrorchi guruhlar uchun targ'ibot borasida global ko'lamdaxborot urushini ochish uchun ancha qo'l kelmoqda.

Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi.

Bugungi kunda internet g'oyaviy kurash va targ'ibotning asosiy maydoniga aylanganini ekstremistik va terroristik qarashlarni targ'ib qilishdagi o'rni misolida ham ko'rish mumkin.

Bunday internet saytlari to'satdan paydo bo'ladi, vaqt o'tgach yo'qoladi, mazmunini o'zgartirmagan holda, nomlanishi va domenini tez-tez o'zgartirib turadi. Internet quyidagilari bilan terroristlar uchun qulay hisoblanadi:

- *internetga kirishning osonligi;*
- *foydalanuvchilar sonining ko'pligi;*
- *aloqaning anonimligi;*
- *tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklangani;*
- *axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi;*
- *faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi.*

Terrorchilar Internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- *targ'ibot va tashviqot maqsadida ma'lumot tarqatish;*
- *yangi a'zolari yollash (verbovka);*
- *a'zolik va xayriya badallarini yig'ish hamda ulardan foydalanish;*
- *tarmoq va shoxobchalar tashkil etish;*
- *terrorchilarni o'qitish, ko'rsatmalar berish;*
- *razvedka va ma'lumot qidirish;*
- *yangi terrorchilik harakatlarni rejalashtirish va boshqarish.*

Ekstremistik mazmundagi saytlarda mafkuraviy faoliyatini oqlovchi, qahramonligini kuylovchi qo'shiqlar, kliplar emotsional ta'sir quvvatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur holatlarni inobatga olib, profilaktika inspektorlari g'arazli maqsadda dinni targ'ib qiluvchi firqalar bilan oddiy e'tiqod qiluvchilarni ajratib olishlari zarur bo'ladi. Mutaassiblar bilan suhbatlashish davomida yoki olingan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish jarayonida hukumatni ag'darish, terrorchilik amaliyotlari orqali odamlarni dahshat va qo'rquvda ushlab turishga qaratilgan g'oyalari ko'zga tashlanishi mumkin. Mutaassib guruhlarining g'oyaviy materiallarini o'rganib chiqish mobaynida quyidagi holatlarga e'tibor berib, ularning maqsadini anglab olsa ham bo'ladi. Jumladan:

- diniy mavzudagi manbalarda milliy, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab aholi guruhlariga nisbatan adovat, murossasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy qadr-qimmatni kamsitishga, fuqarolarning his-tuyg'ularini haqoratlashga qaratilgan g'oyalarning mavjudligi;

- zo'ravonlik va jismoniy harakatlarga chorlovchi chaqiriq va da'vatlarning mujassamligi;

- urush va harbiy yo'llar bilan diniy mafkurani jamiyatda o'rnatishga qaratilgan g'oyalarga asoslanganligi;

- qirg'in solishga yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan g'oyalarga asoslanganligi;

- O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof ravishda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga qaratilgan g‘oyaviy yondashuvlardan iborat.

Ta’kidlash lozimki, yosh avlodni mutaassib g‘oyalardan himoya qilish uchun Ommaviy axborot vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Asosan, televideniye, internet, radio, gazeta-jurnallar va rasmiy elektron nashrlar orqali dinni noxolis targ‘ib qiladigan guruh va jamoalarga qarshi g‘oyaviy kurash olib borish hamda ishonchli manbalarga asoslangan raddiyalarni ko‘paytirish lozimdir. Bu borada yurtimiz allomalarining mo‘tadillik ruhida yozilgan ilmiy meroslari biz uchun eng muhim dastak bo‘la oladi.

Afsuski, so‘nggi yillarda terrorchilik tashkilotlari g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan va g‘oyaviy jinoyatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo‘lsa, bugungi kunda dunyoda terrorchilar foydalanadigan 10 mingdan ortiq internet saytlari mavjud. Ularga xizmat ko‘rsatuvchi portallar soni kun sayin ortib bormoqda. Bundan tashqari, ularning maqola va ma’lumotlari ijtimoiy tarmoq sahifalarda har kuni chop etiladi hamda tarqatiladi. Bu esa yurtimiz aholisi, ayniqsa yoshlarni internet va boshqa axborot vositalari orqali o‘z ta’sir doirasiga olishga intilayotgan g‘arazli kuchlar ta’siridan asrab qolishning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganini ko‘rsatadi.

Masalaning shu jihatiga e’tibor bergan holda respublikamizda aholini, ayniqsa, yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, turli ekstremistik guruhlar domiga tushib qolishlarining oldini olish va internet tizimidan foydalanishning sog‘lom muhitini yaratish maqsadida bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida» (2010-yil), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi (2014-yil) Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-martdagi «O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 137-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari davlat qo‘mitasining 2004-yil 23-iyuldagi «Jamoat foydalanish joylarida Internet tarmog‘idan axborot olish imkonini berish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 216-sonli buyrug‘i, Toshkent shahar hokimining 2015-yil 5-fevraldagi «Toshkent shahrida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tad-

birlar to'g'risida», «Toshkent shahridagi kompyuter zallarida Internet tarmog'idan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari shu yo'nalishdagi huquqiy hujjatlar sirasiga kiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda voyaga yetmagan shaxslarning dars va tungi vaqtlarda ota-onasidan biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs kuzatuviz Internet kafelarga kirishi taqiqlanadi. Bu qoidaga amal qilmaslik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 188<sup>2</sup>-moddasiga asosan eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Internet tizimidagi axborotlardan foydalanayotgan har bir foydalanuvchi «Bu axborotni kim uzatyapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatyapti?» degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Respublikamizda qaror topgan bag'rikenglik muhitini ommaga xolis ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy mutaassiblar tomonidan targ'ib qilinayotgan aqidaviy da'volarga manbalar asosida ilmiy raddiyalar berish, diniy ekstremizm g'oyalarning jamiyatga tahdidi, mutaassib g'oyalar zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, islomni buzib talqin qilayotgan mutaassiblarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan maqolalar Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlar idorasi hamda Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazining veb-sahifalarida tizimli joylashtirib boriladi. Mazkur holatni inobatga olgan holda, mutaassiblikka qarshi kurashishda, avvalambor, OAV orqali kurashish yuqori samaradorlikni ta'minlab berishini alohida qayd etish zarur.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, globallashuv jaryonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrashda profilaktika inspektorlari quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishlari zarur:

– mustaqil fikrga ega, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiyalash, yoshlar qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirish orqali har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish;

– mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash, islom dinini o‘rgatishni va’da qilayotgan shubhali shaxslar bilan muloqot qilmaslik, noqonuniy tarzda chop etilgan yoki tayyorlangan diniy mazmundagi adabiyot, disk, mobil telefonlardagi materiallardan foydalanmaslik va olib yurmaslik, internet tizimida diniy ekstremizm, terrorizm va missionerlikni targ‘ib qiladigan saytlardan yoshlarni muhofaza qilish;

– diniy mavzuda qiziqtirayotgan ma’lumotlarni faqat «.uz» domenida rasmiy faoliyat olib borayotgan davlat va diniy tashkilotlar saytlari ([www.tiu.uz](http://www.tiu.uz), [www.religions.uz](http://www.religions.uz), [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz) va h.k.)dan olish;

– diniy ekstremistik saytlarga kirmaslik; bunday saytlarning alomat-lari: joylashtirilgan materiallarda «hijrat» va «jihod» ga da’vat qilish, dunyoviy hukumat va tuzumlarni kofirlikda ayblash, umumhalq bayram-lari, tavallud kunlarini nishonlashni harom deb e’lon qilish, Afg‘oniston, Pokiston, Iroq, Suriya kabi mamlakatlardagi janggarilarni maqtash. Shu-ningdek, Muhammad Abdulvahhob, Ibn Taymiya, Nosiriddin Alboniy, Sayid Qutb, Ayman az-Zavohiriy, Usoma bin Lodin, «Abduvali qori», «Obid qori», «Rafiq qori» kabi aqidaparast shaxslarning kitob va fatvo-larining mavjudligi;

– ijtimoiy tarmoq saytlari, forumlarda diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib, suhbatga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni tanqid qilib, diniy turmush tarzini mutaassibona da’vat qilayotgan shaxslar bilan umuman aloqa qilmaslik;

– elektron pochta orqali noma’lum shaxslardan kelgan diniy maz-mundagi da’vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuboril-gan elektron materiallarni yuklab olmaslik;

– mobil qo‘l telefonlariga ma’naviy-axloqiy xislatlarni buzuvchi, zo‘ravonlik, shafqatsizlik va pornografik, shuningdek, reaksiyon-sektant, soxta diniy mafkurani targ‘ib qiluvchi, atrofdagilarni salbiy harakatlarga undovchi materiallar, mutassiblik ruhidagi nashidalar (qo‘shiqlar), ma’ruzalar, suratlar, video-roliklarni yuklab olmaslik va tarqatmaslik.

– axborot almashinuvi jadal kechayotgan bugungi davrda diniy masa-lalarga oid ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish va unga e’tiqod qilishga shoshilmaslik hamda axborot xurujlari asiriga aylanmaslikni yoshlar orasida keng tavsiya va targ‘ib qilish;

– yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha’nini ardoqlash kabi ulug‘vor fazilatlarni kamol toptirishda oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligida profilaktika inspektorlari faolligini oshirish;

– fuqarolarda diniy bag‘rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, o‘zaro birodarlik, millatlararo totuvlik, qarindoshlik tuyg‘ularini shakllantirish, mahalla aholisi o‘rtasida dinlararo turli ziddiyatlarni yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borish;

– mahallalardagi notinch, noqobil oilalar yoki diniy mutaassiblikka moyil shaxslar bilan tushuntirish ishlarini olib borishda hayotiy tajribaga ega bo‘lgan mahalla faollari, mahallada obro‘-e‘tibor qozongan kishilar, mahalliy masjidlarda faoliyat yurituvchi imom-xatiblar, shuningdek diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilar, tumanlardagi bosh imom-xatiblarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha yordamchilarini jalb etish;

– aholi o‘rtasida din haqida noto‘g‘ri salbiy tushuncha va tasavvurlar uyg‘onishining oldini olish maqsadida aqida, ibodat va boshqa diniy masalalarga oid yuzasidan tug‘ilganda O‘zbekiston musulmonlari idorasi ulamolari, ularning viloyatlardagi vakillari, mahalliy imom-xatiblar va diniy soha mutaxassislariga murojaat qilish.

Profilaktika inspektorlari tomonidan dinni niqob qilgan holda turli g‘arazli g‘oyalarni ilgari surayotgan mutaassib shaxslarni aniqlash, ular bilan muntazam ravishda soha mutaxassislari bilan hamkorlikda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish kerak. Natijada, mutaassib shaxslar ongida muayyan ijobiy o‘zgarishlarga erishish va ularni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishda samarali yutuqlarni qo‘lga kiritish mumkin.

### **3.5. Ayollarni mutaassib shaxslar ta‘siriga tushirayotgan omillar**

Din insonlar hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. Uning yaratuvchilik va bunyodkorlik, uyushtiruvchilik va yo‘naltiruvchilik salohiyati hamisha jamiyat rivoji, inson kamolotiga xizmat qilgan. Ayni paytda, insoniyatning ko‘p asrlik tarixi dindan niqob sifatida foydalanish, undagi g‘oyalarni vayronkorlik ruhida talqin etish odamlar boshiga ko‘plab kulfatlar keltirganini ko‘rsatadi. Afsuski, bugungi kunda ham biz mana shunday jarayonlarga guvoh bo‘lmoqdamiz.

O‘z manfur niyatlarini amalga oshirishda islom dini niqobi ostida faoliyat olib borayotgan ekstremistik tashkilotlarning aksariyati amaldagi mavjud qonuniy tuzumni beqarorlashtirish, hokimiyatga qarshi ommaviy namoyishlar tashkil etish, davlatni boshqarib turgan rahbarlarni hokimiyatdan chetlashtirish rejasini «takfir», «hijrat», «jihod» va «shahidlik» g‘oyalari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishga intiladilar.

Achinarli jihati shundaki, ushbu tashkilotlar o‘z faoliyatiga erkaklar bilan bir qatorda, ayollarni ham jalb etib, terrorchi «shahid»lardan foyda-



lanish va imkon qadar qurbonlar sonini ko'paytirishni ko'zlagan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqdalar.

Zamonaviy terror olamida xudkushlik, terrorchi-kamikadze, o'zini portlatish orqali qurbon qilish, «shahid» kabi iboralar kundalik hayotimizga kuchli shiddat bilan kirib kelmoqda va ushbu amaliyot, afsuski, aynan islom niqobidagi radikal tashkilotlar tajribasida ayollarga nisbatan ishlatilishi kuzatila boshlandi.

G'arazli maqsadlardagi tashkilotlar o'z g'oya va maqsadlarini amalga oshirishda ayollardan bevosita asosiy qurol sifatida foydalanmoqda. Shu bilan OAV va keng jamoatchilik orasida o'zini portlatish orqali qurbon bo'layotgan ayollarga nisbatan qiziqish uyg'otishga harakat qiladilar. Shuningdek, ayollarning «shahid»likni amalga oshirishlari safdosh erkaklarning «jangovor ruhini» yanada ko'tarishga xizmat qiladi, deb uqtiradilar. Ammo soha mutaxassislarining tahlillariga ko'ra, ayollar guruh vakillari ilgari surayotgan siyosiy va mafkuraviy maqsadlar bilan kam hollarda qiziqadilar va «biror narsa yo'lida» emas, aksar hollarda «biror narsa uchun» kurashadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'zini portlatish orqali qurbon qilish amaliyotidan «Tolibon» harakati, «al-Qoida», «HAMAS», «Hizbulloh», «Tamil-Ilamni ozod etish yo'lbarlari», Shimoliy Kavkazdagi «Jihadchilar» kabi 17 ga yaqin terrorchi guruhlar foydalanib kelmoqda.

O'zbekiston hududida g'ayriqonuniy faoliyat olib borayotgan turli diniy ekstremistik oqimlarning o'z saflariga ayol-qizlarni jalb qilish jarayoni va ularning bu g'ayriqonuniy tashkilotlar faoliyatida borgan sari faol ishtirok etayotganlarini o'rganish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri ekani hech kimga sir emas. Bunday oqim a'zolari aksariyat hollarda o'zlari a'zo bo'lgan uyushmaga, avvalo, o'z ayollari, onalari va opa-singillari, shuningdek, jazoni ijro etish joylarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning yaqinlarini jalb etmoqdalar. Jumladan, erkaklar o'zining diniy ilmlardan bexabar, har ishda itoatkor ayoliga turli oyat va hadislarni noto'g'ri talqin qilishlari, qo'poruvchilik harakati uchun jannat bilan mukofotlanishini va'da qilishi, ayolning jannatga kirishi erning roziligiga bog'liq ekani doimiy uqtirilishi oqibatida, ayollarning o'zini va begunoh kishilarni o'ldirib, jinoyatga qo'l urishlari aniqlangan.

Masalaning xatarli jihatlaridan biri shuki, ayollarni boshqarish erkaklarga qaraganda osonroq va ular ongini zaharlash ham terrorchilar uchun ancha yengil hisoblanadi. Chunki, erkak kishida o'zini ehtiyot qilish hissiyoti ayollarga nisbatan kuchliroq rivojlangan. Ayrim ayollar o'zlariga nisbatan bo'layotgan nohaqliklar, past nazar yoki «oddiy buyum» sifatida

bo'layotgan muomaladan norozi bo'lib, yashayotgan yoki kelajakda yashaydigan hayotlaridan qutulish maqsadida ekstremistlar qurboniga aylanmoqdalar. Psixologlarning fikriga ko'ra, g'araz niyatli kimsalar ustomonlik bilan foydalanayotgan ayollargagina xos qator xususiyatlar mavjud:

- 1) bo'ysunuvchanlik – oilada ota-ona, aka-ukalarga itoatkorlik;
- 2) biror xatti-harakatga nisbatan ichki tayyorgarlikning qat'iy emasligi – shoshib qaror chiqarish;
- 3) tashqi ta'sirga tez beriluvchanlik – hissiyotning aqldan ustun kelishi, ayollar tashqi ta'sirlarni hissiy ong bilan qabul qilishlari;
- 4) axborot olishga bo'lgan qiziqishning ustunligi, – ayol har qanday shov-shuvli ma'lumotlarga qiziquvchan bo'ladi va shov-shuvli axborotlarni tarqatish orqali o'z ijtimoiy faolliklarini namoyish qilishga harakat qilishi;
- 5) ijtimoiy munosabatlarga kirishishga bo'lgan xohish va ehtiyojning kuchliligi – ko'cha-kuyda yangi tanishlar orttirish, ular bilan suhbatlashish;
- 6) ko'pchilikka bevosita ta'sir o'tkaza olishi;
- 7) ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi ruhiy zarbalarga uchragan inson o'z qadriyatlar tizimini o'zgartirishga majbur bo'ladi va aynan ular mutaassiblar uchun zarur insonlardir;
- 8) insonga tabiatan taqiqlangan yoki noma'lum har qanday narsa va hodisaga intilish hissi berilgan, ayollarda aynan shu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi;
- 9) aksar hollarda reallikdan ko'ra xayolot olamining ustunligi;
- 10) hayotda o'z o'rnini topa olmaslik, ya'ni o'z «men»ini anglamaslik yoki mutlaq inkor etish;
- 11) muammoli hayotdan qutulishning eng maqbul yo'li o'zlari kabi muammolarga ega guruhga qo'shilish, deb hisoblashlari.

Ayollarning tabiiy xususiyatlaridan tashqari, ularning aynan bu kabi harakatlar qurboniga aylanishiga sabab bo'luvchi omillar turlicha. Xususan, ularning na diniy va na dunyoviy ilmlarni yetarli darajada o'zlashtirganlari, din niqobi ostidagi ekstremistik harakatlar haqida to'liq tasavvur va sof islomiy munosabatni bilmasliklari asosiy omil sifatida ko'riladi.

Ekspert va mutaxassislarning fikricha, hozirgi kunda ayrim hududlar uchun dolzarb muammolardan biri bo'lib borayotgan ayollarning ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib qolish holatlarida O'zbekistonga chegaradosh qo'shni davlatlarning sezilarli ta'siri bor. Bundan taxminan 5-10 yillar ilgari ekstremistik guruh va oqimlar ta'siriga tushish ko'p hollarda erkaklarda kuzatilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu holat yurtimiz ayollari orasida ham tarqalayotgani achinarli holdir. Ayollarning pul topish maqsadida xorijga chiqib ishlashlari yoki aksincha, yurtimizga ishlash

uchun kelgan ayollardan foydalanish ham radikal oqim vakillari uchun qo‘l kelayotgan sabablardan biridir. Ayolning uyi va yaqinlaridan ancha yiroqda, o‘zi uchun notanish bo‘lgan insonlar bilan yashashi uning radikal oqimlar ta’siriga tushishga keng imkon yaratib bermoqda.

Bu kabi guruh vakillarining zamonaviy fan-texnika yutuqlari, jumladan, uyali aloqa vositalari va internet imkoniyatlaridan razil maqsadlarini amalga oshirishda ustomonlik bilan foydalanadilar. Ularning aksariyati internetda o‘z sahifalari orqali ayollarni ochiqdan-ochiq «jihod»ga da’vat etsalar, yana bir guruhi «xayriya ishlari» niqobi ostida targ‘ibot-tashviqot bilan shug‘ullanadilar.

Mutaassib shaxslarning asosiy maqsadlari – ularning g‘oyalariغا sodiq manqurtlar sonini oshirish bilan o‘z vazifalarini ularga yuklash va amalga oshirayotgan «savob» ishlarini imkon boricha sezdirmasdan olib borishdir. Xususan, «Hizb ut-tahrir» diniy ekstremistik oqim vakillari ayollar uchun alohida guruhlar tashkil etib, unga asosan, guruh a’zolarining turmush o‘rtoqlari, yaqin qarindoshlari va ekstremistik g‘oyalarni tarqatgani uchun jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarning yaqinlari kiradi. Guruhda erkaklar qatori ayollar ham barcha qoidalarga rioya qilishlari hamda quyidagi talablarni bajarishlari lozim:

– ayollar tizimini to‘ldirish faqat «noqiba» yoki uning yordamchisi («jihoz a’zosi»)ning taklifi bilan amalga oshiriladi;

– bo‘linma va «jihoz» faqat ayollardan tashkil topishi kerak, erkaklar bo‘linmadagi ayollarning yaqin qarindoshlari bo‘lsagina, ushbu bo‘linmani boshqarishi mumkin;

– ayollar hech qachon «amir», «mo‘tamad», «mas’ul» yoki «moliyaviy mas’ul» bo‘la olmaydi, guruhning boshqa lavozimlariga tayinlanmaydi;

– ayollar erkaklar ishtirokida o‘tkaziladigan tadbirlarga qatnashmaydi.

Terrorchilik tashkilotlarga jalb qilingan ayollarning guruh ichida bajaradigan vazifalari serqirra va muhim hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, mutaassib ayolning jamoa ichidagi vazifalarini uch turkumga ajratish mumkin:

1) «Onalik burchi» – ona sifatida yosh farzandlari ongida mutaassiblik urug‘larini undira boradi. Jamoada terrorchilik faoliyati uchun «munosib» o‘rinbosarlar tayyorlab boradi.

2) «Yangilarini jalb qila olish mahorati» – hamfikir, dardkash qo‘shni, amma, xola, singil, opa, ona, murabbiya sifatida jamoaga yangi ishonuvchan zaifalarni tortib keladi.

3) «Targ‘ibot quroli» – kommunikatsiya vositalari rivojlanib ketishi natijasida ayol kishi ayrim oqimlar qo‘lida targ‘ibot quroliga, keyin esa

qurboniga aylanmoqda. Ayrim oqimlar odamlar e'tiborini tortish uchun aynan ayol kishining qurol ko'tarib mashq qilishi, shahidlik belbog'ini bog'lashi, o'zini portlatishi oldidan aytgan so'zlari tushirilgan roliklarni ommalashtirish yo'lidan bormoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, diniy ekstremistik oqimlarga a'zo ayollar, avvalo, yangi guruhlar paydo qilish va ekstremistik g'oyalarni kuchaytirish maqsadida o'z ruhiyatlarini ustida ishlaydilar; o'z guruhiga yetakchilik salohiyatiga ega, ta'sir o'tkaza oladigan ayollarni to'plashga harakat qiladilar. Natijada, ong ostida yoshlikdan itoatkorlik singdirilgan o'zbek ayoli bunday «ta'sir»ga ega xarizmatik ayollarning oson o'ljasiga aylanadi.

Aldangan ayollar o'zlariga belgilangan «vazifa»ni amalga oshirishlaridan avval, tinimsiz ravishda Qur'oni Karim oyatlarining guruh maqsadlariga moslashtirib g'arazli maqsadlar yo'lida talqin qilingan ma'nolarini eshitadilar, tashkilotga doir radikal adabiyotlar bilan tanishadilar. Ana shundan keyin ular har qanday ishni qo'rqmasdan amalga oshiradigan bo'ladilar.

Hozirda «o'zini portlatish orqali qurbon qilish» amaliyotini qo'llayotgan ekstremistik oqimlar, xususan, «al-Qoida» harakati «butunjahon islom manfaatlari» yo'lida o'zi va yaqinlarini o'ldirishga izn beruvchi «fatvo» chiqartirgan. «Al-Qoida» ekstremistik tashkiloti tomonidan Iroqda «o'z joniga qasd qilish» amaliyotini o'tkazish uchun yosh bolalardan iborat «Tuyur al-janna» («Jannat qushlari») va ayollardan tashkil topgan «Harim al-Qoida» («al-Qoida ayollari») guruhlarini tuzilganini ham alohida qayd etish lozim. «Hizb ut-tahrir» diniy-ekstremistik tashkiloti o'zini portlatish orqali qurbon bo'luvchilarni «shahidlar» qatoriga kiritgan.

Yaqin Sharqda bir necha terrorchilik uyushmalarini o'zida birlashtirgan «Iroq va Shom islom davlati» – «ISHID» esa o'zi egallagan hududlarida «al-Xanso» ayollar jangovar qanotini tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilning iyun oyida «ISHID» erkaklarga harbiy majburiyatni yuklagan bo'lsa, turmushga chiqmagan ayol-qizlarga janggarilarning jinsiy ehtiyojini qondirish ularning asosiy majburiyatlari ekanini e'lon qildi. So'nggi yillarda internet tizimi orqali bir qator buzg'unchi fatvolar berib borilmoqda. Shunday fatvolardan biri – «Nikoh jihodi» deb atalib, unga ko'ra, Yaqin Sharq mamlakatlarida o'zlaricha xalifalik davlatini barpo qilish va islomiy hukmlarni joriy qilish yo'lida jihad qilayotgan jangchi erkaklarga o'zini bag'ishlash, ya'ni «nikoh jihodi»ni amalga oshirish, ularning jinsiy ehtiyojini qondirishlari uchun boshqa davlatlardan ayollar va qizlarning u yerga hijrat qilishlari keng targ'ib qilinmoqda. Bunda ayol guruhdagi aynan bir erkakning mahrami bo'lib qolmaydi, balki guruhdagi turmush o'rtog'i jangda vafot etsa, ikkinchi janggariga turmushga chiqa-

veradi yoki vafot etgan turmush o'rtog'i bilan tez kunda «jannatda ko'rishish» niyatida o'z o'limiga rozi bo'ladi va «shahid belbog'i»ni bog'laydi. Odatda, bunday soxta fatvoga uchgan qizlarga jihodchilarning lagerlarida joriyalarga qilinadigan munosabat ko'rsatiladi. Hatto, bir yoki undan ortiq «mujohid»ga nikohlanib chiqishiga ham izn berilgan.

«ISHID» faollaridan biri, «biz «al-Xanso» guruhini ayollar orasida «diniy bilim»ni oshirish va «shariat qonunlari»ga bo'ysunmaydigan ayollarni jazolash maqsadida tashkil etdik», deya ta'kidlagan. Suriyadagi no'tinch vaziyat ayollarni ushbu guruhga a'zo bo'lishga majbur qilmoqda, kimdir pul ishlash, o'zini himoya qilish maqsadida qo'llariga qurol olib «al-Xanso» faoliga aylanayotgan bo'lsa, ba'zilar «ISHID» mafkurasiga qo'shilgani va «xoin»larni jazolash orqali «ummat»ga xizmat qilayotganlarini isbotlashga urinmoqda.

«Al-Xanso» tomonidan virtual qo'llab-quvvatlash guruhleri tashkil etilib, unda ayollar bir-birlariga turli taomlarning tayyorlanish usullarini o'rgatish bahonasida yangi a'zolari saflariga qo'shmoqdalar, hych bir to'siqsiz Iroq va Suriyaga yetib borish yo'llarini o'rgatmoqdalar. Shuni e'tirof etish kerakki, «Islom davlati» qonun-qoidalariga ko'ra, ayol kishi ko'chaga erkak hamrohligisiz chiqishi mumkin emas, lekin faollarning olib borayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari o'zlarining talablariga ham zid ekanini ko'rishimiz mumkin.

Ommaviy tarzda ayollarni o'ziga jalb etishga harakat qilayotgan diniy-ekstremistik tashkilot faollari aslida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy hayotdagi mavqelarini yo'q qilishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun esa, «Islom davlati» vakillari ayollar hayotiga o'zlari talqin etayotgan shariat qonunlari va o'rta asr tartib-qoidalarini tatbiq etmoqdalar, natijada, xotin-qizlar nafaqat o'qish va ishlashdan, balki ko'chada erkin harakatlanishdan ham mahrum bo'ldilar. Bu kabi talablarga rozi bo'lmayotgan ayollarga nisbatan esa qattiq jazolar tayinlanmoqda. Jangarilar bilan «namunali musulmon oila»sini qurishga da'vat etishda ham ular ayollarga bo'lgan salbiy munosabatni bekitadilar. O'zlarini «islom yo'lida jang qilayotgan» janggarilarga bag'ishlayotgan ayollarga jonsiz va nafsni qondiruvchi buyum sifatida qarayotganlarini unutmashimiz lozim. Ayniqsa, «ISHID»ning yaqinda e'lon qilgan «Asiralar va cho'rilar qo'llanmasi»da o'zining manfur va chirkin mohiyatini islom ta'limotlari ortiga yashirib namoyon etmoqchi bo'lganini ko'rish mumkin. 32 savol-javobdan iborat ushbu qo'llanmadan insoniyatni quldorlik davriga qaytarishga urinishlar, begunoh insonlarni jinsi, yoshiga qaramay qatl etishlar, ahli kitob va boshqa din vakillari ayollarini asirga olish, asirga olinganlarni sotish, bir-birlariga sovg'a qilish hamda o'zlaridan keyin meros qoldirish, balog'at yoshiga

yetmagan asiralar bilan yaqinlik qilish, asirlarni «tartibga chaqirish» maqsadida kaltaklash, qochib ketgan asirlarni eng katta gunohkor deb eʼlon qilish va ularni qattiq jazolash boʻyicha koʻrsatmalar oʻrin olgani ham insoniylik, ham islom dini asoslariga zid ekani yaqqol koʻzga tashlanadi.

Zero, quldorlik oʻz vaqtida avjiga chiqqan davrlarda ham aynan islom dini unga barham berishga kirishgan. Hozirgi quldorlik tugatilgan zamon-da uni islom dini nomidan qayta tiklashga urinishlar esa muqaddas dini-miz taʼlimotiga ziddir.

Jahonning turli nuqtalarida roʻy berayotgan terrorchilik xatti-harakatlari, qonli toʻqnashuvlar, xalqimiz, avvalo, oʻsib kelayotgan yosh avlodda mutaassiblik, oʻzaro nizo, urushlarning mudhish va vayronkor oqibatlari haqida tizimli tasavvur hosil qilish, yurtimiz aholisi, xususan, yoshlar va ayollar ongini zaharlashga urinayotgan kuchlarga aldanib qolmaslik maqsadida gʻoyaviy immunitetni oshirish va joylarda kuchaytirilgan maʼnaviy-maʼrifiy targʻibot-tashviqot ishlarini olib borishni dolzarb vazifa qilib qoʻymoqda. Shu sababli, profilaktika inspektorlari mahallalarda norasmiy tarzda ish yuritishga harakat qilayotgan shaxslar faoliyatini nazoratga olishlari, diniy sohaga doir muammo va savollar bilan aynan shu soha mutaxassisiga murojaat etishlari foydadan xoli boʻlmaydi.

### **3.6. Mahallalarda diniy-ekstremistik oqimga moyilligi boʻlgan oilalar bilan ishlash boʻyicha tavsiyalar**

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan oilani mustahkamlash va unga gʻamxoʻrlik qilish boʻyicha koʻplab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi butun bir bobining (XIV bob) oilaga bagʻishlanganligi buning yaqqol misolidir. Konstitutsiyaning 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega» deyilgan. Prezidentimiz Islom Karimov taʼbiri bilan aytganda, «xalq jamiyatdagi barqarorlikning oila va mahalla kabi ishonchli, anʼanaviy vositalari sohibidir. Ayni oila va mahalla ruhiyatimiz mustahkamligini tayanchidir». F.Adler «oila – bu jajji jamiyatdir, uning mustaqilligi kishilik jamiyatining xavfsizligiga bogʻliqdir», deb yozgan edi.

Biroq shuni afsus bilan taʼkidlash kerakki, baʼzi ota-onalar yuqoridagi fikrlarni toʻgʻri anglamagan holda bolalari huzurida oʻzaro janjallashadilar, boʻlmagʻur soʻzlarni ham ishlatadilar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bola otaning har bir harakatini zimdan kuzatib boradi. Ota-ona oʻrtasidagi doimiy janjal bola asabini ishdan chiqaradi. Serjanjal oilada oʻsayotgan bola darsni oʻzlashtira olmaydi, oqibatda unda oʻzgacha

kayfiyat paydo bo‘ladi. Tabiiyki, muntazam janjal bo‘lib turadigan oilalarda tarbiyalangan bolalar asabiy, ruhan zaif bo‘lib o‘sadi. Ular g‘ayritabiiy, hatto g‘ayriqonuniy ishlarga qo‘l urushdan qo‘rqmaydilar. Holbuki, jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarning 36,8 foizi notinch oilada tarbiyalangan. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday nosog‘lom oilalarda jinoyatchilar har tomonlama sog‘lom oilalarga nisbatan 10 marta ko‘p yetishib chiqadi.

Vaholanki, ota-ona o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi). Biroq bu qoida: bolalarni me‘yoridan ortiqcha erkalash; ularning injiqliklari va tantiqliklariga erk berib qo‘yish; ularga me‘yoridan ortiqcha qulayliklar yaratish; ularni ijtimoiy foydali bo‘lgan muayyan burchlarni bajarishdan, hatto, kuchi yetadigan mehnatdan ham ozod qilish; ularning ehtiyojlarini cheksiz ravishda qondirib borish; ularni shaxsiyat-parast, dangasa qilib tarbiyalashni istisno etadi. Holbuki, farzandning yashashi, kamol topishi uchun oila birdan-bir makon va tabiiy mihit bo‘lib hisoblanadi. Oilada farzandlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy normalar ruhida tarbiyalash **er-xotinning** muhim shaxsiy huquq va vazifalaridan hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda fuqarolarimizni, ayniqsa kelajak avlodlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan asrash uchun barcha chora-tadbirlarni, eng avvalo, shaxs rivojlanadigan va unib-o‘sadigan makon – oilada tegishli profilaktik chora-tadbirlarni o‘z vaqtida olib borish bugungi zamon talabidir.

Diniy-ekstremistik oqimga moyilligi bo‘lgan oilalar bilan ishlash bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

*Diniy bilimlarni o‘rganish niyatida bo‘lganlar diniy ekstremistik harakatga aralashib qolmasliklari uchun nimalarga e’tibor berishlari kerak?*

Faraz qilaylik, yuqoridagi kabi holatlarda noma’lum yoki yaxshi tanish bo‘lmagan shaxs murojaat qildi. Ushbu kimsa suhbat boshida islom asoslarini o‘rganishga qaratilgan harakatlarga rag‘bat berib, asl musulmonning burch va javobgarligi kabi mavzularda so‘z yuritadi. So‘ngra, bilvosita savollar bilan unga taalluqli ma’lumotlar, xususan diniy va siyosiy qarashlar bilan qiziqadi. Suhbat oxirida esa, o‘zining islomga qiziqishi behad ekani va yaqin birodarlari bilan diniy bilimlarini puxta egallayotganini aytib, «o‘lja»ga ham shuni taklif etadi. Shuni ta’kidlash joizki, bunday suhbatlar bir muloqotda bo‘lib o‘tishi yoki bir necha uchrashuvga cho‘zilishi mumkin.

Albatta, islom aqidalarini birgalikda o‘rganish haqida taklif qilganlarning barchasi ham o‘z oldiga kishini ekstremistik g‘oyalar bilan zaharlash

va noqonuniy faoliyatga jalb qilishni maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq shaxsning qanday jamoaga jalb qilinayotgani haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishga intilish kelajakda o'zi va oilasini jiddiy ko'ngilsizliklardan saqlaydi.

Masalan, «Islomga doir bilimlarni kimdan va qaysi asarlar orqali chuqur va mukammal o'rganish mumkin?» degan savolga «suhbatdosh» umumiy javob, ya'ni «Qur'oni Karim va hadislardan» deyish bilan chegaralansa, undan kengroq javob olishga harakat qilish zarur. Agar suhbatdosh an'anaviy, rasmiy usullarni rad etsa yoki ularning sayozligini ta'kidlasa yoxud nashr qilingan joyi ko'rsatilmagan, norasmiy adabiyotlar, masalan, Taqiyuddin Nabhoniyning «Islom nizomi», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», Yusuf as-Sabotinning «Izzat va sharaf sari», Abdulqadim Zallumga tegishli «Xalifalikning tugatilishi» hamda muallifi ko'rsatilmagan «Imonga yo'l», «Shirin jon qissasi» kabi kitoblarni tilga olsa yoki nomlari zikr qilingan shaxslarning islom dunyosidagi o'rni haqida ijobiy so'zlasa, uning mutaassib g'oyalar tarafdori ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

Ta'kidlash joizki, hamma vaqt ham diniy mutaassib oqimlar a'zolari ilk suhbatdanoq norasmiy adabiyotlar va shaxslar haqida batafsil so'zlamaydi. Ular o'z jamoalariga jalb qilish maqsadida rasman tan olingan diniy adabiyotlar orqali saboq olishni tavsiya etishi hamda boshlang'ich ilmlarni o'rganish uchun o'z jamoasiga taklif qilishi mumkin. Bularning bari qanchalik jozibador va to'g'ri bo'lib ko'rinmasin, diniy ma'lumoti va aniq maqsadlarini bilmagan odamdan diniy bilimlarni o'rganishga harakat qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

*Diniy ta'lim olish uchun qayerga va kimga murojaat qilgan ma'qul?*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan bo'lib, o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Diniy fanlar faqatgina diniy tashkilotlar tasarrufidagi o'quv yurtlarida o'qitilishi mumkin.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga ko'ra, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, diniy ta'lim berish haqida litsenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi. Oliy va o'rta maxsus diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar umumiy majburiy o'rta ta'lim olgandan keyin qabul qilinadi. Hozirgi kunda respublikamizda 2 ta oliy ta'lim muassasasi, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti va 2 ta xristian seminariyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

*Kishi farzandi yoki biror yaqin odami diniy ekstremistik harakatga qo'shib qolganini qanday bilsa bo'ladi?*



Biror diniy ekstremistik harakat ta'siriga tushib qolgan odamni uning belgilari, guruhning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar orqali aniqlash mumkin. Bunday kishining tashqi alomatlari – xulq-atvori, yurish-turishi, kiyinishi, so'zlashuv lug'ati va qiziqishlarining o'zgaradi, odatdan tashqari va takrorlanuvchan dalillarni ko'proq keltirishi, oilasi, do'sti, kasbi yoki o'qishiga qiziqishining yo'qolishi, ovqatlanish tartibining o'zgarishi kuzatiladi.

Inson yaqin kishisining diniy ekstremistik harakatga qo'shib qolganini aniqlashda ovqatlanish, uxlash tartiblari, yaqin kishilari bilan muloqoti, umuman shaxsiy hayotidagi o'zgarishlar qay darajada ekani jiddiy e'tibor qilish va to'g'ri tahlil qilish muhim hisoblanadi. Har qanday holatda mutasaddi idoralar yoki mas'ul shaxslar bamaslahat harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

*Kishi farzandi yoki biror yaqin odami diniy ekstremistik harakatga qo'shib qolganini bilsa, nima qilishi zarur?*

Farzandi yoki biror yaqin odami diniy ekstremistik harakatga qo'shib qolganini bilgan kishi, avvalo, o'zini yo'qotmasligi, tahlikaga tushmasligi, endi biror narsani o'zgartirib bo'lmaydi degan xayolga bormasligi zarur. Aksincha, biror oqim ta'siriga tushib qolgan odam bilan yaxshi munosabatni saqlash, unga nisbatan ijobiy kayfiyatda bo'lish, suhbatlashganda vazmin, samimiy gaplashish kerak bo'ladi.

Hyech qachon to'g'ridan-to'g'ri (hatto, hazillashib ham) uning e'tiqodiga tajovuz qilmaslik, baholash yoki tanqid qilish uchun emas, sog'lom fikr nuqtai nazaridan uni tushunish uchun ko'proq savollar berish zarur.

O'rtadagi kelishmovchilik va qarama-qarshiliklarni oshkor etish uning oqimga yanada qattiqroq bog'lanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Balog'at yoshiga yetgan va nima qilishni o'zi biladi, deb uni qutqarish fikridan voz kechmaslik, sog'lom fikr uni qilayotgan ishlaridan qaytaradi, deb ishonib qolmaslik kerak.

Muammolar bilan yakkalanib qolmasdan, mazkur masalani mahalla oqsoqoli, masjid imomi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillari bilan bamaslahat hal qilish zarur. Nihoyat, oqim ta'siriga tushib qolgan kishi yana ilgarigidek bo'lib qoladi, deb o'ylamaslik, hayotiy tajribadan to'g'ri xulosa chiqarish, hushyorlikni bir lahza ham yo'qotmaslik, uni yosh niholdek asrash kerak bo'ladi.

*Yoshlarimizni diniy mutaassib oqimlar ta'siridan himoya qilish, farzandlarimizda buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish zarur?*

Prezidentimiz Islom Karimov farzand tarbiyasining ahamiyatiga to'xtalib, «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona

foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi», – deb ta'kidlagan edi. Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoyilik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq, zero «qush uyasida ko'rganini qiladi». Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla oqsoqoli, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, imom, profilaktika inspektori, Ma'naviyat va targ'ibot markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» kabi ijtimoiy tashkilotlarning joylardagi mas'ullari hamjihatlikda faol ishlashlari kerak.

Yoshlarga ushbu ofatning salbiy jihatlari va zararli oqibatlarini kengroq tushuntirishda ijobiy ta'sir qilishning barcha vosita va uslublarini qo'llash kerak. Balandparvoz shiorlarni takrorlash o'rniga, fikrni hayotiy misollar orqali yetkazish ma'qulroq.

Bekorchidan Xudo bezor, deydi dono xalqimiz. Yoshlarimiz turli mutaassib guruhlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun ularning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, kasb-hunar, foydali mehnatga o'rgatish, turli to'garaklar faoliyatini jonlantirish, sport klublarida qulay imkoniyatlar yaratib berish muhimdir.

Beg'amlik loqaydlikning onasidir. Har qanday fazilat haddan oshsa, illatga: tavoze – laganbardorlik, andisha – ko'rzoqlik, ibo – mutelik, uyalish – jur'atsizlikka aylanadi. Yer buzilsa – dehqon, bola buzilsa – ota-ona uyaladi. Yaxshi fazilat ekib, parvarish qilinmasa, yomon sifatlar unadi. Farzand ko'rib, qarovsiz qoldirilsa, u fidoyi, vatanparvar bo'lmaydi, giyohvand, jinoyatchi yoki riyokor bo'ladi.

Agar biz yoshlarimiz ongi va ruhiyatini zaharli mafkuralardan qat'i-yat bilan himoya qilsak, har qanday g'arazgo'y kuchlar mamlakat mustaqilligi va uning porloq kelajagiga raxna sola olmaydi. Bu jamiyatimiz, shu yurt, shu Vatanni muqaddas deb bilgan har bir fuqaro oldidagi burch va asosiy vazifadir.

*Terrorizm va diniy ekstremizmni oldini olishning psixologik choratadbirlari.*

Terrorizmning oldini olish o'ziga xos murakkab vazifadir, chunki bu ijtimoiy voqyealik turli ijtimoiy, siyosiy, ruhiy, iqtisodiy va boshqa bir qator sabablar orqali yuzaga keladi. Shu bois, aynan shu kabi sabablar profilaktika ta'sir choralarining obyektiga aylanishi lozim.

Zotan, buni amalga oshirish oson kechmaydi, chunonchi sanab o'tilgan sabablarning aksariyati davlat hokimiyatiga egalik qilish va uni egalashga qaratilganligi bilan mulkni taqsimlash, o'z «g'oyalarini» namoyish

etish, jamiyat milliy va ijtimoiy tizimini o'zgartirishga qaratilgan maqsadlarining mavjudligi bilan uzviy bog'liqdir.

Terrorizm azaldan mavjud bo'lgan va «odam o'ldirish» kabi xatti-harakatlar namoyon bo'layotgan hozirgi shakli sifatida jamiyatdan butunlay yo'qotishga imkon bermaydi. Shu bois, har bir rivojlangan jamiyat o'z vaqtida terrorizm xavfini aniqlashi va unga qarshi chora ko'rishi zarur.

Terrorizmning oldini olishda quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilmog'i lozim:

– jahonda va jamiyatda ro'y berayotgan va terrogen ta'sirga ega asosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish; ushbu yo'nalish strategik ahamiyatga ega bo'lgani uchun va o'tkazilishi zarur bo'lgan uzoq muddatli va hatto, undan ham ko'p muddatlarda bashorat qilishni yo'lga qo'yish va shu orqali terrorizmning faollashganini bilish hamda terror kimlar tomonidan sodir etilishini aniqlash;

– kelgusida va yaqin vaqtlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarining aniqlash va bartaraf etish; bu esa terror sodir etuvchilar va terror yo'naltirilgan obyektlarni, uning sabablari, sodir etish usullari va boshqa holatlarni aniqlashni talab etadi;

– davlat va jamoat arboblari qaratilgan terrorchilik harakatlari va umuman terrorizmni sodir etishga yo'l quymaslik, aybdorlarni ushlab va odil sudga berish terrorni sodir etgan nafaqat ijrochilarni, balki tashkilotchilar va terrorchilikni ruhlantirgan shaxslarni topish va jazoga tortish, garchand bunday jarayon g'oyatda murakkab bo'lsa-da;

– terrorizm bilan bog'liq bo'lgan garovga olish, genotsid, diversiya, dastlabki tergov va sud ishlarini yuritayotgan shaxsga suiqasd qilish kabi holatlarning oldini olish, yo'l quymaslik va bartaraf etishni ta'minlash. Bunday kurash bobida xalqaro tashkilotlar yordamiga tayanish va har bir davlat ishtirokini muvofiqlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunning 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari berilgan. Ushbu qonunga binoan, quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

– terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash unga chek qo'yish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yo'li bilan amalga oshiradi;

– alohida toifalangan va boshqa obyektlarning qo'riqlanishini va xavfsizligini ta'minlaydi;

– davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to'g'risida axborot taqdim etadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari va boshqa davlat organlari tomonidan terrorchilik faoliyatini oldini olish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek, korxonalar, muassasa, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari barcha o'ziga tegishli bo'lgan hududlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida barcha obyektlarni nazorat qilishlari, har bir xonadonda fuqarolik pasporti rejimini o'tkazish, aholi kam yashaydigan joylarni nazoratni kuchaytirish (tog'li hamda cho'l zonalarini)lari lozim. Qolaversa, chegara-bojxona organlari faoliyatini ham kuchaytirish lozim. Chunki, boshqa davlatlar chegara hududlarida jinoiy guruh bo'lib tayyorgarlik ko'rishlari mumkin hamda boshqa hududlarga hujum qilishlari mumkin. Terrorchilar guruhi taktikasining mohiyatini o'rganish va ularga qarshi kurashish lozim. Bir so'z bilan aytganda «Ogohlik davr talabi» shiori ostida hushyor turishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Terrorizm jinoyatlari profilaktikasining mazmuni bo'yicha quyidagi yo'nalishlarni belgilab olish mumkin:

- terrorizmning targ'ib qilinishini oldi olish;
- terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishiga chek qo'yish;
- terrorchilik faoliyatiga daxldor shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi hamda ularning ushbu hududda faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik;
- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni aniqlash, bartaraf etish choralari ko'rish;
- jamoat tartibi va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash ularning hushyorligiga, tevarakda ro'y berayotgan voqyealarga faol munosabatiga bog'liq ekanini odamlarning ongiga yetkazish.

Terrorizm va diniy ekstremizm targ'ib qilinishining oldini olishda quyidagi psixologik-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlat suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojaralar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitishni maqsad qilib olgan har qanday ko'rinishdagi targ'ibot-tashviqot ishlariga chek qo'yish;
- terrorchilikni targ'ib qiluvchi va unga tayyorgarlik ko'rayotgan kishilarni aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv ishlarini o'tkazish;
- mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan axborotlar bilan muntazam ravishda tanishib, ularni tahlil qilib borish;

– terrorchilik g‘oyalarning targ‘ib qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda bu boradagi huquqbuzarliklarni aniqlash;

– terrorchilik g‘oyalarni tarqatish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish;

– terroristik g‘oyalarni targ‘ib va tashviq qilish uchun mo‘ljallangan audio-video kasetalarini, shuningdek, DVD, VCD, SD, MR3 diskklarini sotish shoxobchalarini doimiy nazoratga olish;

– milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatishning oldini olish;

– diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatishning oldini olish;

– diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish;

– diniy ta‘limotdan saboq berish tartibini buzish hollariga chek qo‘yish;

– diniy ekstremizmning mohiyati, ekstremistik tashkilotlar va oqimlarning haqiqiy maqsadi va qiyofasini keng jamoatchilikka ko‘rsatib berish;

– diniy ekstremizm ta‘siriga tushish xavfi bo‘lgan aholi qatlami o‘rtasida doimiy ravishda tarbiyaviy, ogohlantirish-tushuntirish ishlarini tashkil etish;

– chet elga chiqish va O‘zbekistonga kirish bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish va hokazo.

Terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishiga chek qo‘yish borasida quyidagi psixologik-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– davlat va jamoat arboblarga qaratilgan terrorchilik harakatlari va umuman terrorizmni sodir etishga yo‘l qo‘ymaslik, aybdorlarni ushlab va odil sudga berish, terrorni sodir etgan nafaqat ijrochilarni, balki tashkilotchilar va terrorchilikni ruhlantirgan shaxslarni topish va jazoga tortish;

– terrorizm bilan bog‘liq bo‘lgan garovga olish, genotsid, diversiya, dastlabki tergov va sud ishlarini yuritayotgan shaxsga suiqasd qilish kabi holatlarning oldini olish va bartaraf etishni ta‘minlash;

– jahonda va jamiyatda ro‘y berayotgan va terrogen ta‘sirga ega asosiy jarayonlarga ta‘sir o‘tkazish, ushbu yo‘nalish strategik ahamiyatga ega bo‘lgani uchun va o‘tkazilishi zarur bo‘lgan uzoq muddatli va hatto undan ham ko‘p muddatlarda bashorat qilishni yo‘lga qo‘yish va shu orqali terrorizmni faollashganini bilish hamda terror kimlar tomonidan sodir etilishini aniqlash;

– kelgusida va yaqin vaqtlarda sodir etilishi mumkin bo‘lgan terrorchilik harakatlarining aniqlash va bartaraf etish, bu esa terror sodir etuvchilar va terror yo‘naltirilgan obyektlarni, uning sabablari sodir etish usullari va boshqa holatlarni aniqlashni talab etadi;

– hududda noqonuniy faoliyat ko‘rsatayotgan masjidlar, diniy ta’lim beruvchi hujralarni va shaxslarni aniqlash;

– terrorizm jinoyatini sodir etib muqaddam sudlangan shaxslar bilan ularning qayta jinoyat sodir etishlarini oldi olish maqsadida yakka tartibdagi tarbiyaviy-profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ularning oilaviy ahvoli va aloqalari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish;

– uzoq muddatdan buyon o‘z uyida yashamayotgan, chet el mamlakatlariiga tijorat va boshqa maqsadlarni ko‘zlab chiqib ketgan, yana qaytib kelgan shaxslar va xorijiy davlatlarda fohishalik bilan shug‘ullanganligi uchun deportatsiya qilingan ayollar va xorijda jinoyat sodir etgan shaxslar hamda jinoyat qilgani uchun qidiruvda bo‘lgan, shuningdek, bedarak yo‘qolgan shaxslar haqida ma’lumotlar to‘plash;

– profilaktik ro‘yxatda turgan, yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash va ularga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali amaliy yordam ko‘rsatish;

– hududdagi muhim obyektlarning (hokimiyat idoralari, HMQO, shifoxonalar, banklar, ta’lim va maktabgacha ta’lim muassasalari va boshqalar) xavfsizligini ta’minlash choralarni ko‘rish.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma’lumotlar va faktlarni aniqlash, bartaraf etish choralarni ko‘rish borasida quyidagi psixologik-profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– terroristik guruhlariga aloqador holatlar, shaxslar va tashkilotlar to‘g‘risida ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlariga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga o‘z vaqtida xabar berish;

– O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155-moddasidagi «terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi» mazmunidagi to‘rtinchi qismining hamda 244<sup>2</sup>-moddasining «Basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to‘g‘risida o‘z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo‘lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyati uchun javobgarlikdan ozod qilinadi» mazmunidagi uchinchi qismning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

– qo‘l ostida mavjud bo‘lgan ishonchli shaxslarning imkoniyatlaridan foydalangan holda tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma’lumotlarga ega bo‘lish choralarni ko‘rish.

Terrorizm jinoyatining oldini olish faoliyatini profilaktik chora-tadbirlar yo‘nalishlari quyidagicha:

- 1) umumiy profilaktika;
- 2) maxsus profilaktika;
- 3) yakka tartibdagi profilaktika;
- 4) viktimologik profilaktika.

Umumiy tartibda terrorizmning oldini olish deganda, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi uning sabab va sharoitlari, boshqa determinantlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish, ta'sirini yo'qotish, kuchsizlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish tushuniladi.

Bu borada profilaktika xizmatlari tomonidan quyidagi ishlar olib boriladi:

– oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida, mahallalarda uchrashuvlar, suhbatlar uyushtirish va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfni keng tushuntirish;

– radio, televideniye, matbuotda hamda OAVning boshqa turlarida diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfi haqida eshittirishlar uyushtirish;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari hamda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda diniy ekstremistik oqimlarning maqsadi va diniy ekstremizmning mohiyatini ochib beruvchi ko'rgazmali qurollar va plakatlar tayyorlab, diqqatga sazovor va aholi gavjum joylarni jihozlash va hokazolar.

Maxsus tartibda terrorizmning oldini olish deganda, terrorizm jinoyatining sabab va sharoitlarini, ular bilan bog'liq bo'lgan boshqa determinantlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish, ta'sirini yo'qotish, kuchsizlantirish bo'yicha hamda terroristik guruhlariga mansub shaxslarga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

*Bu borada quyidagi profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi:*

– diniy ekstremistik va terroristik g'oyalarni tarqatuvchilar haqida axborotlar to'plash, tahlil qilish va kerakli xulosalarga kelish;

– diniy ta'limotdan noqonuniy tarzda saboq berayotganlarni aniqlash;

– terrorizmni moliyalashtirish manbalarini aniqlash va hokazolar.

Yakka tartibda terrorizmning oldini olish deganda – muayyan shaxs tomonidan terrorizm jinoyatini sodir qilinishini oldini olishdan iborat, bunda shaxsda jamiyatga zid yo'nalishning mavjudligi, g'ayriijtimoiy xayot tarzi, salbiy xususiyatlari, xulqi va odatlari oqibatida jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular tomonidan jinoiy xatti-harakatlar sodir qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularga nisbatan tarbiyaviy va boshqa turdagi ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu borada quyidagi profilaktik tadbirlar o'tkaziladi:

– diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar olib borish;

– diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolganlarga ekstremizmning, qolaversa, dinning mazmun va mohiyatini tushuntirish;

– diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolganlarni to'g'ri yo'lga solish uchun hurmat va obro'ga ega bo'lgan, mahalla faollarini jalb etish va hokozolar.

Terrorizmning viktimologik profilaktikasi deganda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning terrorizmdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati tushuniladi.

*Bu borada quyidagi profilaktik tadbirlar o'tkaziladi:*

– aholi o'rtasida terrorizmning sabablari va uning salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish orqali ularda terrorizmdan jabrlanish xavfini kamaytirish;

– terrorizmdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan terrorizm bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish.

Albatta, terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish borasida yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlar terrorizm jinoyatining oldini olish borasida chora-tadbirlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning qon tomiri bo'lmish moliyaviy kanallarni aniqlash, unga qaqshatqich zarba berib, tagtomiri bilan qirqib tashlash, diniy ekstremistik tashkilotlar, guruhlar va turli diniy oqim a'zolarini aniqlash, ularni fosh etish, ular orasida tushuntirish, tarbiyaviy va profilaktik xarakterdagi tadbirlar tashkil etish diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi eng dolzarb vazifadir.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, buyuk ajdodlarimizdan bo'lmish Mahmud A'zamxoja Dahbediy o'z ta'limotlarida inson o'zidan uch narsadan aqalli bittasini qoldirib ketmog'i joiz, deganlar. Shulardan birinchisi oilada xushxulq farzand qoldirishdir. Bu esa har bir insondan o'z farzandining tarbiyasiga – uning imonli, odobli, millatparvar va yurtparvar bo'lib voyaga yetmog'iga mas'ul bo'lishni talab qiladi. Mahmud A'zam nazarida, farzandni yo'lga soluvchi ustoz, eng avvalo, ota-onadir. Ota-ona farzandi yaxshi fazilat sohibi bo'lishi uchun uni mudom ezgulik ruhida tarbiyalamog'i lozimdir<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Хуршид Даврон. Алпомишнинг ўйғониши // Тафаккур. – 1994. – № 1. Б.16.



## XULOSA

Hozirgi globallashuv sharoitida tinch-totuv yashayotgan xalqlar o'rtasiga nifoq solish, diniy bag'rikenglik muhitini barbod qilish va davlatlarning suveren tengligi va chegaralari daxlsizligiga raxna solish maqsadida axborot xurujlaridan ham keng foydalanilmoqda. Afsuski, axborot har doim ham ezgulikka, bunyodkor g'oyalarga xizmat qilmay, ayrim vayronkor siyosiy kuchlar, ekstremist va terrorchilar qo'lidagi qurolga aylanib borayotgani ayni haqiqat. Shu bilan birga bunday axborot xurujlarida islom diniga oid ayrim tushunchalarni buzib talqin qilish va diniy qadriyatlarni salbiy ma'noda dunyo afkor ommasiga singdirishga urinish holatlari ham kuzatilmoqda. Bunday holat esa mutaassib kayfiyatdagi kishilarni ekstremistik va terrorchi kuchlar safiga qo'shilib qo'lishiga turtki bo'lmoqda. Shu boisdan ham, Prezidentimiz Islom Karimov 2015-yil iyul oyida Ufa shahrida bo'lib o'tgan SHHTning navbatdagi sammitida so'zlagan nutqida tobora global tus olib borayotgan tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning oldini olishga alohida to'xtalib, fanatizm va xalqaro terrorizm tushunchasini faqat islom bilan bog'lash noto'g'ri ekani, an'anaviy islomni qo'llab-quvvatlash, mutaassiblikka qarshi kurashish kerakligi, shuningdek hozirgi kunda xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotganidan tashvish bildirmaydigan mamlakatning o'zi yo'qligini, bu illatlarga qarshi kurashishda davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash zarurligini, bu kabi masalalarga bir tomonlama qarash xato bo'lishini aytib o'tdi.

Darhaqiqat, mafkuraviy jang maydonida inson qalbi va ongini zabt etishda diniy omilning o'rni beqiyos. Afsuski, bu omildan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga intilayotgan kuchlar turli mintaqalardan turib insonlar, ayniqsa yoshlar ongini zaharlashga, o'z domiga ilingan kishilar orqali tinch davlatlarda beqaror vaziyatlarni vujudga keltirishga intilmoqdalar.

Turlicha qarashdagi insonlar o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo'li bilan o'z maqsadlariga erishishni ko'zlaydigan kuchlar bor ekan, sun'iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to'xtamaydi. Bu esa, ogohlik va hushyorlikka bo'lgan talab kun sayin ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan, profilaktika inspektorlari o'z vazifasiga bo'lgan mas'uliyatini yanada oshirish zarur bo'ladi. Shuningdek, ular kasbiy bilim va mahoratlarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratmoqlari talab etiladi. Ayniqsa, turli

millat va e'tiqoddagi kishilar bilan ishlash mahoratini o'zida singdirmoqlari o'ta muhimdir. Chunki, ko'plab mintaqalarda yuz berayotgan nizoli vaziyatlar etnik va diniy sohadagi muammolarga panja ortidan qarash natijasida kelib chiqayotgani ayni haqiqatdir.

Shu bilan birga, profilaktika inspektorlari diniy mazmundagi materiallar bilan ishlash bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Profilaktika inspektorlarining bunday bilimga ega bo'lishlari o'z hududlarida taqiqlangan diniy adabiyotlar tarqalishining oldini olish bilan birga, mazkur uchastkada vijdon erkinligi bilan bog'liq fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari ommaviy axborot vositalaridan muntazam boxabar bo'lmoqlari, turli davlatlarda yuz berayotgan nizoli vaziyatlar, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari hamda mintaqaga ta'sirini o'rganib bormoqlari zarurdir. Hududdagi diniy tashkilotlar rahbarlari, xususan imom-xatiblar hamda bosh imom-xatiblarning xotinqizlar masalalari bo'yicha yordamchilari, mahallalardagi diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar bilan hamkorlikda faoliyatni tashkil etish ham samarali natija beradi.

Ma'furaviy kurashlar avj olgan hozirgi zamonda Vatan, millat, din, madaniyat, milliy urf-odatlarini saqlash, himoya qilish, ajdodlardan bizlarga yetib kelgan milliy va diniy qadriyatlarimizni kelajak avlodga sofiy holida yetkazish barchamizning burchimizdir. Inson qay sohada bo'lmasin, o'zining kasbi-kori, mehnat faoliyatidan kelib chiqib, bu mas'uliyatli vazifani sidqidildan amalga oshirishi lozim. Ayniqsa, yurt tinchligi va xavfsizligi uchun bevosita mas'ul bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining bu yo'ldagi xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Zero, Vatan tinchligi va ravnaqi yo'lida hamma bir tanu bir jon bo'lib kurashsagina, yurt obod, sarhadlarimiz daxlsiz bo'ladi.

## ILOVALAR

### Glossariy

**Akromiylar** – bu harakatga 1990-yillarda «Hizb ut-tahrir» diniy-ekstremistik guruhi a’zosi bo’lgan Akrom Yo’ldoshev tomonidan asos solingan. Keyinchalik A.Yo’ldoshev «Hizbut-tahrir» harakati a’zolari bilan kelisha olmay, undan ajralib chiqqan hamda «Islom nizomi», «Izzat va sharaf sari» va «Xalifalik» nomli adabiyotlardan foydalangan holda 12 darsdan iborat «Imonga yo’l» risolasini yozib, harakat dasturini ishlab chiqqan. «Akromiylar»ning bosh g’oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg’ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

**Arman apostollik cherkovi** – Arman apostollik cherkovi eng qadimgi xristian cherkovlaridan biri hisoblanadi. Avliyo Grigoriy Prosvetitel (Arman grigorian nomi shundan kelib chiqqan) harakatlari bilan 301 yilda Armanistonda xristianlik davlat dini deb e’lon qilinadi.

Ushbu cherkov vakillari Iso tug’ilgan kuni (Rojdestvo, 6 yanvar), Iso-ning xatna qilinishi (14 yanvar) kabi bayram va marosimlarni nishonlaydilar. Samarqand shahridagi Arman-grigorian cherkovi 1903-yildan faoliyat ko’rsata boshlagan. 2015-yilning 1-oktabriga qadar 2 ta diniy tashkilot ro’yxatga olingan.

**Aqida** – (arab. «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog’lash») ma’nosini anglatadi. Islom ta’limotiga ko’ra, har bir musulmon Allohning birligiga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg’ambarlariga, taqdirga, o’lgandan so’ng qayta tirilish va qiyomat kuni bo’lishiga imon keltirishi shart bo’lib, bu uning aqidasi – e’tiqodi hisoblanadi. Aqida va unga tegishli masalalarni o’rganuvchi ilmni «aqoid ilmi» deyiladi.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g’oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni hamda ularni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko’r-ko’rona qo’llash.

**Bay’at** – (arab. – oldi-sotdi) – shariatda kishilarning Rasululloh (a.s.)ga itoat haqida bergan va’dalari. Bunda va’da beruvchi shaxs o’z itoati evaziga savobni sotib olish ma’nosi borligidan «bay’at» deyilgan. Rasululloh (a.s.)dan keyin xalifalar, davlat boshliqlariga bay’at qilish odati bo’lgan. Keyinroq davlat boshlig’idan boshqalarga, ma’lum rahbarlik ma’nosidagi ulug’larga ham bay’at qilish tarqalgan. Bay’at vaqtida qo’l ushlab turib ahd berilganidan ahli tasavvufda muridning shayxga qilgan bay’atini «qo’l

berish» deyiladi. Hozirgi kunda din niqobidagi ba'zi ekstremistik oqimlar o'zlariga saylab olgan «xalifa», «amir» kabi rahnamolariga ko'r-ko'rona bay'at qilib, ularga ergashmaganlarni kofirga chiqarmoqdalar. Islom olamining eng yirik ulamolari tinch va osuda mamlakatlarning hayotiga raxna solishni maqsad qilgan har qanday ekstremistik guruh va uning rahbarlariga bay'at qilish mumkin emasligini alohida ta'kidlaganlar.

**Bahoiy diniy jamoasi** – XIX asrda Eronda bobiylik yo'nalishi zahirida vujudga kelgan diniy yo'nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 - yilda Bob (arabcha «eshik»), ya'ni yangi davrga «eshik» nomini olib, yaqin orada «Xudo elchisi»ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishi haqidagi g'oyani targ'ib qila boshlagan.

Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo'lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a'zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog'liq bo'lgan ishlarni muhokama qilish, o'zaro birodarlik aloqalarini mustahkamlash uchun yig'iladilar.

Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan bo'lib, kuniga uch marta u yerga qarab ibodat qilinadi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o'zlarini tiyib, ro'za tutadilar. Xayfa shahri ham muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi.

O'zbekiston hududida bahoiylarning ilk vakillari – savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi tijoratchilar XIX asr oxirlarida Samarqand shahrida paydo bo'lgan. 2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda bahoiy jamoalarining 6 ta diniy tashkiloti ro'yxatga olingan.

**Bibliya** (yunon. – kitoblar) – xristianlik dinining asosiy muqaddas manbai. Bibliya «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»dan iborat bo'lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

**Bid'at** – (arab. – yangilik kiritmoq, yangidan yaratmoq) istilohiy ma'noda Muhammad (a.s.) davrlarida islomda bo'lmagan va keyinchalik dinga kiritilgan ortiqcha, foydasidan zarari ko'proq amalga aytiladi. Bid'at ikki turga bo'linadi: bid'at ul-hasana (yaxshilikka xizmat qiluvchi yangilik) va bid'at us-sayyi'a (yomonlikka xizmat qiluvchi yangilik). Bugungi kunda ayrim mutaassib oqimlar tomonidan har qanday yangilikni (jumladan, yaxshilikka xizmat qiluvchi yangilikni ham) bid'at sifatida baholab, bajaruvchilarni dindan chiqishda ayblash hollari uchramoqda.

**Buddaviylik.** Yurtimizda buddaviylikning lamaizm yo'nalishi tarqalgan. Lamaizm (tibet tilida «lama» – «eng ulug'» degan ma'noni anglatadi) Tibetda VII-XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy diniy qarashlari hamda

Maxayana va Tantrizm uyg'unlashuvi asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi.

Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizm ta'limotiga ko'ra inson faqat lamalar (ruhoniylar) yordamida najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga yetishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hyech narsaga erisha olmaydi, degan e'tiqod mavjud. Buddaviylikda diniy bayramlar oy kalendari bo'yicha nishonlanadi. Fevral-mart oylarida Yangi yil, aprel-may oylarida Buddaning tug'ilishi va boshqa bir qator bayramlar tantana qilinadi.

2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda buddaviylikka mansub bitta diniy tashkilot ro'yxatga olingan.

**Vijdon erkinligi** – diniy e'tiqod erkinligidan kengroq tushuncha bo'lib, har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hyech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqini anglatadi.

**«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun** – ushbu qonun O'zbekistonda ilk marta 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan bo'lib, 1993-yil 3-sentabrda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo'lib keldi. 1998-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 23 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi.

**Virtual olam** – odatda axborot texnologiyalari, internetga nisbatan ishlatiladi, raqamlardan tashkil topgan real bo'lmagan, ammo real olamdan nusxa qilib ishlangan loyiha yoki dastur. Bugungi axborot va texnologiyalar rivojlangan davrda ko'pchilik, xususan yoshlar virtual olamning zararlari ta'siriga tushib qolmoqdalar.

**Vojib** – hanafiy mazhabi ta'limotiga ko'ra, qat'iy bo'lmagan dalillar asosida bajarilishi shart qilingan amal bo'lib, boshqa mazhablardan farqli ravishda farzdan quyiroq majburiyat hisoblanadi.

**«Golos Bojiy» cherkovi.** Navoiy shahrida joylashgan «Golos Bojiy» cherkovi 1992–2001-yillarda To'liq injil xristianlar cherkovlari markazi tarkibida bo'lgan. 2001-yil cherkov markazdan ajralib chiqib, hozirda protestant yo'nalishidagi mustaqil diniy tashkilot sifatida faoliyat olib bormoqda. Tashkilot aqidaviy jihatdan Uilyam Merrion Branxam (1909–1965) ta'limotiga amal qilishini e'lon qilgan. Golos Bojiy cherkovida ibodatlar chorshanba kuni kechqurun va yakshanba kuni ertalab amalga oshiriladi. Pastor bo'lmagan taqdirda U. Branxamning audio yoki videotasmaga yozilgan ma'ruzalari yoki ma'ruza tarjimalari tinglanadi.

U. Branxamning ko'rsatmasiga ko'ra, mazkur ta'limotga e'tiqod qiluvchi jamoalarning barchasi mustaqil sanalib, ular ustidan yagona ras-

miy boshqaruv tizimi yo‘q. 1990-yillardan U. Branxamning ta‘limoti Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlar hududiga kirib kela boshlagan. Cherkov adeptlari ayrimlarining missiонерlik faoliyati bilan shug‘ullanishi kuzatilmoqda.

**Din** (arab. e‘tiqod, ishonch) muayyan ta‘limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida shakli, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo‘lganidan to bizgacha o‘tgan davrlarning ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy kuchdir.

**Diniy bag‘rikenglik** – turli din vakillari e‘tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat‘i nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta‘limotga hurmat bilan qarashi.

**Diniy tashkilot** – diniy jamoalarning rasmiy uyushmasi.

**Diniy tashkilotlar** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e‘tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e‘tirof etiladi.

**Diniy ekstremizm** – jamiyat uchun an‘anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, diniy ta‘limotlari buzib talqin qilingan g‘oyalarni aldov va zo‘rlilik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyot.

**Diniy g‘oyalar** – diniy da‘vatlar, aqidalar, ilohiy qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar majmui. Ular turli dinlarning amal qilish yo‘lini belgilab olishda namoyon bo‘ladi. Diniy g‘oyalar muayyan dinning mavjudligini ta‘minlab beruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Yevangel xristian-baptistlar cherkovi** (grek. – suvga botirmoq, suvga sho‘ng‘itib cho‘qintirmoq) XVII asrda Angliyada vujudga kelgan protestant yo‘nalishlaridan biridir. Baptistlarda asosiy e‘tibor mav‘izalarga qaratiladigan ibodatlar haftasiga ikki-uch marotaba o‘tkaziladi. Suvga sho‘ng‘ish orqali cho‘qintirish baptistlarning asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosimga chuqur diniy ma‘no beriladi.

Baptistlikka ko‘ra, har gal vino va non totigan inson vujudida Iso namoyon bo‘ladi. Bu marosim har oyning birinchi yakshanbasida bajariladi, unda faqat baptistlar ta‘limotiga asosan cho‘qintirilganlar qatnashadilar.

2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda baptistlarning 1 ta markazi va 20 ta cherkovi ro‘yxatga olingan.

**Yettinchi kun xristian adventistlar cherkovi** – 1844-yil AQShda yuzaga kelgan xristianlik yo‘nalishi. Iso Masihning yaqin orada qaytishiga

ishonish «Yettinchi kun adventistlari»ning asosiy aqidasi hisoblanadi. Boshqa xristianlardan farqli ravishda, yakshanba kuni emas, haftaning yettinchi kuni – shanba ulug‘lanadi, chunki ularda hafta kunlari yakshanbadan boshlanadi. Shuning uchun ham, mazkur yo‘nalishga mansub kishilarni «Yettinchi kun adventistlari», deb ataydilar. Shanba kuni ishlash, hatto ovqat tayyorlash ham mumkin emas. Butun kun ibodatga bag‘ishlanadi. Ular Isoning tirilishi va «oxir zamonni» kutib yashaydilar.

O‘rta Osiyoda dastlabki adventistlar XIX asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishi Rossiya adventistlari faoliyati bilan bog‘liq. 1910-yilda Toshkentda ilk adventistlar jamoasi tuziladi.

2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda 9 ta «Yettinchi kun adventistlari» diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

**Jaholat** (arab. «jahila») – «bilmaslik» Islom dinidan oldingi davrning «johiliyat davri» deb atalishi sababi ham shunda.

**Jihad** (arab. «g‘ayrat qilish», «kuchni ishga solish») – «jiddu-jahd», ya‘ni insonning ezgu maqsadlar yo‘lida bor imkoniyatlarini ishga solib harakat qilishi. Istilohda ushbu so‘z bir qancha ma‘nolarda ishlatiladi. Jumladan, «jihad» – Allohning yo‘liga da‘vat qilish, yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish, Alloh yo‘lida insonning o‘z havoyi-nafsigaga qarshi kurashi, ota-onaga xizmat qilish, o‘z tug‘ilib o‘sgan Vatanini himoya qilish, yovga qarshi kurashish kabi turlari mavjud.

**Johiliya** (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim oroli-ning islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan. Aniqroq aytganda, odamlar hayotida Iso (a.s.) bilan Muhammad (a.s.) oralig‘idagi payg‘ambar-siz o‘tgan davr tushuniladi. Hozirda ayrim diniy oqimlar tomonidan ba‘zi mamlakatlarni o‘zlaricha diniy ibodatlar yetarli darajada bajarilmaydi, deb johiliyada ayblash odati mavjud.

«**Iyegovo guvohlari**» **cherkovi** yo‘nalishga Charlz Teyz Rassel (1852–1916) tomonidan asos solingan. Yo‘nalishning diniy ta‘limoti uning yetti tomlik «Muqaddas Yozuvni o‘rganish» kitobiga asoslanadi.

«Iyegovo guvohlari» Uchlik haqidagi aqidani rad etadilar, lekin boshqa yo‘nalishlar kabi uning barcha ko‘rinishlarini izohlashadi. Ular Xudoning o‘z shaxsiy ismi bor, bu ism «Iyegovo»dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar.

«Iyegovo guvohlari» faqatgina Iso Masih o‘limini eslash kechalari bilan bog‘liq bayramni nishonlaydilar. Shu kuni jamoa a‘zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qiladilar. Dasturxonda Isoning tanasi va qoni ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo‘lishi shart.

O'rta Osiyoda «Iyegovo guvohlari» diniy tashkilotining ilk jamiyatlari 1950-yillarda paydo bo'lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda «Iyegovo guvohlari»ning bitta tashkiloti rasman ro'yxatga olingan.

**Immunitet** (lotin. *immunitas* – «ozod bo'lish», «qutulish») deganda, tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini caqlashi, o'zini turli zararli ta'sirlardan himoya qilishga qodir bo'lgan xususiyatlari majmui tushuniladi. Mafkuraviy immunitet degan tushuncha ham borki, hozirda butun dunyoni mafkuraviy bo'lib olish, inson ongini egallashga bo'lgan intilishlar avj olgan davrda kishilar, ayniqsa yoshlarda bu kabi ma'naviy tahdidlarga qarshi milliy qadriyatlarimiz, tarixiy an'ana va urf-odatlarimiz bilan yo'g'rilgan mafkuraviy immunitetni hosil qilish dolzarb vazifalardandir.

**Injil** (yunon – Yevangeliye) «Yangi Ahd»dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblarni nazarda tutadi. Ularda Iso Masihning hayot yo'li va mo'jizalari bayon qilingan.

**Ixtilof** (arab. tafovut, har xillik, farq) – islom ilmlarida ikki teng kuchli olimlarning bir-biridan farqli fikr bildirishi. Ixtilof ikki xil bo'ladi: birinchisi, bir narsaning ichidagi ixtilof bo'lib, unga ruxsat berilgan. Bu xildagi ixtiloflarga to'rt mazhab ichidagi farqliklar kiradi. Ikkinchisi, bir narsaga qarshi ixtilof bo'lib, u taqiqlangan. Bunga Alloh, uning sifatlari borasidagi aqidaviy ixtiloflar kiradi.

Hozirda ba'zi buzg'unchi oqimlar musulmonlar o'rtasida turli diniy masalalarda ixtilof va fitnalar chiqarib, jamiyatda parokandalikni yuzaga keltirishga urinadilar.

**Konfessiya** – (lot. «*confession*» – e'tirof, e'tiqod) – e'tiqod qilish. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Bugungi kunda O'zbekistonda 2015-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, 16 konfessiyaga mansub jami 2238 ta diniy tashkilot, jumladan, 2039 ta masjid, 20 ta markaz, 12 ta diniy ta'lim muassasasi, 3 ta monastir, shuningdek jami 164 ta noislomiy diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

**Koreys protestant cherkovlari** – Koreys protestant cherkovlari sifatida tashabbuskor guruhning asosiy koreys millatiga mansub fuqarolar tashkil etgan protestant yo'nalishidagi diniy tashkilotlar e'tirof etilib, ushbu cherkovlarning aksariyatiga mustaqillikning dastlabki yillarida



AQSH va Janubiy Koreyadan maxsus yuborilgan pastorlar rahbarlik qilgan.

Hozirda O‘zbekistonda jami 35 ta koreys protestant diniy tashkilotlari rasmiy ro‘yxatga olingan bo‘lib, ular Toshkent shahri (7), Jizzax (1), Navoiy (1), Namangan (1), Samarqand (5), Sirdaryo (3), Surxondaryo (1), Toshkent (13), Farg‘ona (2) va Qashqadaryo (1) viloyatlarida joylashgan. Konfessional jihatdan ular quyidagicha tasniflanadi:

1) Baptistlar cherkovlari: Toshkent viloyati (2), jami 2 ta.

2) Metodistlar cherkovlari: Toshkent shahri (1), jami 1 ta.

3) Presviterian cherkovlar: Toshkent shahri (4), Jizzax (1), Navoiy (1), Samarqand (5), Sirdaryo (3), Surxondaryo (1), Toshkent viloyati (7) va Qashqadaryo (1), jami 23 ta.

4) To‘liq injil xristianlari (pyatidesyatniklar) cherkovlari: Toshkent shahri (2), Namangan (1), Toshkent viloyati (4) va Farg‘ona (2), jami 9 ta.

Koreys protestant cherkovlari an‘anaviy xristian bayramlari – Rojdestvo, Pasxa, Troitsadan tashqari, Hosil kuni (Jatva), Onalar kuni kabi bayramlarni nishonlaydilar.

**Kostel** (polya., chex. – cherkov) – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

**Krishnani anglash jamiyati** – Asoschisi Shрила Bxaktivedanta Svami Prabxupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977). 1965-yilda A.CH.Bxaktivedanta Svami AQShga ko‘chib o‘tgan va «Xalqaro Krishnani anglash jamiyati»ni tuzdi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud.

Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e‘tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga «Bxagavad gita»dan tashqari boshqa «Veda» matnlari ham kiradi.

«Xalqaro Krishnani anglash jamiyati»da o‘z ergashuvchilarining mol-mulklarini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniylilik vazifasiga o‘tishlari rag‘batlantiriladi. Bu ta‘limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a‘zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar. 2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda krishnachilarning 1 ta diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

**Mavlid** – hijriy yil hisobi bo‘yicha rabiul-avval oyining 12 kunida Muhammad (a.s.)ning tug‘ilgan kunlari sharafiga o‘tkaziladigan marosim.

**Mazhab** – (arab. yo‘l) islomdagi shariat qonunlari tizimi, fiqhiy yo‘nalish. Butun musulmon olamida mo‘tadil deb tan olingan to‘rtta mazhab hanafiylik, shofeiylilik, molikiylik va hanbaliylik bilan bir qatorda shialik ham fiqhiy mazhab hisoblanadi. Ushbu mazhablar ulamolari turli diniy masalalarni musulmon xalqlariga ularning yashash shart-sharoitlaridan kelib chiqib sodda va yengil tarzda bayon qilib berganlar. Bu borada mazhablarning o‘rtasida farq bo‘lishi tabiiydir.

Hozirda dunyodagi musulmonlarning deyarli yarmi hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston, O‘rta Osiyo va h.k.) qolgan qismi molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofe‘iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) mazhablari, shuningdek, shialik (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning ja‘fariylik mazhabiga amal qilib kelmoqda. O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan. Hanafiylik mazhabi o‘z mohiyati, ta‘limoti va qo‘llagan uslubi bilan jamiyatda yuzaga keladigan diniy muammolarni bag‘rikenglik bilan ijobiy hal etib, har qanday murakkab savolga javob topa olgan.

Hanafiy mazhabi insonlarning diniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarini Qur‘on va hadisga asoslanib, ularning yashash tarzi va urf-odatlarini ham inobatga olgan holda islom dinining asosiy tamoyili hisoblangan insonning hayoti, mol-mulki, dini, nasl-nasabi va ong-shuurini himoya qilishi va umuman olganda, aholi manfaatini ko‘zlashi kabi xususiyatlarga ega bo‘lgani uchun dunyo musulmonlarining aksariyati ushbu mazhabga ergashadilar. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, ba‘zi mutaassib oqimlar da‘vo qilayotganlaridek, musulmon kishi yuqorida e‘tirof etilgan mazhablarning biriga amal qilishi shart emas, ularning bizga hojati yo‘q, deyishlari umuman asossizdir. Har bir musulmon o‘zi yashayotgan mintaqada tarqalgan fiqhiy mazhab ko‘rsatmalariga amal qilishi va diniy ulamolarning so‘zlariga itoat etishi zarur. Aks holda dinda chuqurlashib, zalolatga yuz tutishi muqarrarligi hayotimizda yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda.

**Millat** – (arab. «millat» – xalq) kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

**Millatparastlik** – millatlarning tengligini inkor etib, o‘z millatini boshqa millatlardan yuqori qo‘yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal ko‘rish.

**Millatlararo totuvlik** – milliy istiqolol mafkurasining asosiy g‘oyalardan biri bo‘lib, u muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

**Missionerlik** – (lotin. «missio» fe’lidan «yuborish», «vazifa topshirish», missioner «vazifani bajaruvchi») bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish bilan bog‘liq nazariy va amaliy faoliyatni bildiradi.

**Mitropolit** – (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining oliy ruhoniylk unvoni.

**Mutaassiblik** – o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lish. Mutaassiblikka yo‘liqqan shaxs yoki guruhlar jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadilar.

**Nemis Yevangel-Lyuteranlar cherkovi** – 1517-yil 31-oktabrda vittenberglik ruhoniyl Martin Lyuter tomonidan asos solingan protestantlikning dastlabki yo‘nalishlaridan biri.

Lyuteranlikda protestantlikning boshqa yo‘nalishlari kabi ibodat marosimlari soddalashtirilgani bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birga, xristianlikning yetti sehrlil marosimlaridan cho‘qintirish hamda «non va vino totish» tan olingan holda qolganlariga oddiy marosimlar sifatida qaraladi.

Lyuteranlar jamoasi O‘zbekistonda ilk marta Toshkent shahrida 1885-yildan rasmiyl faoliylat ko‘rsata boshlagan. 1896-99-yillarda lyuteranlar ibodatxonasi (kirxa) qurilgan. 1992-yil 8-sentabrda Nemis Yevangel-Lyuteranlar cherkovi rasmiyl ro‘yxatdan o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-maydagi qarori bilan kirxa lyuteranlarga qaytarib berildi. Respublikamizda 2015-yilning 1-oktabriga qadar yevangel-lyuteranlar cherkovining 2 ta diniyl tashkiloti ro‘yxatga olingan.

**Novoapostol cherkovi** – XIX asrning o‘rtalarida Angliyada vujudga kelgan protestantlik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Cherkov ta’limotiga ko‘ra, Xudo ruhoniylarning duo va fotihalari sababli bandalariga o‘zining mehru muruvvatini ato qiladi.

Marhumlar ruhiga bag‘ishlab bir yilda uch marotaba (mart, iyul va noyabr oylarining birinchi yakshanba kunlarida) o‘tkaziladigan diniyl marosimlar ham «Novoapostol cherkovi»ning o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu marosimlarda marhumlarning qarindoshlari va ruhoniylar ishtirok etib, Xudodan ularning bu dunyoda qilgan gunohlarini afv etishini so‘rab, ibodat qiladilar.

«Novoapostol cherkovi» O‘zbekistondagi faoliylatini 1992-yildan boshlagan. 2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda «Novoapostol cherkovi»ning 3 ta diniyl tashkiloti ro‘yxatga olingan.

**Nurchilar** – harakatga Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlog‘ida tug‘ilgan, faoliylatining ilk davrlaridanoq diniyl mutaassiblikka va keskin fikrlashga moyilligini namoyish etgan Said Nursiy (1876-1960)

tomonidan asos solingan. Tashkilotning strategiyasi uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib, asta-sekinlik bilan yoshlarni islomiyashtirish va panturkizm g'oyalarini singdirish, o'z vakillarini rahbar lavozimlarga o'tkazishni ta'minlash orqali «Nurchilar» jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan.

**Panislomizm** – XIX asrning oxirlarida O'rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqqan siyosiy oqim.

**Papa** – xristian dinidagi katolik oqimining bosh ruhoniysi.

**Pastor** (lot. «cho'pon») – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma'ruzalar o'qish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shug'ullanadi.

**Pasxa** (yunon. ivrit – «yonidan o'tish») – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy-Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o'zgarib turadi.

**Patriarx** – (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoksal cherkovdagi (pravoslaviye) oliy diniy martaba.

**Pesax (Pasxa)** – yahudiylikdagi yillik bayramlar orasida eng e'tiborlisi bo'lib, mart-aprel oylarida o'tkaziladi va sakkiz kun davom etadi. Ushbu bayram yahudiylarning Misrdagi qullikdan ozod bo'lganlari munosabati bilan nishonlanadi.

**Prozelitizm** – to'g'ridan-to'g'ri biron-bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilish.

**Ravvin** – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi.

**Radikalizm** – (lotin. radix - «tomir», «ildiz», «o'zak») maqsad-mudaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilishni anglatadi.

**Rim Katolik cherkovi**, ya'ni **katoliklik** (yunon. – butun jahon) ham 1054-yilda xristianlikning ikkita – g'arbiy va sharqiy cherkovga bo'linishi natijasida tashkil topgan.

Katoliklik Yevropa, Amerika qit'asi davlatlarida keng tarqalgan. Afrika qit'asida ham katoliklik asosiy din hisoblangan mamlakatlar bor. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Avstriya va Lotin Amerikasi davlatlarida asosiy din, Vatikan davlatida esa rasmiy din hisoblanadi. Dunyoda xristianlikning bu yo'nalishiga taxminan 1,076 milliard kishi e'tiqod qiladi.

Katolik cherkovi qat'iy markazlashgan tashkilot hisoblanadi. Rim Papasi – katolik cherkovining boshlig'i, Isoning noibi va apostol Petr

(Butrus)ning<sup>1</sup> o‘rinbosari hisoblanadi. Katoliklarning markazi Vatikanda joylashgan bo‘lib, 1929-yildan Vatikan mustaqil davlat maqomiga ega bo‘ldi. Hozirda 120 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan.

Katoliklarda quyidagi bayramlar nishonlanadi:

1. Iso tug‘ilgan kun (Рождество Христово – 25-dekabr, pravoslav dinida 7 yanvar, arman apostollik cherkovida 6 yanvarda).
2. Xudoning zohir bo‘lishi (Богоявление – 6-yanvar).
3. Me‘roj, ya‘ni Isoning osmonga ko‘tarilishi (Вознесение Господне – Pasxaning 40-kuni, sanasi o‘zgarib turadi).
4. Isoning tana va qoni bayrami (Праздник Тела и Крови Христовых – Pasxa bayramidan 60 kun o‘tgach nishonlanadi).
5. Bibi Maryam kuni (День Пресвятой Девы Марии, Матери Божией – 1-yanvar).
6. Bibi Maryamning pokdomon holida homilador bo‘lishi (Непорочное Зачатие Пресвятой Девы Марии – 8-dekabr).
7. Bibi Maryamning osmonga ko‘tarilishi yoki vafot etishi (Взятие на небо [или Успения] Пресвятой Девы Марии – 15-avgust).
8. Bibi Maryamning qallic‘i Avliyo Iosif kuni (День Святого Иосифа, Обручника Марии – 19-mart).
9. Navoriylar Petr va Pavellar bayrami (День святых апостолов Петра и Павла – 29-iyun).
10. Barcha avliyolar kuni (День всех святых – 1-noyabr).

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkentdagi rim-katolik ibodatxonasi (Kostel) qayta tiklandi va u 2000-yilning 22-oktabrida rasman ish boshladi. 2015-yilning 1-oktabriga qadar O‘zbekistonda 5 ta katolik diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

**Rojdestvo** – xristianlikning asosiy bayramlaridan biri. Iso Masihning odam tanasida mujassam bo‘lib tug‘ilishi kuni munosabati bilan 25 dekabrda o‘tkaziladi. Ushbu bayram haqidagi ilk ma‘lumotlar IV asrga tegishli xristian manbalarida qayd qilingan.

**Rosh a-Shana** – (ibr. «yil boshi»). Yahudiylik milliy taqvimiga ko‘ra yangi yil bayrami bo‘lib, sentabr va oktabr oylarida nishonlanadi.

**Rohib** (yunon. monax – «zohid») – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan voz kechib, tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

**Rus pravoslav cherkovi** yurtimizda mavjud noislomiy konfessiyalar ichida pravoslavlikka e‘tiqod qiluvchilarining ko‘pligi bo‘yicha ajralib turadi.

---

<sup>1</sup> Исонинг 12 хаворийлари (ёрдамчилари)дан бири ва энг обрўлиси.

Pravoslav (rus. – chin e'tiqod) 1054-yilda bo'linib ketishi natijasida shakllangan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biridir.

Asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Bolqon mamlakatlarida keng tarqalgan pravoslavlikka dunyoda taxminan 217 million kishi e'tiqod qiladi. Pravoslavlik diniy ta'limoti «Muqaddas yozuv» («Injil») va «Muqaddas rivoyatlar»ga asoslangan.

Rus pravoslav cherkovi – Moskva patriarxiyasi dunyodagi eng katta mustaqil (avtokefal) pravoslav cherkovidir. Toshkentda Rus pravoslav cherkovining O'rta Osiyo mitropoliyasi mavjud bo'lib, u O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston pravoslavlarining markazi hisoblanadi.

Pravoslavlar asosan quyidagi bayramlarni nishonlaydilar:

1. Iso tug'ilgan kun (Рождество Христово – dunyo pravoslavlarida 25-dekabr, Rus pravoslav cherkovida 7-yanvar).

2. Isoning xatna qilinishi (Обрезание Господне – 14-yanvar).

3. Isoning cho'qintirilishi (Крещение Господне. Богоявление – 19-yanvar).

4. «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»lar birlashgan kun (Сретение Господне – 15-fevral).

5. Ilohiy xushxabar (Благовещение Пресвятой Богородицы – 7-aprel).

6. Isoning Quddusga kirishi (Вход Господень в Иерусалим – 24-aprel).

7. Pasxa (Пасха Господня. Светлое Христово Воскресенье – 1-may).

8. Isoning osmonga ko'tarilib ketishi (Вознесение Господне – 9-iyun).

9. Muqaddas uchlik yoki Pyatidesyatnitsa bayrami (День Святой Троицы или Пятидесятница – 19-iyun).

10. Yahyo payg'ambarning tug'ilgan kuni (Рождество Иоанна Предтечи – 7-iyul).

11. Navoriylar Petr va Pavellar kuni (День Святых первоверховных апостолов Петра и Павла – 12-iyul).

12. Iso Masihning Yermon tog'ida nurlanishi bayrami (Преображение Господне – 19-avgust).

13. Bibi Maryamning vafoti (Успение Пресвятой Богородицы – 28-avgust).

14. Yahyo payg'ambar qatl etilgan kun (Усекновение главы Иоанна Предтечи – 11-sentabr).

15. Bibi Maryamning tug'ilgan kuni (Рождество Пресвятой Богородицы – 21-sentabr).

16. Iso mixlangan xochni tiklash bayrami (Воздвижение Креста Господня – 27 sentabr).

17. Bibi Maryamning 910-yilda Konstantinopol shahri qamali paytida mo'jizaviy paydo bo'lishi bayrami (Покров Пресвятой Богородицы – 14-oktabr).

18. Bibi Maryamning ota-onasi tomonidan ibodatxonada xizmat qilish uchun topshirilishi bayrami (Введение во храм Пресвятой Богородицы – 4 dekabr).

2015-yilning 1-oktabriga qadar O'zbekiston hududida 1 ta markaz, 1 ta seminariya, 3 monastir va 33 ta cherkov - jami 38 ta pravoslavlikka mansub diniy tashkilot ro'yxatga olingan.

**Salaf** – («ajdodlar», «avval yashab o'tganlar») islomda hadislarga ko'ra, Payg'ambar Muhammad (a.s.) zamonida hamda undan keyingi ikki asrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Shunga ko'ra, islom ulamolari ilk musulmonlarni «salaf solih», ya'ni «solih ajdodlar» deb ataydilar. Salaflar va soxta salafiylar o'rtasida katta tafovut bor. Hozirgi paytda, bemazhablikni targ'ib qiluvchi oqimlar o'zlariga «salafiylar» nomini qo'yib olib, go'yoki, salafi solihlar yo'ldan yurayotganini da'vo qiladi. Aslida, ular mamlakatlardagi tinchlik-osoyishtalikni izdan chiqarish, boyliklarini talon-taroj qilib, xalqlarni tobe qilishni maqsad qilib olgan.

**Sekta** – (arab. «firqa») faqat o'zini haq din, insonlarni najotga yetkazuvchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh.

**Separatizm** (frans. separatisme – ajratilgan) – ajralishga, alohida bo'lishga intilish. Davlatning bir qismini milliy, diniy, etnografik, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra ajratib olib, yangi davlat tuzilmasi tuzish yoki uni muxtoriyatga aylantirish harakati.

**Sinagoga** (yun. synagoge – yig'ilish) yahudiylar ibodatxonasi. Sinagogalar Falastinda miloddan avvalgi IV asrda vujudga kelgan. Sinagogada yahudiylarning diniy marosimlari o'tkaziladi. O'zbekistonda hozirgi kunda 8 ta sinagoga rasmiy faoliyat ko'rsatmoqda.

**Tablig'chilar** – (arab. «yetkazish») islom bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan, ammo islom dini asoslarini buzadigan diniy harakat hisoblanadi. «Tablig'chilar jamoasi»ga Muhammad Ilyos Kandehlaviy (1885–1944) ismli shaxs tomonidan 1927-yilda Shimoliy Hindistonning Mevat shahrida asos solingan. Dastlab Hindistondagi musulmonlar orasida faoliyat yuritgan harakat II jahon urushidan keyin Misr, Turkiya, Saudiya Arabistoni va ayrim Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Hozirda harakatning asosiy qarorgohlari Hindistonning Bxopal, Pokistonning Rayvin va

Bangladeshning Dakka shaharlarida joylashgan. «Tabligʻchilar» dunyoviylikni inkor etuvchi, siyosiyashtirilgan va mutaassib diniy mafkurani tashviqot qilish va uning tarafdorlarini koʻpaytirish orqali oʻz taʼsirini butun dunyoga yoyishni maqsad qiladi. Oʻtgan asrning 90-yillarida Oʻzbekistonda ham ularning faoliyati kuzatilgan.

**Takfir** – (arab. – kufirda ayblash, inkor qilish, osiy boʻlish, tan olmaslik) kufr, yaʼni musulmonni kofirlikda, imonsizlikda ayblash. Takfir masalasi dastavval faqat islom aqidasi qabul qilmagan, unga qarshi zid gaplar, amallar qilayotganlarga nisbatan ishlatilgan. Biroq xorijiy oqimi va hozirgi diniy-ekstremistik tashkilotlar tomonidan oʻzlariga qoʻshilmagan musulmonlarni ham kofirlikda ayblash kuzatilmoqda. Hadislarga koʻra, agar biror musulmon boshqa musulmonni kufirda ayblasa, goʻyo uning qonini toʻkkanchalik ogʻir gunohga yoʻl qoʻygan boʻladi. Hyech kimga musulmon insonni «kofir» deb hukm chiqarish huquqi berilmagan.

**Terror** – (lotin. «qoʻrqitish», «vahimaga solish») oʻz fikrini zoʻravonlik yoʻli bilan boshqalarga oʻtkazish. Bu yoʻlda suiqasd, qoʻporuvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

**Turkiston islom harakati** – (sobiq «Oʻzbekiston islom harakati») 1996-yilda tashkil topgan diniy-ekstremistik tashkilot. Uning tarkibiga 1992–93-yillarda faoliyati tugatilgan «Islom lashkarlari» (Namangan), «Adolat uyushmasi» (Namangan), «Oʻzbekiston Islom uygʻonish partiyasi», «Odamiylik va insonparvarlik» (Qoʻqon) kabi qator diniy-ekstremistik guruhlarining faollari kirgan. Harakatning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida «Buyuk islom xalifaligi»ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volgaboʻyi respublikalarini ham qamrab olishdan iboratdir.

**Toʻliq injil xristianlari (пятидесятниклар)** – 1901-yil 1-yanvarda AQShda paydo boʻlgan protestantlikning yirik oqimlaridan biri. «Пятидесятник»lik diniy hayotda «Muqaddas Ruh inʼomlari» degan tushunchaga tayanadi. Shuningdek, Isoning ikkinchi marta qaytishi, oxir zamon va ming yillik hukmronligi oʻrnatilishining yaqinligi targʻib qilinadi.

2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda «Toʻliq injil xristianlari»ning 1 ta markazi, 1 ta seminariyasi, 38 ta cherkovi roʻyxatga olingan.

**Fanatizm** «mutaassib», «gʻazablangan», «jazavasi tutgan» maʼnolarini bildiradi.

**Firqa** – (arab. – ajralmoq, farqlanmoq) maʼlum bir gʻoya asosida birlashib, islomdagi anʼanaviy diniy jamoadan ajralgan guruhlar va toifalar.

**Fundamentalizm** – maʼlum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish, bu yoʻl bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin, degan fikrni ilgari surish.



XX asrning 70-yillaridan fundamentalizm soʻzi islomga nisbatan qoʻllanila boshlandi. Islomni niqob qilib olgan fundamentalistlar Qurʼon va hadislarni soʻzma-soʻz talqin etish va ilk islomga qaytishni targʻib qiladi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar «fundamentalistlar» deb atalmoqda. Ularning baʼzilari terror usullari bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda oʻzini namoyon etsa, boshqalari targʻibot va tashviqot ishlari, diniy taʼlim bilan, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, audio va videomateriallarni tarqatish bilan shugʻullanadi. Musulmon fundamentalistlari Gʻarb turmush tarzi va Gʻarb tovarlarining isteʼmoliga qarshi kurash, dinsiz yoki «sof islomdan chekingan» davlat rahbarlarini jismonan yoʻq qilish kabi gʻoyalarni ilgari suradilar. Ularning talqinida aziz avliyolar qabrini eʼzozlash ham butparastlikka kiradi.

**Xalifa** – (arab. – oʻrinbosar, noib) ilk islom davrida jamoa hayotini shariat boʻyicha tartibga solish va Alloh taolo koʻrsatmalariga musulmonlar tomonidan amal etilishini nazorat qilish uchun saylab qoʻyilgan musulmon jamoasi rahbari. Abu Bakr Siddiq (r.a.) birinchi xalifa, boʻlgan, undan keyin Umar, Usmon, Ali (r.a.) xalifalik qilganlar. Ular xulafoi roshidunlar, yaʼni toʻgʻri yoʻldan boruvchi xalifalar deb atalgan. Ular bilan, hadislarda aytilganidek, xalifalik yakuniga yetib, podshohliklar davom etgan. Bundan keyin kelgan rahbarlar garchi xalifa deb atalsalar-da, amalda podshohlar boʻlganlar. Hozirgi kunda bir necha ekstremistik oqimlar birlashib, goʻyo «islom davlati»ni tuzib unda «xalifalik» eʼlon qilmoqda. Dunyo musulmon ulamolari kengashi tomonidan bunday holat keskin qoralanib, islom dini taʼlimotlariga umuman zid ekani, qandaydir alohida firqa va oqimlarga oʻzboshimchalik bilan «xalifalik» eʼlon qilish huquqi berilmagani taʼkidlangan.

**Xalqaro terrorizm** – davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qoʻporuvchilik faoliyatini ifodalaydi. U eng ogʻir jinoyat boʻlib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

**Shahid** – (arab. – guvohlik, hozir boʻlmoq) ushbu darajaga erishgan insonlarga jannat yoki koʻplab yaxshiliklar bashorat qilinganiga farishtalar guvoh, yaʼni shohid boʻlgani sababli, aynan ushbu soʻz ishlatilgan. Istilohda esa, Alloh taolo yoʻlida dushman bilan boʻlgan jangda Vatani, oilasi, millati, dinini himoya qila turib vafot etgan inson nazarda tutiladi. Hozirda oʻzini portlatib begunoh insonlarning umriga zomin boʻlgan shaxslar aslo «shahid» hisoblanmay, islom taʼlimotida eng ogʻir gunohga yoʻl qoʻygan kishilar sanaladi.

Islom dinida jon ne'matiga Allohning eng buyuk va qadrli ne'matlaridan biri, deb qaraladi. Bu ne'matning qadriga yetmaganlarga ulkan azoblar borligi haqida Qur'oni karim va hadislarda ko'plab ko'rsatmalar kelgan. Jumladan, Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisi qudsiyda shunday deyiladi: *Alloh taolo marhamat qilurki: «Bandam o'zini-o'zi o'ldirib, Mening unga bergan umringa shukr qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom qildim».*

**Shia** – (arab. – guruh, tarafdor) Islomdagi asosiy yo'nalishlardan biri, Ali ibn Abu Tolib (r.a.) va uning avlodlarini Payg'ambar Muhammad (a.s.)ning yagona vorisi hamda ma'naviy davomchilari, deb e'tirof etuvchi turli guruh va jamoalarning umumiy nomi. O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Hozir jahondagi musulmonlarning qariyb sakkiz foizi shialikka mansub hisoblanadi.

**Ekstremizm** – (lotin. «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») o'z maqsadi yo'lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik, jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo'lgan keskin radikal qarashlar.

**E'tiqod** – (arab, «ishonch», «imon») – inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, muayyan hodisa, voqyelik yoki narsaga qat'iy munosabat, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha.

**E'tiqod erkinligi** – shaxsning muayyan bir dinga e'tiqod qilish huquqi. Kishining kundalik ehtiyojiga aylangan intilish, xatti-harakat va dunyoqarashlar tizimi.

**Yahudiy diniy jamoasi** – yahudiylik dini yahudiy xalqining yakka-xudolikka asoslangan dinidir.

Eng qadimiy dinlardan biri hisoblanadigan yahudiylik Isroil, AQSH, Kanada, Rossiya va dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlarida tarqalgan. Yer yuzida taxminan 15 million kishi ushbu dinga e'tiqod qiladi.

Yahudiylarning yillik bayramlari quyidagilar:

1. Pesax (Pasxa) bayrami. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli ravishda yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Pasxa bayramidan keyingi yetti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – matsa yeyiladi. Matsani yeyish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadi.

2. Shebbuot (shevuot) bayrami. Pasxadan keyingi 50-kuni nishonlanadi. Bu bayram Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan «Tora»ning berilishini nishonlab o'tkaziladi.

3. Rosh a-Shana. Kuzda nishonlanadigan yangi yil bayrami – yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo‘chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, gunohlari qolmasligi uchun cho‘ntaklarini to‘ntarib, yaxshilab qoqadilar.

4. Yom-Kipur gunohlardan poklanish bayrami. Rosh a-Shona va Yom-Kipur bayramlari o‘rtasida ro‘za tutiladi. Ro‘za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski kiyimlarga o‘ranib yuradilar. Sinagogada nadomatlar bilan yig‘lab, tavba qiladilar.

5. Purim (Qur‘a) bayrami. Yahudiy bayramlari ichida eng quvnog‘i hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarning ularni qirib tashlamoqchi bo‘lgan Fors podshohi zulmidan qutulganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi.

Milliy din hisoblangan yahudiylikda boshqa millatlarni o‘z dinlariga da‘vat etish qat‘iyan man etilgani uchun ham ularning faoliyatida missio-nerlik harakati kuzatilmaydi. 2015-yilning 1-oktabriga qadar respublikamizda 8 ta yahudiy diniy jamoasi rasmiy ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat olib bormoqda.

**O‘zbekiston Bibliya jamiyati.** Bibliya jamiyatlari – Bibliyani ommalashtirish maqsadida tuziladigan xristian tashkilot va uyushmalari bo‘lib, ko‘proq protestantlar tomonidan tashkil etiladi. Dastlabki Bibliya jamiyat-lari XVII–XVIII asrlarda Angliyada vujudga kelgan.

**Bibliya jamiyati uyushmasi** (BJU, ingliz. – «United Bible Societies») – milliy Bibliya jamiyatlarini birlashtiruvchi xalqaro xristian tashkiloti. Buyuk Britaniyada 1946-yili G‘arbiy Yevropada joylashgan 13 ta Bibliya jamiyatining uyushmasi sifatida tashkil etilgan.

O‘zbekiston Bibliya jamiyati BJUning a‘zosi bo‘lib, tashkilot 1994-yilda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan.

**Hijrat** – (arab. biror narsadan ajrash, ko‘chib o‘tish). Istilohda esa, Payg‘ambar (a.s.)ning Makkadan Madinaga ko‘chib o‘tishlariga aytiladi. Ulamolar hijrat to‘g‘risida nozil bo‘lgan oyat va hadislarini o‘rganib, uni ikki qismga ajratadilar. Biri yuqorida ta’kidlangan «ko‘chish» ma’nosidagi hijratdir. Ikkinchisi, inson gunohlardan o‘zini tiyishi va ularni tark qilishi, ya’ni yomon xulqdan yaxshi xulqqa ko‘chish, tushuniladi. Musulmonlar Makka shahrini jangsiz qo‘lga kiritganlaridan so‘ng Payg‘ambar (a.s.) «*Hijrat to‘xtatildi*», deb ta’kidlaganlar. Muhammad (a.s.) va u zotdan keyingi xulafoi roshidunlar (to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar) o‘zga yurtlarda yashayotgan musulmonlarni hech qachon musulmon davlati hududiga ko‘chib kelishlariga da‘vat qilmagan va ularning o‘z yurtlarida yashashlariga e’tiroz bildirmaganlar.

Hozirgi kunda ba’zi mutaassib oqimlarning «hijrat qilmaganlar kofir, kofir yurtda yashamoqlik kufr» degan soxta da‘vo bilan vatandoshlari-

mizni aldab, xoriydagi janggarilar tayyorlanadigan markazlarga jo‘natishga harakat qilmoqda. Vaholanki, ona yurtini tashlab, o‘zga ellarda sarson-sargardon yurish, o‘zi kabi manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to‘kilgan yurtiga qarshi qurol ko‘tarish islom ta’limotiga zid ekani barchaga ma’lum. Aksincha, Vatanni himoya qilish naqadar ulug‘ savob, har bir musulmon zimmasidagi burch hamda sharaflı vazifa ekani muqaddas manbalarda ko‘p bora zikr etilgan. Jumladan, Imom Tabaroniydan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambarimiz (a.s.): «*Alloh taolo roziligi yo‘lida bir kun chegara hududida posbonlik qilish bir oy kechalari ibodat qilib, kunduzlari nafl ro‘za tutishdan afzaldir*», deb marhamat qilganlar. Boshqa bir hadisda esa «*Kechalari Allohdan qo‘rqib, yosh to‘kkan ko‘zni va Alloh yo‘lida tunlari posbonlik qilib, mijja qoqmagan ko‘zni do‘zax o‘ti kuydirmaydi*» deb ta’kidlangan. Islom ta’limotiga muvofiq, O‘zbekiston kabi musulmonchilik amalda bo‘lgan, islom arkonlari emin-erkin bajarib kelinayotgan hududdan «hijrat» qilinmaydi. Vatanni sotish, o‘z yurti va vatandoshlariga zarar yetkazish bilan ota-onani norozi qilib «oq» bo‘lish esa og‘ir gunoh hisoblanadi.

**Hizb ut-tahrir al-islomiy** – (arab. «Islom ozodlik partiyasi») islom aqidalarini g‘arazli maqsadlari yo‘lida bayroq qilib olgan diniy-ekstremistik tashkilot. Unga 1953-yilda Taqiyuddin Nabahoniy (1909–1979) tomonidan asos solingan. Dastavval Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlari birlashtiruvchi yagona xalifalik davlati qurishni bosh maqsad deb e’lon qilgan.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA‘MURIY JAVOGBARLIK TO‘G‘RISIDAGI KODEKSIDAN**

### **184-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish maqsadida saqlash**

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rluk bilan ko‘chirib yuborishga da‘vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash –

materiallarni hamda ularni tayyorlash va tarqatishning tegishli vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

### **184<sup>1</sup>-modda. Fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlari –

eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

### **184<sup>2</sup>-modda. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish**

Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, –

materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

### **184<sup>3</sup>-modda. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish**

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, –

materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

### **201-modda. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish**

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish –

eng kam ish haqining oltmish baravaridan sakson baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish –

eng kam ish haqining sakson baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

**202<sup>1</sup>-modda. G'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalarning faoliyatida qatnashishga undash**

O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

**240-modda. Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish**

Nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi, dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o'tkazish –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

**241-modda. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish**

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish –

eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSIDAN

### **145-modda. Vijdon erkinligini buzish**

Diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qilish —

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish —

eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sqinlik qilish bilan, dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish bilan yoxud shaxsning sha’ni va obro‘cini kamsituvchi chora-tadbirlar qo‘llash bilan yoki diniy ta’lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish, shuningdek diniy marosimlar o‘tkazishni tashkil etish shaxs badaniga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

eng kam ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorizm — xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rluk, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita

har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat —

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to‘sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish —

o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsning harakatlari jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

**155<sup>1</sup>-modda. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik**

Ushbu Kodeksning 155, 155<sup>2</sup>, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma’lum bo‘lgan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to‘g‘risida xabar qilmaslik, —

eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlarga nisbatan o‘sha qilmish:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, —

eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



## **155<sup>2</sup>-modda. Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish**

Shaxsning terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o‘tkazilayotganligi o‘zi uchun ayon bo‘lgan o‘quvdan o‘tishi, shu jumladan mazkur jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko‘nikmalarini egallashi, o‘quv chog‘ida qurol-yarog‘, portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofda gilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o‘rganishi, —

eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, agar u terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255<sup>1</sup> va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o‘tkazilayotganligi o‘zi uchun ayon bo‘lgan o‘quvdan o‘tganligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilsa, sodir etilgan jinoyatni fosh qilishga yoki bunday o‘quvdan o‘tgan, bunday o‘quvni amalga oshirgan, tashkil etgan yoxud moliyalashtirgan boshqa shaxslarni, shuningdek o‘quv o‘tkazilgan joyni aniqlashga faol ko‘maklashsa va agar uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi mavjud bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

## **156-modda. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish**

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

eng kam oylik ish haqining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy sha‘n-sharaf va qadr-qimmatni kamsitishga, diniy e‘tiqodiga yoki daxriyligiga qarab, fuqarolarning his-tuyg‘ularini haqoratlashga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, milliy, irqiy, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish, —

ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;

b) badanga og'ir shikast yetkazgan holda;

v) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo'rlik ishlatib ko'chirgan holda;

g) mansabdor shaxs tomonidan;

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;

### **159-modda. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi-ga tajovuz qilish**

O'zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish —

eng kam oylik ish haqining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyat konstitutsiyaviy organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki ularni Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo'ravonlik harakatlari, shuningdek, davlat hokimiyati vakolatli organlarining O'zbekiston Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik —

eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlagan holda sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyatni bosib olish yoki O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini ag'darib tashlash maqsadida fitna uyushtirish —

o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fitna to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergan shaxs, basharti, ko'rilgan choralar natijasida fitnaning oldi olingan bo'lsa, jazodan ozod qilinadi.

**216-modda. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish**

G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash, shuningdek bunday birlashmalar yoki tashkilotlar faoliyatida faol qatnashish —

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**216<sup>1</sup>-modda. G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash**

O'zbekiston Respublikasida g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**216<sup>2</sup>-modda. Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish**

Nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o'tkazish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**217-modda. Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish**

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish yoxud o'tkazish tartibini ularning tashkilotchisi tomonidan buzish shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o'tkazish qoidalarini buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,—

eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**229<sup>2</sup>-modda. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish**

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**244<sup>1</sup>-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish**

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan

ma'lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanish, —

eng kam ish haqining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida ko'rsatilgan harakatlari:

a) oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan;

b) xizmat mavqeyidan foydalanib;

v) diniy tashkilotlardan, shuningdek chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolaridan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**244<sup>2</sup>-modda. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish**

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish —

besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlari — og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa —

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to'g'risida o'z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo'lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

**244<sup>3</sup>-modda. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish**

Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

## **O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bo‘yicha faoliyat O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faqat davlat dinshunoslik ekspertizasi o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy mazmundagi materiallarda materiallarning to‘liq nomlanishi, mazmuni, muallifi, tayyorlovchisi, tayyorlangan sanasi va joyi, adadi va boshqa ma’lumotlar davlat tilida ko‘rsatilishi shart.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**diniy mazmundagi materiallar** (keyingi o‘rinlarda materiallar deb ataladi) — dunyodagi turli dinlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta’limoti va sharhlari hamda marosimlarini o‘tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD diskleri, Internet tarmog‘ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar);

**tayyorlash** — O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni nashr etish, qayta nashr etish va nusxa ko‘chirish;

**olib kirish** — xorijda tayyorlangan diniy mazmundagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetkazib berishning har qanday shakli;

**tarqatish** — O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni sotish, obuna bo‘lish, yetkazib berish, tarqatish, yuborish va realizatsiya qilish;

**davlat dinshunoslik ekspertizasi** (keyingi o‘rinlarda ekspertiza deb ataladi) — Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (keyingi o‘rinlarda vakolatli organ deb ataladi) tomonidan diniy mazmundagi materiallarni tadqiq etish jarayoni;

**ekspertiza xulosasi** (keyingi o‘rinlarda xulosa deb ataladi) — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan bajariladigan diniy mazmundagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga ruxsat berish (ruxsat bermaslik) masalasini hal etish uchun ko‘rsatilgan materiallarda diniy qonun-qoidalardan og‘ishganlik yoki buzib ko‘rsatishning borligiga oid ilohiyotshunoslik tadqiqotlari o‘tkazilganligini rasman tasdiqlovchi yozma hujjat;

**tayyorlash, olib kirish, tarqatish man etilgan diniy mazmundagi materiallar ro‘yxati** — Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo‘lishi taqiqlangan diniy mazmundagi materiallarning har yili tuziladigan ro‘yxati;

**talabgor** — xulosa berish to‘g‘risidagi ariza bilan vakolatli organga murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

## **II. Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash**

5. Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Tayyorlashga mo‘ljallangan materiallarning nazorat nusxasi va zarur ma’lumotlar ekspertizani amalga oshirish uchun vakolatli organga yetkazib berilishi lozim.

7. Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tayyorlanadigan materiallar ekspertiza o‘tkazilganidan keyin materialning muallifi va nomlanishi, noshir manzili, adadi (tiraji), materialning qisqa mazmuni va sharhi hamda tayyorlangan sanasi ko‘rsatilgan axborotga ega bo‘lishi lozim.

8. Materiallarni tayyorlashga o‘n ish kuni davomida o‘tkaziladigan va yakunida xulosa rasmiylashtiriladigan ekspertizadan keyin yo‘l qo‘yiladi.

### **III. Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish**

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mitasi davlat chegarasida olib qo‘yilgan materiallar ekspertizadan o‘tkazish uchun vakolatli organga o‘z vaqtida yuborilishini ta‘minlaydi.

10. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan taqiqlangan materiallar ro‘yxatiga kiruvchi materiallar ekspertiza o‘tkazilganidan keyin bojxona organlari yoki davlat chegarasini qo‘riqlash organlari tomonidan musodara qilinadi.

11. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun har bir nomlanishdagi materialdan uch nusxadan oshmagan miqdorda, agar ular taqiqlangan materiallar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazilgandan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

12. Vakolatli organ diniy material namunasi olingandan keyin o‘n ish kunidan oshmagan muddatda muayyan material O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi to‘g‘risidagi masalani keyinchalik hal etish uchun tegishli organga xulosa taqdim etadi.

13. Vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida ommaviy ziyorat tadbirlari o‘tkaziladigan vaqtda ekspertizaning bevosita bojxona nazorati punktlarida o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

### **IV. Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish**

14. Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turg‘un savdo shoxobchalari orqali fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari, to‘lov terminallarini qo‘llash va pul tushumlarini bankka kundalik inkassatsiya qilib topshirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Materiallarni ko‘chma savdo shoxobchalarida sotish taqiqlanadi.

15. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kutubxonalari, shuningdek boshqa kutubxonalarning (fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tijorat tashkilotlari



kutubxonalarini) vakolatli organ xulosasini olmay turib, xorijiy ishlab chiqaruvchilardan materiallarni qabul qilishlari taqiqlanadi.

16. Vakolatli organ va boshqa manfaatdor tashkilotlar materiallarning noqonuniy tarqatilishi holatlarini aniqlash va oldini olish tadbirlarini hamkorlikda amalga oshiradilar.

17. Ekspertizaning ijobiy xulosasi O'zbekiston Respublikasi hududida materiallarning muayyan turini tarqatish huquqini beradi.

18. Materiallarni quyidagi maqsadlarda tarqatishga yo'l qo'yilmaydi: jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeiga qarab yoki boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoxud o'zga shaxslar mahsulotlarini obro'sizlantirish;

O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumi, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish;

urush, zo'ravonlik, terrorizm, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib etish;

milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborotni tarqatish;

diniy e'tiqodni o'zgartirishga da'vat qilish;

dindorlarning diniy tuyg'ularini haqorat qilish yoki kamsitish;

fuqarolarni o'z konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarmasslikka chaqirish;

davlat, jamoat yoki diniy tashkilotlarning huquqlari va mol-mulkiga tajovuz qilishga undash;

giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ'ib qilish;

qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirishga undash.

## **V. Ushbu Nizomni buzganlik uchun javobgarlik**

19. O'zbekiston Respublikasi hududida materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bilan bog'liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

20. Ushbu Nizom normalarini buzishda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javob beradilar.

## **Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida**

### **NIZOM**

1. Ushbu Nizom diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazish tartibi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish va tarqatishga mo'ljallangan diniy mazmundagi materiallarning davlat dinshunoslik ekspertizasini amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish va tarqatishga mo'ljallangan diniy mazmundagi materiallarning davlat dinshunoslik ekspertisasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**davlat dinshunoslik ekspertisasi** (keyingi o'rinlarda ekspertiza deb ataladi) — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita (keyingi o'rinlarda vakolatli organ deb ataladi) tomonidan mutaxassislar, ekspertlar va diniy tashkilotlar vakillari ishtirokida bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD disklari, Internet tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar) va diniy mazmundagi boshqa materiallarni tadqiq etish jarayoni;

**ekspertiza xulosasi** (keyingi o'rinlarda xulosa deb ataladi) — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan bajariladigan diniy mazmundagi materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga ruxsat berish (ruxsat bermaslik) masalasini hal etish uchun ko'rsatilgan materiallarda diniy qonun-qoidalardan og'ishganlik yoki buzib ko'rsatishning borligiga oid ilohiyotshunoslik tadqiqotlari o'tkazilganligini rasman tasdiqlovchi yozma hujjat;

**diniy mazmundagi materiallar** (keyingi o‘rinlarda materiallar deb ataladi) — dunyodagi turli dinlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta’limoti va sharhlari hamda marosimlarini o‘tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD disklari, Internet tarmog‘ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar);

**vakolatli organ** — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita;

**ekspert kengashi** — vakolatli organ huzuridagi olimlar, ekspertlar va dinshunoslik hamda ilohiyotshunoslik sohasi mutaxassisleri kengashi.

4. O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga mo‘ljallangan material, agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, ekspertizadan o‘tkazilishi kerak.

5. Ekspertiza O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq murojaat etilgan kundan boshlab o‘n ish kuni davomida vakolatli organ tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq o‘tkaziladi.

6. Vakolatli organ huzurida olimlar, ekspertlar va dinshunoslik hamda ilohiyotshunoslik sohasi mutaxassislaridan iborat tarkibda ekspert kengashi tuzilishi mumkin.

7. Ekspertiza ko‘rsatib o‘tilgan faoliyatning biror turini amalga oshirishdan oldin yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining manfaatdor vazirliklari va idoralariining murojaatlari asosida o‘tkaziladi.

8. Yuridik yoki jismoniy shaxslar yoki manfaatdor vazirlik yoxud idora vakolatli organga quyidagilar uchun zarur hujjatlarni taqdim etadi:

a) materiallarni tayyorlash uchun:

ro‘yxatdan o‘tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

nashr etilishi rejalashtirilgan materiallar haqidagi ma’lumot;

b) materiallarni olib kirish uchun:

ro‘yxatdan o‘tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

mulk egasi yoki muayyan materialni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetkazib berish majburiyatini oluvchi huquq egasi bo‘lgan shaxs bilan tuzilgan shartnoma nusxasi;

olib kirilishi rejalashtirilgan materiallar haqida ma’lumot;

v) materiallarni tarqatish uchun:

ro‘yxatdan o‘tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

tarqatilishi rejalashtirilgan materiallar haqidagi ma'lumot.

9. Ekspertizani o'tkazishda ishtirok etuvchi mutaxassislar o'zlari haqida quyidagilarni: ma'lumoti, ilmiy darajasi, ish staji va dinshunoslik sohasidagi salohiyatiga oid boshqa axborotni ko'rsatishlari, shuningdek tadqiqot jarayoni, o'z xulosalarini diniy qoidalar, talqinlar, qonunlar bilan asoslab, batafsil tavsiflashlari, shaxsiy imzolari bilan tasdiqlashlari lozim.

10. O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi belgilarga ega materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatishga yo'l qo'yilmaydi:

jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyeiga qarab yoki boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoxud o'zga shaxslar mahsulotlarini obro'sizlantirish;

O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumi, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish;

urush, zo'ravonlik, terrorizm, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib etish;

milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborotni tarqatish; diniy e'tiqodni o'zgartirishga da'vat qilish;

dindorlarning diniy tuyg'ularini haqorat qilish yoki kamsitish;

fuqarolarni o'z konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarmasslikka chaqirish;

davlat, jamoat yoki diniy tashkilotlarning huquqlari va mol-mulkiga tajovuz qilishga undash;

giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ'ib qilish;

qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirishga da'vat qilish.

11. Vakolatli organga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat va diniy tashkilotlardan o'z yurishi-dagi masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun belgilangan tartibda o'zaro axborot hamkorligi yo'li bilan, shu jumladan elektron tarzda zarur hujjatlar va axborotlarni so'rash va olish huquqi beriladi, ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan hujjatlar va axborotlar bundan mustasno.

12. Vakolatli organ belgilangan tartibda tashkilotlarni, shu jumladan jamoat va diniy tashkilotlarni borib ko'rish huquqiga ega.

13. Ekspertiza natijalari majburiy hisobot hujjati hisoblanadi va xulosa sifatida rasmiylashtiriladi hamda individual raqamga ega bo'ladi.

Ekspertizaning ijobiy xulosasi O‘zbekiston Respublikasi hududida muayyan material turini tayyorlash, olib kirish va tarqatishga yoki shunday faoliyatni amalga oshirishni rad etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

14. Materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatishga oid ekspert xulosasi vakolatli organ raisi, u bo‘lmagan taqdirda uning o‘rni bosuvchi shaxs tomonidan imzolanadi.

15. Vakolatli organda Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri yuritiladi.

16. Vakolatli organ yiliga kamida ikki marta manfaatdor vazirliklar va idoralarga O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish va tarqatish taqiqlangan materiallar ro‘yxatini taqdim etadi.

17. Ekspert xulosasiga ko‘ra tayyorlashga taqdim etilgan material ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq vakolatli organning maxsus gologrammasi bilan tamg‘alanadi.

18. O‘zbekiston Respublikasi hududida materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bilan bog‘liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

19. Ushbu Nizom normalarini buzishda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javob beradilar.

Diniy mazmundagi materiallarni  
davlat dinshunoslik ekspertizasidan  
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari  
bo‘yicha qo‘mita tomonidan ruxsat etilgan diniy mazmundagi  
materiallarga beriladigan  
GOLOGRAMMA**



(Aylana bo‘ylab: «**\*O‘zbekiston\* Din ishlari bo‘yicha qo‘mita \*  
Committee of the Religion Affairs**»)

(Ichida: **Din ishlari bo‘yicha qo‘mita \* Committee of the  
Religion Affairs**» yozuvi tushirilgan kitob emblemasi)

## MUTAASSIB SHAXSNI ANIQLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Xalifalik davlatida yashash farzmi?
2. Xalifalik davlatini qurishga Qur'on yoki sunnatda aniq dalil bormi?
3. Alloh musulmon kishining imon keltirishda islom davlatida bo'lishini xohlaydimi?
4. Allohning murodi kishiga diniy-siyosiy masalalar bilan shug'ullanishidami yoki imon keltirish va go'zal amallar qilishidami?
5. Alloh bandalarni diniy-siyosiy masalalar bilan shug'ullanish uchun yaratganmi?
6. Islom ruknlari nechta?
7. Imon keltirib, ibodatlarning farz ekanini tan olgan, lekin bajar-maydigan inson musulmon hisoblanadimi?
8. Kishi imon keltirganidan so'ng biror amal yoki ibodatni bajarmagani uchun kofir bo'lib qolishiga aniq dalil bormi?
9. Shariat bo'yicha bir insonni boshqa bir kishi tomonidan kofir deyishi qat'iy qaytarilganini bilasizmi?
10. Jihodni islomning 6-rukni deyish uchun dalil keltiring.
11. Qur'onda jihodni «muqaddas urush» deb nomlagan oyatlar bormi?
12. Xalifalik o'rnatilmagan davlatdan boshqa yurtlarga hijrat qilish-ning hukmi qanday?
13. Islom manbalarida o'z joniga qasd qilish yoki o'zgalarni o'ldi-rish borasida nima deyilgan?
14. Musulmon odamning zamonaviy qonunlarga amal qilishi Qur'on yoki hadisda taqiqlanganmi?
15. Diniy olim deb kimlarga aytiladi?
16. Muhammad (a.s.) davridagi mushriklar bilan bugungi kundagi g'ayridinlarning maqomi tengmi?
17. Makka mushriklari haqida nozil bo'lgan oyatlarni din olimlari boshqa din vakillariga tatbiq etganiga dalillar bormi?
18. Islomning boshqa din vakillariga munosabati qanday?
19. «Dorul islom» deganda nimani tushunasiz?
20. O'zbekiston «dorul islom» diyoriga kiradimi?
21. Siz a'zo bo'lgan jamoaga qo'shilmagan boshqa musulmonlar-ning Allohning oldidagi holati qanday bo'ladi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### Normativ-huquqiy hujjatlar

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2014.

Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (янги таҳрири). – Т.: Адолат, 1998.

Терроризмга қарши кураш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. – Т.: Адолат, 2000.

### О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mavzuga doir asarlari

Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 328 б.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 октябрь.

Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.

Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

Каримов И. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 36 б.

Каримов И. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 23 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги // Халқ сўзи. – 2015. – 14 янв.

Каримов И. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – 304 б.

### Asosiy adabiyotlar

Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети, 2014. – 624 б.

Диний бағрикенглик ва мутаассиблик: (юз саволга – юз жавоб) / Масъул муҳаррир О.Юсупов. –Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – 156 б.



Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари: Ўқув қўлланма / Масъул муҳаррир А.С.Очилдиев. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – 246 б.

Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари / А. Насанов, О. Юсупов, К. Шермухамедов ва бошқ. – Т.: Мовароуннахр, 2013. – 160 б.

Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар: Ўқув қўлланма. – Т., 2000. – Б. 28.

Закурлаев А. Ўзбекистонда ғайриқонуний фаолият кўрсатаётган диний экстремистик ва террористик ташкилотлар ва бу ташкилотларни аниқлашда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идораларнинг вазифалари ва жамоат ташкилотлари билан ҳамкорлик: Услубий қўлланма. – Т., 2007.

Закурлаев А. Ўзбекистон ривожига таҳдид солаётган ғайриқонуний диний оқим ва террорчилик ташкилотлари. Тариқатчилик, аслият ва моҳият. – Тошкент, 2010. – 134 б.

Закурлаев А., Ахунов Б. Диний экстремизм ва террорчилик. – Т., Янги аср авлоди, 2004. – Б. 66.

Ислом ниқоби остидаги экстремистик ва террорчи уюшмалар (Маълумотлар тўплами) / Шермухамедов К., Каримов Ж. – Т.: Мовароуннахр, 2014. – 160 б.

Исмаилов И., Мамадалиев У. Диний экстремизм ва у билан боғлиқ жинойатларнинг олдини олиш муаммолари // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент Ислом университетининг илмий-таҳлилий ахбороти. – 2003. 4-сон. – Б. 50-53.

Комилов К., Насанбоев Ў., Ношимов Н. Диний экстремизм ва халқаро терроризм – жамият тараққиётига таҳдид: Маърифий-услубий қўлланма. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009.

Кремер Г. Ислом – дин ва давлат: исломда дин, ҳуқуқ ва сиёсатнинг ўзаро муносабати // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. – Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 60.

Муҳаммадиев Н.Э. Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. – Т., 2005. – Б. 102.

Очилдиев А., Нажмиддинов Ж. Миссионерлик: моҳият, мақсадлар, оқибатлар ва олдини олиш йўллари (юз саволга – юз жавоб). – Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – 200 б.

Тинчликни асраш – муқаддас бурч / У.Қўшаев, А.Аҳмедов, Ш.Жўраев ва б.; / Масъул муҳаррир А.Очилдиев. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – 32 б.

Тулєпов А. Ислон ва ақидапараст оқимлар. Тўлдирилган нашр / Масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Шарқ, 2014. – 536 б.

Тулєпов А. Интернетга ин қурган «ўргимчаклар». – Т.: Мовароуннахр, 2014. – 80 б.

Тураев Б.О., Закурлаев А.К. Ёшларни ақидапарастлар таъсиридан ҳимоялаш усуллари: Услубий қўлланма. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2010.

Қодиров А. Диний экстремизм – сиёсий ҳодиса. Экстремизм, терроризм, гуруҳий ва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари: Илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. – Б. 9.

Насанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Т.: Тошкент ислом университети, 2014. – 552 б.

Насанов А. Илк ислом жамияти: динийликдан дунёвийликка ўтиш // Ислон ва дунёвий-маърифий давлат. Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 28-29.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

Абдулазиз Мансур. Диний ақидапарастликнинг зарарлари // Адолат. – 2009. – 22 май.

Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. Б. 8.

Абу Лайс Самарқандий. Тафсири Самарқандий / Али Муҳаммад Муаввад нашрга тайёрлаган. Т.2. – Ливан: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1993. – Б.527.

Алиев Ж. Зулмат гирдоби. – Т.: Тошкент ислом университети, 2009. – Б. 32.

Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007. – 122 б.

Большаков О. История халифата. Т.1. – М.: Восточная литература, 2002.– С. 94.

Виланд Р. Давлат ва дин бирлиги исломнинг қатъий талабими? // Ислон ва дунёвий-маърифий давлат. – Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 73.

Горниченко И.И., Хакимов Ш.Ш., Закирходжаев Ш.А. Откровенно о сокровенном. – Т., 1991. – С. 57.

Жўраев Ш. Бузғунчи даъватчилар. – Т.: Тошкент ислом университети, 2010. – 40 б.

Закурлаев А.К., Нусниддинов Ш. Буддавийлик ниқоби остидаги диний- экстремистик гуруҳлар: Ўқув-услугий қўлланма // Тошкент ислом университети, 2010. – Б.34.

Зарипов З.С. Вояга етмаганларнинг гуруҳий жинойтчилиги ва унинг олдини олишга қаратилган айрим чоралар // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жинойтчиликка қарши кураш фаолиятини такомиллаштириш: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2001. – Б. 18-21.

Ислом зиёси ўзбегим сиймосида (Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри). – Т.: Тошкент ислом университети, 2005. – Б. 360.

Ислом маърифати: аслият ва талқин: Ўқув-услугий қўлланма. – Т.: Тошкент ислом университети, 2010. – Б. 160.

Ислом: Энциклопедия. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 313

Исмаилов И. Терроризмга қарши кураш // Қонун ҳимоясида. – № 7. – Т., 2004. – Б.30.

Усмоналиев М., Каракетов Й.. Криминология. – Т.: Тошкент Давлат юридик институти, – 2001. – Б. 338.

Мелиқўзиев Ж. Налокат тузоғи. – Т.: Тошкент ислом университети, 2013. – Б. 32.

Маърифат гулшани / Муаллифлар жамоаси. – Т.: Тошкент ислом университети, 2014. – Б. 200.

Маърифат зиёси / Муаллифлар жамоаси – Т.: Тошкент ислом университети, 2015. – Б. 312.

Мунавваров З. Ўзбекистон Республикасида дунёвийлик билан динийлик ўртасида янги нисбатнинг шаклланиши // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б.140-141.

Мустафо Н. Сиёсий ислом: исломий сиёсий андоза ҳақидаги масала бўйича айрим мулоҳазалар // Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003. – Б. 104.

Муҳаммад Имора. Ал-ислам вал ақаллият // Фикр ал-муслим ал-муасир. – Қоҳира: Марказ ал-Аҳром, 1992. – Б. 76-80.

Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-Ақоид ан-Насафийя / Аҳмад Нижозий нашрга тайёрлаган. – Қоҳира: Мактаба Азҳарийя, 1988. – Б. 66.

Ўзбекистон Республикаси конституциясига шарҳ / А.Азизхўжаев ва бошқ. Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 242.

Хуршид Даврон. Алпомишнинг уйғониши // Тафаккур. – 1994. – № 1. – Б. 16.

Нусниддинов З. Ислом ва диний экстремизм: ғоялар кураши // Халқ сўзи – 1999. – 22 сент.

Шермухамедов К. Жаҳолат тўри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2010. – Б. 48.

Энциклопедия молодой женщины / Перевод с чешского. Т. Энциклопедия, – 1992. С. 184.

### *Internetdagi veb-sahifalar*

[http: www.religions.uz](http://www.religions.uz) – Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita sayti

[http: www.tiu.uz](http://www.tiu.uz) – Toshkent islom universiteti veb-sayti.

[http: www.markaz.tiu.uz](http://www.markaz.tiu.uz) – Toshkent islom universiteti qoshidagi Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi veb-sahifasi.

<http://akadmvd.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi.

[http: www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Axborot ta’lim tarmog‘i.

[http: www.muslim.uz](http://www.muslim.uz) – O‘zbekiston musulmonlari idorasi veb-sayti.

[http: www.buxoriy.uz](http://www.buxoriy.uz) – Toshkent islom instituti veb-sayti.

[http: www.hidoyat.uz](http://www.hidoyat.uz) – «Movarounnahr» nashriyoti veb-sayti.

## MUNDARIJA

**Kirish** (TIU, IIV Akademiyasi)..... 3

### **I bob. O‘ZBEKISTONDA DINIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR HAMDA ULARNING TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDAGI O‘RNI**

*SH.Jo‘rayev.* O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning tarixiy va huquqiy asoslari ..... 8

*SH.Jo‘rayev.* Diniy adabiyotlarni nashr etish va ekspertiza qilish sohasidagi O‘zbekiston tajribasining afzalliklari ..... 13

*J.Najmiddinov.* Missionerlik va prozelitizm tahdidi va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ..... 17

### **II bob. ISLOM DINI HAMDA UNDAGI YO‘NALISH VA MAZHABLAR. DINIY TUSHUNCHALARNI BUZIB TALQIN QILINISHNING SALBIY OQIBATLARI**

*N.To‘ychiyeva.* Islom – tinchlik dini ..... 24

*SH.Jo‘rayev, M.To‘rayev.* Islomdagi aqidaviy yo‘nalishlar va fihiy mazhablar..... 27

*J.Karimov.* Islom asoslarini g‘arazli maqsadlarda buzib talqin qilishning mohiyati va shakllari ..... 33

*SH.Jo‘rayev, A.Qayumov, A.Babayev.* Vatanga xizmat – yuksak fazilat ..... 40

*I.Usmonov, D.Razakov.* Dunyoviylik – daxriylik emas ..... 44

*B.Sirliyev, Z.Nabiyev.* Kishilarni mutaassib shaxslar tomonidan psixologik ta‘sirga solayotgan omillar..... 52

### **III bob. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING KELIB CHIQISHI, SHAKLLANISHI. FUQAROLARNI EKSTREMISTIK OQIMLAR TA‘SIRIDAN ASRASHNING DOLZARB MASALALARI**

*K.Shermuhamedov.* Ekstremizm, terrorizm va axborot xurujlarining namoyon bo‘lish shakllari ..... 59

*K.Shermuhamedov.* Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib borishga intilayotgan diniy-ekstremistik harakatlarning xususiyatlari..... 66

*J.Muxtorov, A.Zakurlayev.* Profilaktika (katta) inspektorlarining xorijga ishlashga borayotgan va qaytib kelgan shaxslar bilan ishlash faoliyati ..... 77

<i>R.Abdumannapov, U.G'afurov. Mutaassiblikka qarshi kurashda</i> Ommaviy axborot vositalarining o'rni .....	82
<i>D.Turdiyeva. Ayollarni mutaassib shaxslar ta'siriga tushirayotgan omillar .....</i>	88
<i>J.Muxtorov, A.Zakurlayev. Mahallalarda diniy-ekstremistik oqimga moyilligi</i> bo'lgan oilalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar .....	94
Xulosa .....	105

## ILOVALAR

Glossariy .....	107
O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidan .....	125
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan.....	127
O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom .....	134
Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom.....	138
Mutaassib shaxsni aniqlash uchun savollar .....	143
Foydalanilgan adabiyotlar.....	144

# **EKSTREMIZM VA TERRORIZM – TARAQQIYOT DUSHMANI**

*Ichki ishlar tizimi xodimlari  
(profilaktika inspektorlari) uchun  
o‘quv-amaliy qo‘llanma*

**Muharrir S. A. Razzoqov**  
**Texnik muharrir D. R. Djalilov**

---

Bosishga ruxsat etildi 18.12. 2015 y. Nashriyot-hisob tabag‘i 9,0.  
Adadi 20 nusxa. Buyurtma №\_\_\_\_. Narxi shartnoma asosida.

---

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68